

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**Qo'lyozma huquqida
UDK: 338.488.2:640.41:001.85(575.1)**

PO'LATOV MA'MURJON MURODJON O'G'LI

**TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA
INNOVATSIYALARNI QO'LLASH MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan**

D I S S E R T A S I Y A

**Ilmiy rahbar:
i.f.d. (DSc), professor A. N. Norchayev**

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB. TURIZM INFRATUZILMASI VA UNI TASHKIL QILUVCHI VOSITALARNING RIVOJLANISHIDA INNOVATSIYALARING AHAMIYATI.....	13
1.1. Turizm infratuzilmasi va uning tarkibiy tuzilishi.....	13
1.2. Turizmda innovatsiyalarni qo'llash jarayonlari va bosqichlari.....	27
1.3. Turizmda qo'llanilayotgan innovatsiyalar va ularning turlari.....	38
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	50
II-BOB. O'ZBEKİSTONDA TURİZM INFRATUZILMASINING RIVOJLANISHI HOLATI VA SHART-SHAROITLARI.	53
2.1. Turizm infratuzilmasi rivojlanishi va unga ta'sir etgan omillarning iqtisodiy tahlili.....	53
2.2. Turizm infratuzilmasi tarkibiy qismlari rivojlanishida innovatsiyalarning qo'llanilishi holati.....	65
2.3. Mintaqalarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish orqali mahalliy aholining daromadlarini oshirish.....	76
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	89
III-BOB. TURİZMDA INNOVATSIYALARINI JORIY QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	91
3.1. Turizmda innovatsion jarayonlarni integratsiyalash mexanizmlari.....	91
3.2. Turistik destinatsiyalar infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish istiqbollari.....	102
3.3. Turizm infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash.....	114
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	128
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	131
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	133
ILOVALAR.....	145

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Dunyoda hozirgi tez o‘zgarayotgan iqtisodiy sharoitda turizmning rivojlanishi ham murakkab sharoitlarda o‘zinig muammolarini yechimlarini topmoqda. Hozirgi kunda yuzaga kelgan ziddiyatli mintaqaldardagi (Rossiya Federatsiyasi va Ukraina, Yaqin Sharq, Janubiy Amerika) qarama-qarshiliklarga qaramasdan turizm jadal rivojlanmoqda. Turizmning rivojlanish cho‘qqisi 2019 yildagi holatiga chiqish uchun (COVID-19 pandemiyasi oqibatlarini bartaraf etilishi) bir qator ishlar amalga oshirildi. Buning natijasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Butunjahon Turizm Tashkiloti (BMTBTT) ma’lumotlariga ko‘ra 2023 yilda turizm jahon yalpi ichki mahsulotining (YaIM) 10,4 %, har 1/10 ish o‘rni, jahon eksportining 7 %, xizmatlar eksportining 30 % to‘g‘ri kelgan. Xalqaro turistik harakatlarda 2023 yilda 1,462 mln.dan ortiq sayohlar qatnashgan bo‘lib, ularga ko‘rsatilgan xizmatlardan 1,480 mlrd. AQSh dollari miqdorida daromad olingan.

Dunyodagi bir qator mintaqalardagi yuzaga kelgan ziddiyatlar va iqtisodiy inqirozlarni bartaraf etishda turizmning imkoniyatlaridan samarali foydalanish, uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, xizmatlar ko‘rsatish sifatini yaxshilash, turmahsulotlarning raqobatbordoshligini ta’minalash, turistik destinatsiyalarning jozibadorligini oshirish, sohada innovatsion texnologiyalarning imkoniyatlaridan keng foydalanish, turistik resurslarni to‘g‘ri yo‘naltirish orqali mahalliy aholining bandligini ta’minalash, mintaqalardagi turistik resurslarni ishga tushirish uchun investitsiyalarni jalb qilish, turizmni rivojlantirish orqali uning YaHM (Yalpi hududiy mahsulot) va YaIMdagi ulushini oshirish borasida bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda.

O‘zbekistonda ham oxirgi yillarda ichki va tashqi turizmni rivojlantirish borasida jahon turizimida ro‘y berayotgan tez o‘zgarishlarga moslashish maqsadida, ayniqsa, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish orqali turizm infratuzilmasini takomillashtirish, turmahsulotlarning raqobatbardoshligini ta’minalash, turistik destinatsiyalarni rivojlantirish bo‘yicha bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Turizm infratuzilmasining asosini tashkil qiladigan ekskursiya,

joylashtirish, ovqatlantirish tarsnport tarmoqlarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish, respublikamizning turistik-rekreatsion resurslarga boy bo‘lgan hududlarida turistik klasterlarni tashkil qilish borasidagi tadqiqotlarga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda sohada yuzaga kelayotgan dolzarb masalalarni qisqa muddatlarda bartaraf qilish borasidagi chora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqilayotgan bo‘lib, ularning ijrosini ta’minlash bo‘yicha sa’y-harakatlari tobora kuchaytirilmoqda.

Bu borada, Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘jallangan taraqqiyot strategiyasida ko‘rsatib o‘tilgan maqsadlarida biri “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturida mahalliy sayyoohlar sonini qisqa mudatlarda 12 million nafarga yetkazish hamda respublikamizga tashrif buyurayotgan xorijlik sayyoohlar sonini 9 million nafarga oshirish¹ uchun infratuzilmani takomillashtirish muhim yo‘nalishlardan biri sifatida belgilab berildi. Belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz turizm infratuzilmasini takomillashtirishda innovatsion texnologiyalarni keng qo‘llash orqali ichki turizmga mahalliy aholini jalb qilish, xorijlik turistlar oqimini keskin ko‘paytirish orqali turistik xizmatlar eksportini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali mahalliy aholining bandligini ta’minlash va ko‘rsatilayotgan xizmatlar samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2021 yil 9 fevraldaggi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-son farmonlari, 2023 yil 27 iyuldaggi “Turizm yo‘nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-238-son, 2023 yil 26 apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-135-son,

¹<https://lex.uz/>. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон фармони. (Қонунчилик маълумотлари миллый базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон, 21.04.2022 й., 06/22/113/0330-сон; 10.02.2023 й., 06/23/21/0085-сон; 03.01.2024 й., 06/24/221/0003-сон)

qarorlari, shu bilan birgalikda sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan vazifalarning ijrosini ta'minlashda mazkur dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.

Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'r ganilganlik darjasи. Turizm sohasini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqishda xorijlik olimlardan J.Makens, Chris J.Bowen, Ryan, P.Kotler, D.Lundberg, Ch.Y.Gee, M.Krishnamurthy, D.Chey, J.C.Makens singari olimlarning ilmiy qarashlari ahamiyatlidir². Yuqorida nomlari keltirilgan olimlarning tadqiqotlarida turistik ximatlarni ishlab chiqishning nazariy tomonlariga, uni rivojlantirish bosqichlariga, xizmatlarni tashkil etishga ta'sir qiluvchi omillarniga katta e'tiborni qaratgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) olimlari ham turizm sohasidagi muammolarni N.I.Kabushkin, I.T.Balabanov, A.M.Vetitnev, A.Yu.Aleksandrova, V.A.Kvartalnov, M.A.Jukova, M.B.Birjakov, D.S.Ushakov, M.N.Dmitriev, L.V.Baumgarten, L.B.Juravleva, A.V.Borisova kabi oimlar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarini bag'ishlagan³. MDHdagi oimlar o'zlarining tadqiqotlarida asosan

²Kotler P., Bowen J. Makens J. Marketing For Hospitality & Tourism Pearson International Edition 2014, USA., Chris Ryan. Recreational Tourism: Demand and Impacts/Channel View Publications, 2003. -358 p., Lundberg D., Krishnamurthy M. - Tourism Economics. New York: John Wiley Sons Ine. 2003. -210 p., Gee Ch. Y., Makens J.C., Chey, D. The Travel Industry. 3d. Wdit. -New York John Wiley Sons Ine. 2003. -250 p.

³Александрова А. Ю. Международный туризм. Учебное пособие для вузов. - М.: Аспект Пресс, 2001.- 464 с.; Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Экономика туризма. – М.: Финансы и статистика, 2003. -176 с.; Биржаков М.Б. Введение в туризм. - Издание 9-е переработанное и дополненное. – СПб.: Издательский дом «Герда», 2007. -576 с.; Кабушкин Н.И. Менеджмент туризма: Учебник. 4-е изд., стереотип. – Минск: Новое знание, 2004. - 409 с.; Квартальнов В.А. Туризм: история и современность: Избранные произведения: В 4-х т. -М.: Финансы и статистика, 2002. - 499 с.; М.Н.Дмитриев, М.Н.Забаева, Е.Н.Малыгина. Экономик туристского рынка: учебник для студентов вузов, обучающихся по направлениям сервиса и туризма. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2012. -311 с.; Л.В.Баумгартен. Управление качеством в туризме. Практикум: учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2008. -288 с.; А.М. Ветитнев, Л.Б. Журавлева. Курортное дело: учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2006. 528с.; А.В.Борисова. Курортное дело и оздоровительный туризм: учебное пособие. – Ярославль: ЯрГУ, 2009. -114 с.; Д.С.Ушаков. Экономика туристской отрасли: учебное пособие. – Ростов на Дону: «МарТ»; Феникс, 2010. -446 с.; Жукова М.А. Менеджмент в туристском бизнесе. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2006. -160 с.

mintaqalarda turizm infratuzilmasini yaxshilash orqali xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish va rivojlantirish jihatlarini tadqiq etgan.

Mamlakatimiz olimlaridan S.S.G'ulomov, Q.X.Abdurahmanov, N.T.To'xliyev, M.Q.Pardayev, A.A. Eshtayev, A.M.Abduvohidov, M.T.Aliyeva, A.N.Norchayev, D.X.Asanova, B.N.Navro'z-zoda, O.M.Pardayev, B.H.To'rayev, O.H.Xamidov, B.Sh.Safarov, N.S.Ibragimov, S.S.Ro'ziyev⁴ singari olimlarning ilmiy ishlarida turizm sohasini rivojlantirish, boshqarish, turistik resurslardan samarali foydalanish, yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilishga e'tibor qaratilgan.

Keltirib o'tilgan olimlar va tadqiqotchilarlarning izlanishlari sayohatlarni samarali tashkil etish, raqobatbardosh xizmatlarni ishlab chiqish, resurslardan maqsadli foydalanish, boshqaruvni samarali tashkil qilish va infratuzilmani takomillashtirishga yetarlicha hissa qo'shgan. Shuningdek, olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda turistik faoliyatni amalga oshirishda innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish, turizm destinatsiyalarini rivojlantirish orqali yangi ish o'rinalarini yaratish, davlat-hususiy sheriklik asosida sohani rivojlantirish, tarmoqlarning mutonosibligi kabi masalalar yetarli o'rganilmaganligi sababli infratuzilmani rivojlantirishda innovatsiyalarini joriy qilish mexanizmlari bilan bog'liq omillarni tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

⁴Гулямов С.С., Жумаев Н.Х., Рахманов Д.А., Тошходжаев М.М. Ижтимоий соҳада инвестицияларнинг самарадорлиги. Монография. – Т.: IQTISODIYOT, 2019. –203б.; Абдурахмонов К.Х. Менежмент туризма: Учебное пособие. – Т.: Филиал ФГБОУ ВПО «РЭУ им. Г.В. Плеханова» в г. Ташкенте, 2013.; Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. – Т.: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. -2006. -367 с.; Пардаев М.К., Атабаев Р. Туристик ресурсларни таҳлил қилиш ва баҳолаш. - Самарқанд: СамИСИ, 2006. -137 б.; Асланова Д.Х. Модели формирования туристского кластера за рубежом. //Сервис, 2013. - №1. -С: 4-9; Н.Навруз-зода Б., Ибрагимов Н.С., Навруз-зода З.Б., Навруз-зода Ш.Б. Туристик ҳудуд рақобатбардошлиги. Монография. Бухоро: “Sadriiddin Salim Buxoriy” Durdonashashriyoti, 2017 -156 б.; Пардаев О.М. Менежмент. Ўқув кўлланма. – Т.: Фан ва технология, 2019. –248б.; Абдувоҳидов А.М.. Туризмда электрон бизнес. Ўқув кўлланма. – Т.: ТДИУ. Иқтисодиёт, 2020. -189 б.; Эштаев А.А. Глобаллашув шароитида туризм индустриясини бошқаришнинг маркетинг стратегияси (Ўзбекистон Республикаси туризм тармоғи мисолида). DSc. диссертация автореферати – Самарқанд. 2019. Тураев Б.Х. Развитие организационно-экономических механизмов функционирования регионального туризма: -док.дисс. автореф., 2011.– 38 с.; Хамидов О.Х. Выбор конкурентной стратегии предприятий на рынке туристических услуг Узбекистана: канд. дисс. автореф, 2006. -22 с.; Сафаров Б.Ш. Миллий туристик хизматлар бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик-услубий асосларини такомиллаштириш: и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – С.: СамИСИ, 2016. -254 б.; М.Т. Алиева. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида туризм хизматлари соҳасини бошқаришнинг иқтисодий жиҳатлари: иқт.фан.док. дисс. автореф. – С.: СамИСИ, 2019. -77 б.: Ибрагимов Н.С. Ўзбекистонда халқаро туризмни ривожлантиришда дестинацион менежмент концепциясини кўллаш. – иқт.фан.ном. дисс.автореф, 2008. –23 б; Рӯзиев С.С. Ўзбекистон маданий туризм бозори ва унинг истиқболлари: – иқт.фан.ном. дисс. автореф. 2009. –21 б.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan olyy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog’liqligi. Mazkur dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Bozor raqobati sharoitida real sektor tarmoqlari hamda korxonalar rivojlanishining ilmiy-metodologik asosini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Respublikamiz turizmi infratuzilmasiga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- turizm infratuzilmasining tuzilishi va uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarini tadqiq qilish;
- turizm infratuzilmasini rivojlantirishda innovatsiyalarni qo‘llash jarayonlarini amalga oshirishni tasniflash;
- turizm sohasiga joriy qilingan innovatsion texnologiyalar va ularning turlarini tahlil qilish;
- O‘zbekiston turizmi infratuzilmasining rivojlanish tendensiyalarini va holatini tahlil qilish;
- turizm infratuzilmasining tarkibiy qismlariga innovatsiyalarni qo‘llanish orqali rivojlanish imkoniyatlarini tahlil qilish;
- turizm infratuzilmasini mintaqalarda rivojlanish orqali mahalliy aholining bandligi va daromadlarini oshirishning samaradorligini baholash;
- turizmda qo‘lanilayotgan innovatsion jarayonlarni o‘zaro integratsiyalash mexanizmlarini ishlab chiqish;
- turizm destinatsiyalarida infratuzilmani va rivojlanish va shakllantirish yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi turizm infratuzilmasi faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti turizm infratuzilmasi ob'ektlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish, xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlar faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqot usullari Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, analiz va sintez, qiyosiy taqqoslash, mantiqiy va qiyosiy tahlil, zamon va makon, matematik va statistik, statistik guruhlash, SWOT-tahlil, iqtisodiy tahlilning an'anaviy modellashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

turizm infratuzilmasini rivojlantirish mexanizmi turistik xizmatlarning samaradorligini oshirishga ijtimoiy media platformalari orqali ta'sir etuvchi mijozlar bilan aloqa o'rnatish, ularga samarali axborot taqdim etish, turistik xodimlar uchun onlayn ta'lif platformalari asosida o'quv jarayonlarini tashkil qilishga yo'naltirilgan innovatsion texnologiyalar vositasida takomillashtirilgan;

Jizzax viloyatida turistik-rekreatsion destinatsiya infratuzilmasi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar aniqlangan va davlat-xususiy sheriklik asosida turistik destinatsiyalar infratuzilmasini innovatsion asosda rivojlantirishga yo'naltirilgan "Baxmal" rekreatsion-sog'lomlashtirish klasterini tashkil qilish asoslangan;

hududning turistik xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirish dasturlarida turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha belgilanuvchi chora-tadbirlar tarkibida innovatsion tavsiyadagi tadbirlarning ulushini izchil ravishda oshirib borish orqali innovatsiyalarni qo'llash mexanizmlarini takomillashtirish taklifi asoslangan;

O'zbekistonda turizm infratuzilmasi rivojlanishining 2030 yilga qadar o'rta muddatli prognoz parametrlari ko'p omilli ekonometrik modellarni qo'llash asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

innovatsion texnologiyalar vositasida turistik xizmatlarning samaradorligini oshirish, ijtimoiy media platformalari orqali sayyoohlar bilan aloqa o'rnatish va samarali axborot taqdim etish, sohada faoliyat olib borayotgan xodimlar uchun

onlayn ta’lim platformalari asosida ularning malakasini doimiy ravishda oshirib borish jarayonlari asoslangan;

Jizzax viloyati turistik-rekreatsion destinatsiyasida davlat-xususiy sheriklik asosida “Baxmal” rekreatsion-sog‘lomlashtirish klasterini tashkil qilish va destinatsiya infratuzilmasini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish yo‘nalishlari ishlab chiqilgan;

innovatsiyalarni qo‘llash mexanizmlarini takomillashtirish orqali hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilayotgan chora-tadbirlar tarkibida innovatsion tavsifdagi tadbirlarning ulushini izchil ravishda oshirib borish asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil jarayonida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Butunjahon Turizm Tashkiloti (UNWTO), O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasining rasmiy statistik ma’lumotlaridan keng foydalananilganlik, tadqiqotda qo‘llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, olingan xulosalar, takliflar va ishlab chiqilgan tavsiyalarning amaliyatga joriy etilganligi, olingan natijalarning mutasaddi vazirliklar va tashkilotlar tomonidan ma’qullanganligi tadqiqotning ishonchlilik darajasini tasdiqlaydi.

i

n Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ularga asosan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan respublikamiz turizm infratuzilmasiga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturlarini, me’yoriy-huquqiy hujjatlarni, turiztik xizmatlarni amalga oshiruvchi sub’ektlarning faoliyatidagi o‘zaro munosabatlarni ta’minlashga ta’sir etuvchi bir qator omillarni aniqlashda, shuningdek, turizm sohasida oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlaydigan oliy o‘quv yurtlarida “Xalqaro turizm bozori”, “Turizm resurslari”, “Mehmonxona menejmenti”, “Turizm menejmenti”, “Turistik mahsulotlar marketingi”, “Turizmda transport xizmatlari”, fanlaridan darsliklar, o‘quv n

qo‘llanmalar, sillobuslar, masalalar to‘plami tayyorlashda uslubiy manba sifatida foydalanishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Respublikamiz turizm infratuzilmasini rivojlantirishda innovatsiyalarni qo‘llashning ilmiy-metodologik asoslari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

turizm infratuzilmasini rivojlantirish mexanizmi turistik xizmatlarning samaradorligini oshirishga ijtimoiy media platformalari orqali ta’sir etuvchi mijozlar bilan aloqa o‘rnatish, ularga samarali axborot taqdim etish, turistik xodimlar uchun onlayn ta’lim platformalari asosida o‘quv jarayonlarini tashkil qilishga yo‘naltirilgan innovatsion texnologiyalar vositasida takomillashtirish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-9-sonli Farmoniga 4b-ilovasi 2 bandi ijrosini ta’minalashda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi qo‘mitasining 2024 yil 14-noyabrdagi 03-12-17-8052-soni ma’lumotnomasi). Mazkur takliflarning amaliyatga joriy etilishi turizm sohasida faoliyat olib borayotgan xodimlarning malaka va madaniyatini oshirish bo‘yicha o‘qitish tizimini yo‘lga qo‘yish imkonini yaratilgan;

Jizzax viloyatida turistik-rekreatsion destinatsiya infratuzilmasi rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar aniqlangan va davlat-xususiy sheriklik asosida turistik destinatsiyalar infratuzilmasini innovatsion asosda rivojlantirishga yo‘naltirilgan “Baxmal” rekreatsion-sog‘lomlashtirish klasterini tashkil qilish taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-9-sonli Farmoniga 3-ilova Xorijiy va mahalliy turistlar oqimini yanada oshirish hamda zarur shart-sharoitlarni yaratish bo‘yicha yo‘l xaritasida belgilab berilgan vazifalarning ijrosini ta’minalashda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi qo‘mitasining 2024 yil 14-

noyabrdagi 03-12-17-8052-son ma'lumotnomasi). Shuningdek, Baxmal tumanining turistik va infratuzilma salohiyati o'rtasidagi nomuvofiqliklarni o'z vaqtida bartaraf etib borish imkoni yaratilgan;

hududning turistik xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirish dasturlarida turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha belgilanuvchi chora-tadbirlar tarkibida innovatsion tavsifdagi tadbirlarning ulushini izchil ravishda oshirib borish orqali innovatsiyalarni qo'llash mexanizmlarini takomillashtirish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-yanvardagi "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-9-sonli Farmonining 19 bandidagi belgilab berilgan vazifalarni ijrosini ta'minlashda foydalanimoqda. (O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi qo'mitasining 2024 yil 14-noyabrdagi 03-12-17-8052-son ma'lumotnomasi). Mazkur takliflarning amaliyatga joriy etilishi Jizzax viloyatida turistik xizmatlar ko'rsatishni amalga oshirish dasturlari va infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishga xizmat qilgan;

O'zbekistonda turizm infratuzilmasi rivojlanishining 2030 yilga qadar o'rta muddatli prognoz parametrlari ishlab chiqilgan taklifi Turizm qo'mitasi tomonidan "Mamlakatda turizm infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanimagan. (O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi qo'mitasining 2024 yil 14-noyabrdagi 03-12-17-8052-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyatga tatbiq etilishi natijasida iqtisodiyot tarmoqlari va turizm xizmatlari bozori resurs komponentlarining optimal integratsiyasi hisobiga sanatoriylar, mehmonxonalar va kurortlar majmualarining maqsadli parametrlarini samarali belgilash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta (shu jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika) ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi qoshidagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola nashr qilingan. Ularning 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan maqolalar hisoblanadi.

, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Uning umumiyligi hajmi

I-BOB. TURIZM INFRA TUZILMASI VA UNI TASHKIL QILUVCHI VOSITALARNING RIVOJLANISHIDA INNOVATSIYALARING AHAMIYATI

1.1. Turizm infratuzilmasi va uning tarkibiy tuzilishi

Bugungi kunda iqtisodiyotning qaysi bir sohani olmaylik, davlat tomonidan yetarlicha e'tibor qaratilmasa uning rivojlanishi uchun me'yoriy-huquqiy asoslar yaratilmasa rivojlanish ta'minlanmaydi. Mamlakatimizda 2016 yildan boshlab turizmni rivojlantirishga uning infratuzilmasini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Turizmni iqtisodiyotning strategik ahamiyatga ega bo'lgan sohasi sifatida rivojlantirishga kirishildi. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish va uning tarkibiy qismlarini shakllantirish doimiy nazoratga olindi.

Turizm infratuzilmasini takomillashtirish va shakllantirishda eng avvalo infratuzilmaning tarkibiga nimalar kirishini aniqlab, savollarga javob topishimni maqsad qilib olgihimiz lozim. Infratuzilma (lotincha “Infra” - ostida, pastda, “struktura” - tuzilma, joylashuv) tarmoq yoki sohaning bir maromda ishlashini ta'minlaydigan, tarkibiy qismlari bir-biriga bog'langan holda xizmat ko'rsatish tuzilmalari yoki ob'ektlar birlashmasidir. Infratuzilmalar maqsadi va vazifalariga ko'ra bir qator ko'rinishga ega bo'ladi. Biz bularning ichida maqsaddan kelib chiqqan holda ko'proq iqtisodiy infratuzilmaga to'xtalamiz. Aholining jamoaviy birgalikda hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan birlamchi ehtiyojlarini qondirish, kommunikatsiya, ta'lim va communal xo'jalik, aloqa, turar-joy, turmush tarzini o'rgatish, transport iqtisodiy infratuzilma majmuiga kiradi. Iqtisodiy infratuzilmaga yanada kengroq yondoshadigan bo'lsak, hayotiy zarur bo'lgan xo'jalik va madaniy ob'ektlar, xizmat ko'rsatishni amalga oshiruvchi tarmoqlar (yo'llar, kanallar, energetika, suv ta'minoti, omborlar, transport, aloqa, fan, ta'lim, sog'lijni saqlash, moliyaviy tashkilotlar va h.k.) mahalliy boshqaruv majmuasi bo'lib hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda qaralsa turizm infratuzilmasi ham sohasining ajralmas ikki asosiy qismni o'z ichiga oladi.

Birinchi asosiy qism - bu turizm industriyasini tashkil qiluvchi mehmonxona, joylashtirish vositalari va restoran, ovqatlantirish xizmatlarini ko‘rsatadigan tashkilotlar kiradi.

Ikkinci asosiy qism – infratuzilmani tashkil qiladigan tarkibiy qismlar bo‘lib, uchta tizimni o‘z ichiga oladi . Infratuzilmaning birinchi tizimi turistik mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan, ammo turistik xizmatlarni taqdim etish uchun zarur bo‘lgan energetika, kommunal xizmatlar, moliya, sug‘urta, aloqa, xavsizlik tizimlarini o‘z ichiga oladi.


Infratuzilmaning ikkinchi va uchinchi qismiga turmahsulotlarni ishlab chiqarishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xizmat qiladigan, turistik ob’ektlar, ko‘rgazma o‘kazish zallari, kinoteatrlar, muzeylar, taksi parklari, avtomobillar ijarasi, sport-sog‘lomlashtirish kulublari, ekzotik parklar, hayvonot bog‘lari va boshqa xizmatlarni amalga oshiruvchi korxonalar kiradi.

Turizm infratuzilmasining asosiy tarkiblari bo‘lib, joylashtirish (mehmonxonalar, motellar, xostellar, kempinglar, mehmon uylar) vositalari, ovqatlantirish (restoran, milliy oshxon, kafe, bar) korxonalari, transport (aeroportlar, temir yo‘llar, magistrallar, portlar) tarmog‘i, kommunikatsiya (aloqa bo‘limlari) tarmoqlari, communal (oqova suv, elektr) tarmoqlari, huquq-targ‘ibot tashkilotlari, tibbiy, maishiy xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar, sovg‘a do‘konlari, sport inshoatlarini hisoblanadi. Shu bilan birgalikda sayyohlik xizmatlarini ko‘rsatuvchi tashkilotlar bilan chambarchas bog‘langandir.

Turizm infratuzilmasi turistik sayohatlarni amalga oshirishning zaruriy shart-sharoitlarini, sayyohlarning xavfsizligi, sog‘ligini ta‘minlashga qaratiladi. Hammamizga ma'lumki, turistlar qaysi mintaqada sayohatlarga sharoit yaratilgan bo‘lsa (tinchlik, osoyishtalik) o‘sha joyga borishni ma'qul ko‘radi. Sababi, turist sayohati davomida avtobusdami, poyezddami, mehmonxonadami, restorandami qayerda bo‘lsa ham o‘zini xavf-xatardan yiroqda sezishi zarur.

Turizmnинг oldiga qo‘yan maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda uning shakllangan infratuzilmasi bo‘lishi lozim. Shu bois turizmning

ixtisoslashtirilgan infratuzilmasini quyidagi 1.1.1-rasmda keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir.



1.1.1-rasm. Turizm infratuzilmasining tarkibiy tuzilishi⁵.

Turizm sektoriga xizmat qiladigan ob'ektlar turizm infratuzilmasini tashkil qiladi, shu jumladan, sanoatning turizmga tegishli (qayta ishlash, maishiy, energetika) korxonalar, muxandislik va kommunikatsion majmular, yo'llar, sayyohlik ob'ektlaridan maqsadli foydalanish, turistik ob'ektlarga sayyoohlarning kirib-chiqishi uchun sharoitlar yaratish va turizm industriyasini rivojlantirish imkoniyatlarini ta'minlaydi.

⁵Turizm infratuzilmasining tarkibiy qismlari muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Turizm infratuzilmasini yanada yaxshiroq tushunish uchun bundan kengroq oladigan bo‘lsak, turizm infratuzilmasi - sektorning aniq va to‘laqonli ishlashi uchun zarur bo‘lgan sharoitlarni yaratishi, turistik resurslardan sayyoqlik tashkilotlarining samarali foydalanishini, shuningdek, xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning faoliyatini muvofiqlashtiradigan, turizm industriyasi rivojlanishiga sharoit yaratadigan, rekreatsion tuzilmalar va yordamchi tarmoqlar majmuidir degan tushunchani berishimiz mumkin.

Yuqoridagi tahlillar va ko‘rib o‘tilgan omillardan xulosa qilinadigan bo‘sak, fikrimizcha “*Turizm infratuzilmasi – turizm bozorida sub’ektlar taklifi va turistlar talabini qondirish uchun xizmat qiladigan tashkilotlar va turistik ob’ektlar majmuasidir*”⁶ –deb ta’rif bersak bo‘ladi.


Ilmiy–texnika taraqqiyoti natijasida turizm infratuzilmasi kundan-kunga takomillashib bormoqda. Bugungi kunda fan-texnika (innovatsiya) yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etmagan soha inqirozga uchramoqda. Turizm infratuzilmasida innovatsiyalar mehmonxonalarda, ovqatlantirish korxonalarida, axborot kommunikatsiyada, transport vositalarida keng ko‘lamda foydalanilmoqda.

Birgina temir yo‘l transportini oladigan bo‘lsak, bu tarmoqda innovatsion texnologik omillar ta’sirida poyezdlar qatnovi tezligini oshirilishi bilan ifodalanadi. Texnika yutuqlaridan samarali foydalanayotgan Xitoy, Yaponiya, Frantsiya, Germaniya va Koreya Respublikalarida yuqori tezlikdagi xarakatlanuvchi poyezdlar 400-550 km. soatigacha tezlikka erishmoqda. Turistlar uchun temir yo‘l transportining afzalliklari yuqori bo‘lib, aviatsiya va dengiz transportiga qaraganda havsizligi eng yuqori darajada ta’milaganligi bilan harakterlidir. Bundan tashqari shahar markazida joylashgan temir yo‘l vokzallari turistlar uchun qulay imkoniyatlar yaratadi.

Internet tarmog‘i va platformalarining taraqqiy etishi turizm infratuzilmasiga sezilarli darajada ta’sir o‘tkazmoqda. Internet tizimi orqali turistlar dunyoning hohlagan nuqtasidan turib mehmonxonalarni bron qilish, transportga chiptalarni elektron harid qilish, turistik yo‘llanmalar va marshrutga kiritilgan ob’ektlar bilan

⁶ Tadqiqotching “Turizm infratuzilmasi”ga bergan ta’rifi.

oldindan tanishish imkoniyatlariga ega bo‘lmoqda. Bundan tashqari turoperatorlarning turistik mahsulotlarni ishlab chiqishida innovatsiyalarni keng joriy qilish natijasida (ob’ektlar haqidagi 3D formatdagi ma’lumotlar) xizmat ko‘rsatish sifati ortib bormoqda.



1.1.2-rasm. Turizm infratuzilmasining umumiyligi tavsifi⁷.

Turizm infratuzilmasini 1.1.2-rasmida berilgan umumiyligi tavsif orqali ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak, transportning ahamiyati katta bo‘lib, rivojlangan transport infratuzilmasi bo‘lmasa turistik resurslar va ob’ektlar yetarli darajada bo‘lsa ham tashrifflar yetarlicha amalga oshirilmaydi. Shuning uchun transport turistlarga xizmat ko‘rsatishda asosiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Ishlab chiqilgan barcha yo‘nalishlarda (yaqin masofalar va piyodalardan tashqari) turoperatorlar tomonidan turistlarning ob’ektlarga etib borishi va sayyohatlarini nihoyasida uyga qulay sharoitlarda etib olishida transport vositasini talab qiladi. Umumiyligi foydalaniладиган, shu jumladan turizmda ham keng tarqalgan transport vositalari asosan uch turga (quruqlik, suv va havo) bo‘linadi. Quriqlikda harakatlanayotganda turistlar asosan avtobus, avtomobil va temiryo‘ldan ko‘proq

⁷Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

foydalananadi. Ayniqsa, avtobuslardan turistik ekskursiyalarda eng ko‘p foydalanimadi. Oxirgi yillarda turistlar ko‘proq engil avtomobilarni ijaraga olishga talabi ortib borishi kuzatilmogda. Shu bilan birgalikda, aksariyat yoshi katta turistlar (respublikamizga tashrif buyurayotgan turistlarning tahlillari ko‘rsatishicha ularning asosiy qismini yoshi 50 dan katta bo‘lganlar tashkil qiladi) habsizlik nuqtai-nazaridan kelib chiqqan holda jamoat transportlarini ma’qlu ko‘rishmoqda. Shu bilan birgalikda turistlarning habsizligi bo‘yicha eng qulayi temir yo‘l transporti bo‘lib hisoblanishi bilan birgalikda, o‘rta masofalarga turistlarni eng yuqori tezlikda va minimal narxlarda etib borishini ta’minlaydi. Ba’zi bir hollarda mahsus jihozlangan poezdlarda turistik sayohatlarni ham amalga oshirish mumkin. Turistlar harakatlanishda dengiz va daryo transportidan ham keng foydalananadi. Bu transport turi eng arzon turlarni taklif etish imkoniyatiga ega. Turizmda hozirda suv transportining ikki turidan keng foydalanoqda. Bulardan suv osti (suv osti kemalari, batiskaflar va maxsus suv ostiga sho‘ng‘ish qurilmalari) va suv usti (teploxdolar, yirik sayohat kemalari, dengiz paromlari, yaxtalar, katerlar, matorli va eshkakli qayiqlar) transportlarini olishimiz mumkin.

Havo transporti boshqa transport vositalariga qaraganda juda tez rivojlanayotgan soha bo‘lib, yildan-yilga takomillashib bormoqda. Bungungi kunda kichik samolyotlardan tortib yirik xajmga ega bo‘lgan (350dan ortiq yo‘lovchilarni o‘z saloniga sig‘dira oladigan va 250 tonnagacha yuk ko‘tarish imkoniyatiga ega bo‘lgan) samolyotlardan keng foydalanimogda. Havo transportining muhim xususiyati shundan iboratki, u nisbatan juda qimmatligiga qaramay, turistlarning uzoq masofalarni (15 ming km.gacha) qisqa vaqtarda bosib o‘tishi imkoniyatini taqdim etadi. Ekzotik turizm yo‘nalishlarida keng foydalanimadigan havo sharlari, dronlar, deltaplanlar, parashyutlar ham keng ommolashgan.

Umuman olganda fuqarolarni tashishda avvalo havo transportining keng ko‘llanilishi sifatida ko‘rib chiqiladi. Lekin, turizmda uning qulayligi yuqori

darajada xizmat ko‘rsatishi, shinamligi, tezligi bilan sayohlarni olis masofalarga tashishda so‘zsiz yetakchi hisoblanadi⁸.

Turizm infratuzilmasinining asosiy vositalardan biri joylashtirishdir. Har qanday turist mehmonxona xizmatidan foydalanishga majburdir. Chunki, turistlar sayohatlarni davom ettirishi uchun o‘z vaqtida uxlashi dam olishi zarur. Turizm infratuzilmasida mehmonxonalar va joylashtirish alohida o‘rin tutadi. Ilmiy adabiyotlarda va keng jamoatchilik “Mehmonxona” tushunchasi bilan birga “Otel” atamasini ham ishlatadi. Turizmdagi tasniflanishlarga ko‘ra joylashtirish vositalari jamoaviy, ixtisoslashtirilgan va individual turlarga ajratiladi. Bunga ko‘ra jamoaviy joylashtirish vositalariga mehmonxonalar (yirik, o‘rta va kichik, mehmon uylar), motellar, yotoqxonalar (xostellar) va boshqalar kiritiladi. Kongress-markazlari, kurortlar, pansionatlar, sanatoriyalar, qisqa muddatli dam olish uylari, sog‘lomlashtirish va sport bazalari, sport turistik bazalari, to‘xtab turiladigan joylar (kempinglar), ovchilar qo‘nalg‘alari (baliqchilar), rotel, botel va flotellar maxsus jihozlangan joylashtirish tashkilotlarlariga kiritilgan. Individual joylashtirishda asosan yuqoridagi ikki holatga nisbatan kamroq talab bo‘ladi. Bu vositalarga ijara ga beriladigan xonadonlar (asosan qisqa muddatlarga), kvartiralardagi xonalar (bitta uyda bir nechta ijarachi), uylar (dachalar), kottejlar va boshqalar kiritiladi.

Turizmda oxirgi 10-15 yilda tez rivojlanayotgan sohalardan biri ovqatlantirish infratuzilmasidir. Rivojlangan davlatlar turistlarni o‘zlariga ko‘proq jalb qilish maqsadida milliy toamlarni keng targ‘ib qilish ishlarini olib bormoqda. Gostronomik turizm yo‘nalishlari taklif etilmoqda. Kupchilik turistlar tashrif buyurgan mamlakatning milliy ta’omlarini tatib ko‘rishga qiziqadi. Ko‘pincha ular mustaqil o‘zлari shaharlarni aylanib yurganda antiqa ta’omlar va milliy ovqatlarni tayyorlanishi haqida ma’lumotlarni to‘plashga harakat qiladi. Turistlarni maxsus holda milliy ta’omlar bilan tanishtirish bo‘yicha ko‘plab sayohatlar tashkil etiladi. Bu borada respublikamizda ham o‘zbek milliy toamlarini keng targ‘ib qilish ishlari amalga oshirilmoqda. Har qanday ovqatlantirish korxonalari turistlarning ko‘nglini

⁸ <https://www.elibrary.ru>. Черноброва В.К., Шарейко О.И. Погрессивные технологии по организации путешествий различными видами транспорта. Научная статья. 2016. –с 88.

olish uchun eng yuqori darajada xizmat ko‘rsatishni hohlaydi. Turistlarning oziq-ovqatga (ovqatlanish) bo‘lgan ehtiyojini birinchi navbatda umumiy ovqatlanish (restoran, bar, kafe) korxonalari qondiradi. Turistlarni ovqatlantirish shaxobchalari asosan xizmat ko‘rsatish madaniyati, xodimlarning darjasи, xizmatlar sifati, taomlar assortimenti, oshxonasingning shinamligi, o‘rinlar soni, ish tartibi va boshqalar orqali tasniflanadi. Hozirgi kungacha dunyo bo‘yicha ovqatlantirish korxonalarining yagona amal qiladigan tasniflari ishlab chiqilmagan. Lekin, shartli tarzda amal qiladigan ma’lum bir ko‘rinishdagi (tipdagi) ovqatlanish korxonalari ko‘pgina mamlakatlarda ajratilib ko‘rsatiladi.

Hozirda ixtisoslashgan milliy taomlarni tayyorlaydigan restoranlar tarmoqlari ham keng tarqalmoqda. Bularga hozirda juda mashhur bo‘lib borayotgan turkcha, amerikacha, italyancha, grekcha, xitoycha, inglizcha, hindcha, fransuzcha, nemischa milliy toamlarni tayyorlayotgan restoranlarni olishimiz mumkin. Bu restoranlarning ayrimlarida narx-navolarning arzonligi bilan turistlarni o‘ziga jalg qilsa, ayrimlari juda qimmat tansiq taomlarni taklif etishi bilan ajralib turadi. Masalan, Bavariya oshxonasi Germaniyaga tashrif buyurgan turistlarni mashhur oq sosiskalar va mahalliy pivolar bilan mehmon qiladi. Italiya oshxonasi makaronli taomlar assortimenti bilan turistlarni mehmon qiladi.

Oxirgi yigirma yillikda turizm infratuzilmasi rivojlanishida axborot texnologiyalarining ahamiyati oshib bormoqda. Shunga mos ravishda turizm innovatsion axborot texnologiyalarini tezda amaliyatga tadbiq etish uchun eng qulay sohaga aylanmoqda. Buni qisqa vaqtida mehmonxonalarini bron qilish, transport vositalarini buyurtma qilish, marshrut bo‘yicha ma’lumotlarni olish imkoniyatlarini beradi. Shu bilan birgalikda buyurtmalarga qo‘sishimcha va tuzatishlar kiritish, xizmat ko‘rsatish vaqtida qo‘sishimcha vazifalarni zudlik bilan amalga oshirishni ta’minlaydi. Bu kabi imkoniyatlar xizmat ko‘rsatuvchilar va turistlarning qimmatli vaqtalarini tejaydi, ularni qo‘sishimcha xarajatlardan ozod qiladi.

Axborot texnologiyalari tizimi rivojlanishi orqali turoperatorlar va turistlar internetdan o‘zлari uchun kerakli ma’lumotlarni hohlagan vaqtida olishlari mumkin.

Bunda ular kundalik ish vaqtida axborotlarni olishi, qayta ishlashi va hamkorlar bilan aloqalar o‘rnatishi, shartnomalarni tuzishi, mijozlar bilan aloqaga chiqishlari mumkin.

Turizm infratuzilmasi rivojlanishida bir qator omillar etakchi ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu omillarning bir nechtasini tahlil qilib o‘tishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Turizm infratuzilmasi va turistik destinatsiyalarning rivojlanishida ijtimoiy-demografik omillar ham etakchi ahamiyatga egadir. Jahondagi eng katta muammolardan biri hozirda demografik jarayonlar bo‘lib, rivojlangan mamlakatlarga rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining noqonuniy ko‘chib o‘tishi, qulay infratuzilmaga ega bo‘lgan hududlarda aholi sonining tez o‘sishi, shahar aholisi aglomeratsiyasining kengayib borishi, ayrim mintaqalarda tug‘ilishdan o‘limning ko‘pligi ham jiddiy ta’sir o‘tkazmoqda. Shu bilan bиргаликда uning ijobiy tomonlarini ham ko‘rsatib o‘tishimiz kerak:

- jahondagi aksariyat xalqlarning urf-odatlarining bir-biriga o‘xshashligi, yashash tarzining ma’lum bir tomonlari, sayru-sayohatlarga intilishlari;

- ilmiy-izlanish, tajriba ortirishga bo‘lgan qiziqishning va ixtisoslashgan maxsus guruuhlarining tashkil qilinishining ortib borishi;

- jamiyatdagi munosabatlarning o‘zgarishi bilan sayyoohlarning tarkibida xotin-qizlar va yoshlar sonining ortib borayotganligi;

- COVID-19 natijasida yuzaga kelgan global muammolarning natijasida aholi sog‘lig‘ini tiklash va sog‘lomlashtirish maqsadida sanatoriylar tarmog‘ining rivojlanib borishi;

- keng ommoning atrof muhitni saqlab qolishga bo‘lgan e’tiborining kuchayib borishi, tabiiatni asrash tushunchalari va unga bo‘lgan munosabatlarning o‘zgarib borishi ham xarakterlidir.



1.1.3-rasm. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmaning tuzilishi⁹.

Turizmnı rivojlantirishda keyingi yillarda rivojlangan davlatlar asosiy e'tiborni mintaqaviy infratuzilmaga qaratmoqda. Buning asosiy sababi turistik xarakatlarning ortib borishi infratuzilmaga yangi-yangi talablarni qo'yamoqda.

Hozirgi tez o'zgaruvchan sharoitda birgina touristlarning xavfsizligini ta'minlashni oladigan bo'lsak, ortiqcha va qo'shimcha mablag'larni talab etmoqda. Birinchi navbatda touristlarni jonatuvchi va qabul qiluvchi mamlakatlarda sayyoohlarning bo'sh vaqtalarida, ovqatlanish, transportlarda xavfsizlikni ta'minlash choraları ishlab chiqilgan bo'lmog'i zarur. Masalan, xalqaro maydonda bo'layotgan kelishilmovchiliklar, harbiy harakatlar, jinoyatchilik, diniy eksterimizm, terrorizm, sunami, zilzila va kutilmaganda yuzaga keladigan hodisalar touristlar oqimiga jiddiy ta'sir qilishi bilan birga infratuzilmaning rivojlanishiga katta zarba beradi. Har bir mamlakatning TIV (tashqi ishlar vazirligi) touristlar va o'zlarining xorijdagi fuqarolarining tashrif buyuradigan mamlakatidagi noxush voqeа va hodisalardan ehtiyyot bo'lishlari haqida muntazam ravishda xabardor qilishlari kerak.

Shu bilan birgalikda touristlar boradigan mamlakatlardagi joylashtirish vositalari, ovqatlanish shoxabchalarining gigienik holati, iste'mol suvi haqidagi

⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

ob'ektiv ma'lumotlarni, infeksion yuqumli kasalliklarning kelib chiqishi to'g'risidagi xatarlar zururiy ma'lumotlar avvaldan xabardor qilinishi kerak¹⁰.

Geografik omillar. Turistlar ko'proq tabiat bag'rida bo'lish, ekzotik joylarni ko'rish va ulardan bahramand bo'lishga harakat qiladi. Bunda tabiatning xilmashilligi, uning hususiyati muhim omil bo'lib hisoblanadi. Turistlarni ma'lum bir hudud o'zining relefi, landshafti, o'simlik va hayvonot olami, iqlimi, odamlarning yashash sharoitlari bilan jalg qiladi¹¹.

Turizm infratuzilmasi rivojlangan mamlakatlarning aksariyati qulay geografik joylashuvga (Turkiya, Ispaniya, Fransiya, Tayland, Xitoy) egadir.

Infratuzilmani rivojlantirishda etibor qaratiladigan jihatlar geografik joylashuv, mintaqqa va mamlakat hududining asosiy qulaylik tomonlari, ya'ni ko'llar, dengizlar va okeanlar qirg'oqlariga tutashligi, tog'lar, cho'llar, tekisliklar, xalqaro avtomagistrallar, temir yo'llar chorahalari, betakror tabiat manzaralari mavjudligi bilan ham bog'liq bo'ladi. Jumladan, Fransiya, Ispaniya, Italiya, Misr Arab Respublikasi, Turkiya, Singapur, Tayland, Malayziya, Indoneziya, Karib havzasidagi orollarda joylashgan davlatlar geografik joylanish xususiyatidan kelib turizm infratuzilmasini rivojlantirdi.

Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda mamlakatlarning tabiiy iqlim sharoiti muhim omil bo'lib hisoblanadi. Turizmdagi mavsumiylik o'rtasidagi nomutanosiblikni kamaytirishda tabiiy resurslar turistlar harakatini mavsumiy xarakterga aylantiruvchi vosita bo'lib hisoblanadi. Lekin, bir narsani hisobga olish kerak-ki, tabiatda bo'layotgan hodisalar turistlar harakatini cheklab qo'ymoqda. Bularga ob-havoning o'zgarishi, tabiiy ofatlar (zilzila, suv toshqinlari) turistlar oqimining keskin kamayishiga olib kelmaqda. Shunga qaramasdan Shimoliy Amerikadagi Buyuk ko'llar, O'rtayer dengizining Yevropa va Afrikani ajratib turishi, Karib dengizidagi Markaziy Amerika, Boltiq dengizi havzasidagi Yevropaning Shimoli, Yapon dengizi havzasidagi Sharqiy Osiyo, Xitoy

¹⁰ X.M. Mamatqulov va bosh. Xalqaro turizm. Darslik. –T.: Ozbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. -21 b.

¹¹ X.M. Mamatqulov va bosh. Xalqaro turizm. Darslik. –T.: Ozbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. -17 b.

dengizining sharqiy qirg‘oqlarida joylashgan tabiiy resurslarga boy mamlakatlarda xalqaro ahamiyatga molik turizm infratuzilmasiga ega¹².

Pandemiyadan keyingi davrda rekreatsiya- sog‘lomlashtirish yo‘nalishidagi sayohantlar asosan daryo va ko‘llarga qaratilmoqda. Daryo va ko‘llarga boy bo‘lgan mamlakatlarga turistlar tashrifi ortib bormoqda. Bu tabiiy inshoatlar o‘ziga xos bo‘lgan mikroiqlim sharotini hosil qiladi. Shu bilan birgalikda faol dam oluvchilar uchun sport turizmi, baliq ovlash, sog‘liqlarini tiklash uchun uchun xizmat qiladi. AQSh, Rossiya, Norvegiya, Germaniya, Polsha, Tayland, Shvetsariya, Kanada, Fillandiya kabi turizmi rivojlangan mamlakatlarda suv havzalari eng rivojlangan turizmning turlari bo‘lib hisoblanadi¹³. Tinch okeani havzasida joylashgan daryolarning suvi keyingi yillarda haddan tashqari ifloslanib borayotganligi jahon hamjamiyatini tashvishga solmoqda. Tinch okeanida judda katta miqdorda plastik chiqindilar to‘planib qolmoqda.

Iqtisodiy omillar. Juhon iqtisodiyoti rivojlanishi tendensiyalarida xozir juda katta o‘zgarishlar yuzaga kelmoqda. Yangidan-yangi halqaro iqtisodiy tashkilotlarga asos solinmoqda. Bularning ichida tezlikda rivojlanib, uzining qamrovini kengaytirib borayotgan BRIKS (Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy va Janubiy Afrika davlatlari nomining bosh harfidan olingan) davlatlararo assotsiatsiyani olishimiz mumkin. Bu ittifoq Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy va Janubiy Afrika, Birlashgan Arab Amirliklari, Eron, Saudiya Arabistoni, Misr va Efiopiya mamlakatlarini birlashtiradi. Tashkilotga 2006 yil iyun oyida Rossiyaning Sank-Peterburg shahrida bo‘lib o‘tgan iqtisodiy forumda Rossiya, Xitoy, Braziliya va Hindiston ishtirokida tashkil etilgan.

Budan ko‘rish mumkinki, tashkilot iqtisodiyoti tez rivojlanayotgan yirik mamlakatlarning birlashuvidan tashkil topgan. Ko‘rib o‘tilgan mamlakatlar jahon iqtisodiyotida yetakchilardan ekanligi, tabiiy resurslarga boyligi, o‘sish tendensiyasining yuqoriligi, iqtisodiyoti rivojlanganligi bilan alohida ahamiyatga ega. Xitoy ayniqsa bu davlatlar orasida yalpi ichki mahsulotining hajmi bo‘yicha

¹² X.M. Mamatqulov va bosh. Xalqaro turizm. Darslik. –T.: Ozbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. -18 b.

¹³ X.M. Mamatqulov va bosh. Xalqaro turizm. Darslik. –T.: Ozbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. -18 b.

jahonda etakchilardan biri hisoblanadi. Xitoy hozirda dunyoda birinchi eksportchi ("dunyo zavodi"), eng yirik valyuta zahiralariga, eng ko‘p aholiga va katta energiya resurslariga ega mamlakatdir. Hindiston YaIM hajmi bo‘yicha hozir AQSh va Xitoydan keyingi o‘rinda bo‘lib, aholisi soni bo‘yicha dunyoda yetakchi hisoblanadi. So‘ngi yillarda intektual resurslardan samarali foydalananayotgan davlatlar qatoriga kiradi. Rossiya jahon iqtisodiyotida mineral resurslarga eng boy mamlakatlardan biri bo‘lib, dunyodagi ikki yadroviy kuchlardan biri hisoblanadi. Bu tashkilotlarga a’zo davlatlar iqtisodiy hamkorlik bilan bиргаликда turizm sohasida ham faol harakatlarni amalga oshirmoqda.

Turizm rivojlanishiga keng sharoitlar yaratish borasida Yevropa mamlakatlarining o‘rnini alohida ta’kidlash lozim. Yevropada tashkil qilingan halqaro tashkilotlar (Yevropa Ittifoqi, "Yevro" zonasi, "Shengen" zonasi) turizm rivojlanishida muhim rol o‘ynamoqda. Masalan, 2019 yilda o‘zaro hisob kitoblarda, 2002 yil 1-yanvardan boshlab naqd pul ko‘rinishida 19ta davlatda "Yevro" muomalaga kiritilgan. Bu mintaqaga tashrif buyurgan turistlar uchun valyutaga bo‘lgan va 26ta davlatning yagona viza sistemasiga ("Shengen") o‘tishi turistlarning erkin harakatlanishini ta’minlamoqda.

Tadqiqotlar ko‘rsatishicha turizm infratuzilmasini shakllanishi va rivojlanishiga makroiqtisodiy omillar bilan birga mikroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning ta’siri ham ortib bormoqda. Iqtisodiy o‘sishning barqarorsizligi, mamlakatdagi ishsizlar soning o‘sishi, milliy valyutaning qadrsizlanishi kabi muammolar jamiyatni tashvishga soladi va keskin islohotlarni amalga oshirishni talab qiladi. Mamlakatda yuzaga keladigan bu kabi muammolar ishchi xodimlarning ta’tilini o‘z uyida o‘tkazishga olib keladi. Qachonki, mamlakatning iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari talab darajasida bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmining ortishi valyutalar miqdorining ko‘payishini ta’minlaydi. Natijada milliy daromadning o‘sishi, aholi ehtiyoji qobiliyatini qondirishga qaratilgan, ayniqsa shaxsiy xarajatlarning o‘sishi darajasi, ularning sayohatga bo‘lgan talabini uyg‘otadi¹⁴.

¹⁴ X.M. Mamatqulov va bosh. Xalqaro turizm. Darslik. –T.: Ozbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2009. -20 b.

Turizm rivojlanishida asosiy omillardan biri xalqaro savdo aloqalari ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonning tashqi savdo aloqalari rivojlanishida turizm ham asosiy o‘rin egallashi lozim. Chunki, tashqi savdo balansini muqobil variantda ushlab turishda xizmatlar eksportini oshirish talab etiladi. Davlat statistika agentligining ma’lumotlariga ko‘ra 2023 yilning dekabr oyigacha bo‘lgan davrda respublikamizning tashqi savdo aylanmasi (TSA) 57,3 mld. AQSh dollariga teng bo‘lgan. Bunda eksport hajmi 23,2 mld. AQSh dollarini, import hajmi 34,1 mld. AQSh dollarini tashkil etgan. Bu ko‘rsatkichlar 2022 yilning mos davri bilan taqqoslaganda eksport hajmi 30,6 foizga, import hajmi 23,3 foizga oshgan. Respublikamizning tashqi savdosida salbiy saldo 10,9 mld. AQSh dollariga teng bo‘lgan¹⁵. Bu kabi salbiy savdo saldosini xizmatlar eksportini oshirish bilan bartaraf etish mumkin. Xorijiy sayohlarga xizmat ko‘rsatishda odatda, turistlar qaysi mintaqaga tashrif buyursa o‘sha hududning hususiyatidan kelib chiqqan holda mahalliy hunarmandchlik mahsulotlarini, suvenirlar sotuvini yo‘lga qo‘yishning innovatsion usullaridan keng foydalanish lozim. AQSh, Buyuk Britaniya, Xitoy, Hindiston, Italiya, Koreya Respublikasi, Ispaniya, Germaniya, Turkiya, Fransiya, Birlashgan Arab Amirligi, Singapur kabi davlatlar sanoati rivojlanganligi uchun turistlarning talab va takliflarini hisobga olgan holda mahsulotlar eksportini rivojlantirmoqda. Bu davlatlar tashrif buyurayotgan turistlarga sifatli uzoq muddat foydalilanish imkoniyatini taqdim etadigan tovarlar (elektronika, telefon, zargarlik, kiyim-kechak, ro‘zg‘or buyumlari) sotishga kirishgan.

Siyosiy omillar. Siyosiy omillarning ayniqsa oxirgi o‘n yillikda turizm rivojlanishiga salbiy ta’siri o‘sib bormoqda. Bunga misol qilib Rossiya Federatsiyasi bilan Ukraina o‘rtasidagi yuzaga kelgan ziddiyat nafaqat turizm sohasiga, jahon iqtisodiyotiga sezilarli ta’sir o‘tkazmoqda. Bu ziddiyoyat jahondagi oziq-ovqat havsizligiga va energetika tizimiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bilan birgalikda Yaqin Sharqdagi siyosiy jarayonlar turistlarning erkin harakatlanishiga to‘siq bo‘lmoqda. Yaqin Sharq mintaqasi

¹⁵ www.stat.uz

xalqaro turistik yo‘nalishlarning chorrahasi hisoblanadi. Dunyodagi muhim turistik yo‘nalishlar aynan shu hududdan o‘tadi. Yaqin Sharq insoniyat sivilizatsiyasida muhim ahamiyat kasb etadigan mintaqa hisoblanadi. Yaqin Sharqdagi ziddiyatlar ziyyarat turizmiga ayniqsa sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Mintaqa barcha dinlarning vatani hisoblanadi.

Bundan tashqari mamlaktlarning ichkida yuz berayotgan holatlar ham turizmga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Masalan, qo‘shni Afg‘onistonni oladigan bo‘lsak, bir necha o‘n yillardan beri davom etib kelayotgan ichki siyosiy vaziyat tufayli turizm infratuzilmasi deyarli rivojlanmagan. Resurslarga boy bo‘lishiga qaramasdan hozir turizmni rivojlantirishga imkoniyatlar yetarli emas. Tabiiyki, turizmi rivojlanishiga ham bunday holatlar salbiy ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi.

Diplomatik munosabatlar orqali mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro tinchlikka, hamkorlik kelishuvlari, xalqaro transport koridorlaridan bирgalikda foydalanish, yaxshi qo‘shnichilik, iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan shartnomalar, kommunikatsiyalar va turistlarning harakatlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

1.2. Turizmda innovatsiyalarni qo‘llash jarayonlari va bosqichlari

Islab chiqarishning rivojlanishi global bozorda mahsulotlar va xizmatlar mijozlarning talabiga qarab taklif etilayotganiga qaramay, bu jarayon turizmda boshlanish nuqta sifatida doim turmahsulotlarni va xizmatlarni ko‘rsatish imkoniyatlaridan kelib chiqib yondoshiladi. Lekin, mahsulotlar va xizmatlarni takomillashtirishda innovatsiyalardan keng foydalanish maqsad qilinadi. Innovatsiya degan tushuncha bo‘yicha fikr yuritganimizda birinchi holatda xayolimizga yangi ishlanmalar, g‘oyalar, texnologiyalar, ishlab chiqarishga joriy qilingan kashfiyotlar, infratuzilma, barqaror rivojlanish, mehnat samaradorligini oshirish, ilm-fan erishgan yutuqlari, ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish, yangicha shakldagi dizaynlari, servis xizmati ko‘rsatishni yangilash, dunyoga yangicha nazar solish kabilar keladi. Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo‘lsak, turizm asosan xizmat ko‘rsatish jarayonlaridan iboratligini nazarda tutsak, bu soha ma’muriy va moliyaviy ta’sirga ega bo‘lishiga qaramasdan, texnologik

o‘zgarishlarni amalga oshirish juda qiyin bo‘ladi. Turizmga zarur bo‘lgan texnologiyalarni va yetakchi mutaxassislarini jalg qilish doim ravishda qiyin amalga oshirilgan. Turizmning qaysi tarmoqlarida innovatsiyalarni amalga oshirish mumkin, amalga oshirishda asosan nimalarga e’tibor qaratilishi kerak degan tushunchalar yuzaga keladi. Turizmda quyidagi tamoyillar asosida innovatsiyalarni amalga oshirish mumkin:

-qamrab olish jarayoni. Innovatsiya turizm infratuzolmasining barcha tarmoqlari, xizmatlarni amalga oshiruvchi korxonalar, tuman, hudud, shahar, mintaqa, mamlakat, yangi turistik mahsuloti ishlab chiqish yoki hozirda mavjudlarini doimiy ravishda yangilab turish, ma’lum bir turistik ob’ekt miqyosida joriy etilishi mumkin;

-joriy etish. Turistlarga ma’lumotlar berish platformalarida, xodimlarni boshqarishda, yangi ish o‘rinlarini ochishda, mehmonxonalarini bron qilishda, xususiy mehmon uylarni ochishda mikrokreditlashni amalga oshirish, servis sohasini texnik jihatdan qo‘llab-quvatlash, aeroportda onlayn-ro‘yxatga olishlar kiradi.

-tadbiq etish tezligi. Har bir mamlakat maqsaddan kelib chiqqan holda strategik innovatsiyalar bosqichma-bosqich, havsizlik nuqtai-nazaridan asta sekinlik bilan tatbiq etiladi (transport, kommunikatsiya), reaktiv innovatsiyalarni joriy etish qisqa muddatda tezkor amalga oshirish talab etiladi. Bunda asosan siyosiy voqeyleklar va bozordagi raqobatchilar (viza siyosati) xarakati hisobga olinadi.

Innovatsiyalarni amaliyatga joriy qilishda turizm infratuzilmasining holatidan kelib chiqqan holda birinchi navbatda tarixiy-madaniy meros, tabiiy geografik omillar va ob-havo sharoitlaridan kelib chiqib yondoshishni talab etadi. Ularni to‘g‘ri yo‘naltirish orqali yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish, sohani rivojlanishining salohiyatini oshiradi.

Turizm infratuzilmasini takomillashtirishda yirik loyihalarni va murakkab texnologiyalarni joriy qilishda maxsus innovatsiyalarni amalga oshirish talab etiladigan jarayonlar ham kuzatilgan bo‘lib, uni BAAning Dubay shahridagi

“Emirates Mall”da barpo etilgan tog‘ chang‘i trassasini misol tariqasida olishimiz mumkin. Bu yirik loyiha izchillik bilan amalga oshirilgan bo‘lib, turistlarni va mahalliy aholini kayfiyatini ko‘tarish uchun amalga oshirilgandir. Bu kabi ba’zi bir yirik infratuzilmaviy loyihalarni hisobga olmaganda, turizm asosan kichik biznesga tayanadi.

Masalan, O‘zbekiston joylashuv o‘rniga ko‘ra ajoyib iqlim, go‘zal tabiatga, boy tarixga ega mamlakat hisoblanadi. Shu bilan birga “Buyuk Ipak Yo‘li”ning chorahasida joylashgandir. Bu kabi imkoniyatlar turizmda innovatsion texnologiyalarni joriy etmasa ham, raqobatbardoshlikni saqlab qoladi degan tushunchani paydo qiladi. Misol qilib oladigan bo‘lsak Misr Arab Respublikasidagi ehromlar shu kungacha o‘zgarishsiz holida butun dunyodan millionlab sayyoohlarni o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Misr qirg‘oqlarini Qizil va O‘rtayer dengizi suvlari yuvib turadi bu imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalangan holda tashrif buyurayotgan turistlar ta’tilni ikki qismga bo‘ladi. Bular tarixiy-sarguzashtli sayohat va plyajdagি hordiq chiqarishdir. Bu kabi sayohatlarni tashkillashtirish Gretsya, Turkiya, Hindiston, Tailand, Ispaniya, Vietnam, Isroilda ham keng joriy qilinishi katta samara bermoqda.

Dengizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyati bo‘lmagan, ya’ni republikamizga o‘xhash bo‘lgan mamlakatlarda, turistlarni kengroq jalb qilish va xizmathlarni tashkil qilish uchun innovatsiyalarni keng qo‘llash orqali nisbatan imkoniyatlari yuqori bo‘lgan davlatlar bilan raqobatga kirishishda turizm infratuzilmasini takomillashtirishni talab qiladi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda innovatsiyalarni qo‘llash va uni amalga oshurish bosqichlari ketma-ketligini bilishimiz kerak bo‘ladi. Bularni amalga oshurish uchun quyidagilarni samarali egallah lozim bo‘ladi:

- innovatsiyalar butun tarmoqni ko‘lami jihatidan qamrab olishi, alohida tashilotni, korxonani, tuman, shahar, mamlakat, yangi turistik mahsulotlarni ishlab chiqish yoki hozirda mavjudlarini yanada takomillashtirish, turistik ob’ektlar ko‘lamida joriy etishni;

- turistlarning ob'ektlarni qidiruvida yordam beruvchi maxsus platformalarda, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni boshqarish va ularni ish bilan band qikishda birinchi navbatda innovatsiyalarni keng qo'llash kerak. Shu singari, davlat-xususiy sheriklik shakli va mikrokreditlar, subsidiyalar bilan qo'llab-quvvatlanuvchi mexanizmlar orqali mehmon uylarni ochish, mehmonxonalar, ovqatlantirish shoxabchalar, transport uyushmalari, texnik xizmatlar ko'rsatishni (masalan, aeroportda onlayn-ro'yxatga olish);
- innovatsiyalarni tezlikda joriy qilish. Bunda strategik innovatsiyalar har bir sohada asta-sekin tatbiq (transport kommunikatsiyalari) etiladi. Buning aksi sifatida reaktiv innovatsiyalar joriy qilish (turistlarni ko'proq jalb qilishni istagan mamlakat uchun vizaning bekor qilinishi) jadal kechadi.

Shu bilan birgalikda innovatsiyalarni amalga oshirish jarayonlari bosqichma-bosqich bo'lib, juda ham ehtiyojkorlikni talab qiladi. Chunki, innovatsiyalarga sarflangan mablag'lar biron bosqichda noto'g'ri amalga oshirilsa, barcha qilingan xarakatlar bekor ketishi mumkin.

Birinchi bosqichda g'oyalarni bir tizimga keltirib olish talab qilinadi. Bunda yuzaga kelgan yangi g'oyalarni amalda qo'llash uchun ichki imkoniyatlar aniqlanadi. Yangi g'oyalarning bir qancha muqobillari ham yuzaga chiqishi mumkin bo'lib, ularning ichida kelajagi bor deb qaralgani tanlab olinadi. Turistik kompaniyaning rivojlanish strategiyasiga va bozordagi imijiga mos kelishida tanlab olingan g'oyalar aniqlanadi va yangi xizmatni kelajakda amalga oshirish belgilab olinadi.

Ikkinchi bosqichda aniqlangan g'oyani amalga oshirish uchun bozordagi o'zgarishlar bo'yicha axborotlar yig'ilma boshlanadi. Yig'ilgan axborotlar tahlil qilinib, bozorga taklif etilishi kutilayotgan xizmatni amalga oshirish uchun turistik kompaniyaning salohiyati, imkoniyatlari va tavakkalchilik darajasi va uning me'yorlari belgilanadi.

Uchinchi bosqichda yangi xizmatlarning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinib, uning marketing xarajatlari va dasturlari ishlab chiqiladi. Shu bilan birgalikda g'oya aniq loyiha ko'rinishiga o'tganda turistik bozorning mavqeyi,

talab va taklif, is’temol hususiyatlari juda katta ahamiyatga ega. Yangi xizmatlarni joriy qilish va ularni o’zlashtirishdagi xarajatlarni baholash, mavjud resurslarga ishonch hosil qilish, moliyaviy manbalarni aniqlash, xodimlar salohiyatini baholashni amalga oshirish lozim. Shundan so‘ng yangi xizmatlarni ishlab chiqish muddatlari, uning rentabelligini baholash va uni bozorga taqdim etish amalga oshiriladi.

To‘rtinchi bosqichda oldingi uchta bosqich amalga oshiriladi. Bundan ko‘rinib turibdiki turistik kompaniyalarda innovatsiyalarni amalga oshirish naqadar murakkab jarayon ekanligi ayon bo‘ladi. To‘rtinchi bosqichda asosan yuqoridagilar bilan birga quyidagilar amaga oshiriladi:

- yangi xizmatlarni ishlab chiqishda kompaniyaning bo‘limlari o‘rtasida amalga oshiriladgan vazifalarni taqsimlash orqali aniq dasturi ishlab chiqiladi;
- xavsizlik, ekologik va boshqa ko‘rsatkichlar bo‘yicha ishlab chiqilgan xizmat turi bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazish;
- ishlab chiqilgan xizmat turining nomlanishi, mahsulot belgisini aniqlash va yangicha yondoshuvlar amalga oshiriladi.


Beshinchi bosqichda bozorda bevosita test o‘tkaziladi. Bunda kamida uch oy maboynida narx va narxlarga chegirmalar taqdim etish, kreditlar berish bo‘yicha sinovlar olib boriladi. Shu bilan birgalikda reklama turlari va amalga oshirish usullarini tanlash, kutilmagan vaziyatlarda chora-tadbirlarni amalga oshirish tekshiriladi.

Oltinchi bosqichda yaratilgan xizmat turini bozorga kiritish bo‘yicha qaror qabul qilinadi va yangi xizmat turini ko‘rsatish boshlanadi. Bunda doimiy ravishda ko‘rastilgan xizmatlar xajmi, rentabelligi, talab va ehtiyojlarni qondirish darjasи, xizmat ko‘rsatish usullari nazorat qilib boriladi. Shu bilan birgalikda:

- turistik kompaniyaning xalqaro darajadagi obro‘sni, mijozlar bilan doimiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish orqali bozorni egallah;
- tajribali soha xodimlar bilan mehnat shartnomalarini tuzish, yaratilgan mavjud imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanish;

- moliyaviy manbalarni topish orqali yangi xizmat turlarini keng ko‘lamda ishlab chiqish uchun xorijiv va mahalliy tadbirkorlaning sarmoyalarini jalb qilish;
- xalqaro standartlarga yangi ishlab chiqilgan xizmat turlarini moslashtirish, patentlashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Yuqoridagi ko‘rib o‘tilgan omillarning barchasi muvoffaqiyatli amalga oshirilsa har qanday turistik kompaniya faoliyatida innovatsiyalarni joriy qilsa bozorni egallashi va maksimal darajada foyda olishga erishadi. Natijada turistik kompaniya bozorda monopol mavqeyga ega bo‘lib olishi ham mumkin.



1.2.1-rasm. Innovatsiyalarni amalga oshirish jarayoni bosqichlari¹⁶.

Tadqiqotlarimiz ko‘rsatishicha innovatsiyalarni qanday va qaerda qo‘llashni bilish ham kerakligini o‘rganishni taqoza etmoqda. Xar doim xar joyda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishda yangiliklar mavjud bo‘lishi lozim. Turistik xizmatlarga talab taklifni yuzaga chiqaradi. Turistlar yangi xizmatlarni yaratishda qatnashib qolmasdan bevosita is’temolchi ham bo‘ladi. Turizmda innovatsiyalarni qo‘llashda marketologlar turistlar segmentini va nimalarga qiziqishlarini doimiy ravishda o‘rganib borishi bilan birga ular nimalarni istashlarini aniqlaydi. Aynan shu kabi ma’lumotlar turistik bozorda qaysi

¹⁶ Muallif tomonidan tavsiya etilayotgan turizmda innovatsiyalarni amalga oshirish bosqichlari.

xizmatlarga talab yuqori va talabni qondirishda qanday innovatsion yechim topishga xizmat qiladi. Masalan, Shimoliy Amerika, Janubiy-Sharqiy Osiyo, G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida ekoturizm rivojlangan ularda turistlarga xizmatlar taklif etishda qishloqlardagi mehmon uylarda, tabiat qo‘ynida bo‘lgan vaqtlarida maksimal sharoitlar yaratish uchun innovatsiyalardan keng foydalanimoqda. Shu singari, mehmon uylar egalari turistlarni qabul qilish uchun barcha sharoitlarni yaratmoqda.

Turizmda innovatsiyalar keng qo‘llanilayotgan yana bir yo‘nalish muzeylardir. Muzeylarda virtual xizmatlar keng joriy qilinmoqda. Turistlar mashhur muzeylarga sayohat qilishda internet imkoniyatlari orqali muzey bo‘ylab aylanishva noyob eksponatlarni ko‘rishi mumkin bo‘ladi. Bunda turistlar yilarida turgan holda muzeylar bo‘ylab sayr qilishi, eksponatlarni tomosha qilishi, zaruriy ma’lumotlar olishi, ma’lum holarda ilmiy tadqiqotlar olib borishi mumkin. Bu sohaga innovatsiyalarning keng joriy qilinishiga sabab, hozirda turistlar orasida muzeylarga tashrif buyurish tez ommolashmoqda. Masalan, dunyoga mashhur Fransiyadagi 1793 yil 8 noyabrda ilk marotaba Luvr milliy san’at muzeyi ommaga o‘z eshiklarini ochgan bo‘lsa, yillar davomida faoliyati natijasida hozirda yiliga 10 mln.dan ortiq turistlarni o‘zida qabul qilmoqda. “The Art Newspaper” nashri har yili dunyoda eng ko‘p tashrif buyurilgan muzeylar ro‘yxatini e’lon qilib boradi. Hozirda dunyoda 60-80 tagacha ana shunday millioner muzeylar faoliyat olib bormoqda. “The Art Newspaper” jurnali tomonidan tuzilgan ro‘yhatga ko‘ra Xitoy Milliy muzeyiga (Pekin) 7390000ta, Vatikan muzeyiga (Vatikan) 6882931ta, Metropoliten San’at muzeyiga (Nyu York) 6479548ta, Britaniya muzeyi (London) 6239983ta, Tate Modern muzeyi (London) 6098340ta, Milliy Galereya (London) 6011007ta, Ermitaj davlat muzeyi (Sankt-Peterburg) 4956529ta, Museo Reina Sofia muzeyi (Madrid) 4425699ta, Milliy san’at galereyasi (Washington) 4074403ta tashrif buyuruvchilarga xizmat ko‘rsatgan. Bu muzeylar o‘rtasidagi raqobatdan engib chiqishda innovatsion texnologiyalarga talab ortib bormoqda.

Turizm infratuzilmasining tarixiy rivojlanishiga nazar tashlaydigan bo‘lsak innovatsiyalarni joriy qilina boshlangandan keyin (o‘tgan asrning 70 yillaridan

keyin) misli ko‘rilmagan yutuqlarga erishilmoqda. Texnologiyalarning o‘zgarishlariga qaramasdan turizm infratuzilmasi innovatsiyaga asoslangan holda rivojlanish yo‘nalishidan bormoqda. Avvalgi texnologik o‘zgarishlarga qaraganda turizmda hozirda innovations texnologiyalarni qo‘llashda boshqa tarmoqlardan oldinga o‘tib ketmoqsa. Innovatsiyalarni turizmga infratuzilmasiga keng joriy qilish xizmatlarning samaradorligini oshirishi bilan birgalikda texnologik xarajatlarni ham kamaytirishga olib kelmoqda (1.2.1-jadval).

2010 yildan keyin turizmda ilmiy va texnologik innovatsiyalarga talab ko‘lami keskin ortib borishi kuzatilmoqda. Bu o‘z navbatida turistlarning o‘sib borayotgan talablarini va xizmat ko‘rsatishdagi cheklovlarini olib tashlashga imkoniyatlar bermoqda.

Birinchidan, ilmiy-texnologik innovatsiyalar asosiy omil sifatida olinganda odamlarning yashash sharoitini, ishlab chiqarishning xususiyatini o‘zgartirdi. Shuningdek, innovatsiyalar ishlab chiqarishni qayta shakllantirdi va uni xarakatga keltiruvchi asosiy kuchga aylandi. Ilm-fan va texnologiyalarga innovations yondoshuv natijasida aholining ijtimoiy muhofazasi yaxshilandi va ularning mehnat unumdarligini sezilarli darajada oshdi, bu esa aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadlarni sezilarli darajada o‘sishiga olib kelishi bilan birgalikda turizmning yangicha ko‘rinishlarini vujudga keltirdi.

Ikkinchidan, ko‘proq bo‘sh vaqtining bo‘lishi ilmiy-texnologik yangilikni joriy qilishga olib keladi. Rekreatsion turizmning muhim shartlaridan biri ko‘proq bo‘sh vaqt bo‘lishidir. Boshqaruv va ishlab chiqarishga avtomatlashtirilgan texnologiyalarning kirib kelishi, ilm-fan va texnika taraqqiyoti yuzaga chiqishi natijasida mehnat unumdarligini sezilarli darajada oshirdi. Natijada, odamlarning o‘rtacha ish vaqtini sezilarli darajada kamayishi natijasida ularning bo‘sh vaqtlarida dam olishi va ta’tillarida sayohatlarga chiqishga bo‘lgan talabi ortib bordi.

1.2.1-jadval.

Turizm infratuzilmasining takomillashib borishiga texnologiyalarning ta'siri¹⁷.

Yillar	Bosqichlar	Texnologik o'zgarishlar	Turizm turlari	Amalga oshirish jarayonlari
1760	Birinchi texnologik inqilob	Insonlarning jismoniy kuchi va hayvonlar kuchidan foydalanish, oddiy mexanik mashinalar	Dastlabki sayohatlar	-qisqa masofa; -aristokratlar sayohati. Bu davrlarda oddiy aholi va dehqonlarning sayohatga chiqishlari uchun imkoniyatlari yo'q edi. Sayohatga asosan imperatorlar, aristokratlar va ularning oila a'zolari chiqqan. Shuning uchun ushbu bosqichda dam olish, o'yin-kulgi turizm faoliyatida ahamiyatga ega emas edi.
		Bug' dvigatellari, bug' poezdlari, bug' paroxodlari		-qisqa va o'rta masofa; -tijorat turizmi; -diniy va ziyorat turizmi. Insonlarning hayvonlar kuchi yordamida amalga oshiriladigan ishlari oddiy mexanik mashinalar orqali bajarilishiga o'ta boshladi, o'rtacha daromadli toifadagi insonlarning ham sayohatga bo'lgan talabining ortib borishi natijasida turizm xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar faoliyati yo'lga qo'yila boshlandi.
1850	Ikkinci texnologik inqilob	Elektr energiyasi, ichki yonuv dvigateli, telefon, telegraf, lokomotiv, samolyot	Zamonaviy turizm	-o'rta va uzoq masofa; -o'yin-kulgi dam olish turizmi. Turistlarning transport xizmatlaridan va axborot texnologiyalaridan foydalanishida inqilobi yuzaga keldi, o'rtacha daromadga ega bo'lgan qatlama vakillari soni tezlikda ortib bordi, turizmni tashkil etishga yangicha yondashila boshlandi va ixtisoslashtirilgan maxsus turistik sayohatlar ommolasha boshladi.
1950	Uchinchi texnologik inqilob	Atom energiyasi, kompyuter, internet, yirik samolyotlar, tezyurar poezdlari.	Ommoviy turizm	-uzoq masofa; -sayyoqlik turizmi; -dam olish. Turizm infratuzilmasini shakllantirishda davlatning roli ortib bordi, turistlarning talabi tezlikda o'sib turmahsulotlarni ishlab chiqish va uni yetkazib berish takomillashib bordi, axborot kommunikatsiyalarning rivojlanishi oraqli turizmda marketing va ko'rsatilayotgan xizmatlarning samaradorli oshdi.
2010	To'rtinchi texnologik inqilob	5G, AI, blockchain, cloud computing, BIG DATA, "Turizm-4.0"	Innovatsion (smart) turizm	-uzoq masofa; -moslashtirilgan turizm; -aqlli (smart) turizm. Turistik mahsulotlar diversifikatsiya qilindi, sayohatni amalga oshirish platformalari ishlab chiqildi, turizmni rivojlantirishning mahsus modellari o'zlashtirildi va turistik mahsulotlar talablarni qondirish uchun moslashtirildi.

¹⁷ Muallif tomonidan turizmnning rivojlanishi bosqichlar bo'yicha tavsiflangan.

Uchinchidan, ilmiy va texnologik innovatsiyalar turizm faoliyatini ham mustahkamlamoqda. So‘nggi 20 yillikda insonlarning ta’lim darajasi, savodxonligi va hayot faoliyati yaxshilanib borayotganligi sababli, ba’zi turistlarda ilmiy texnologik innovatsiyalarni o‘zlashtirish ham sayyohatlardan zavqlanish bilan birqalikda sayyohat davomida ortib bormoqda.

Zamonaviy turizmni amalga oshirishda ilmiy-texnologik innovatsiyalarning joriy qilinishi yuqori talablarni keltirib chiqardi. Bu kabi omillar ilmiy yo‘nalishda tashrif buyurgan turistlarni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy tarmoqlarni rivojlantirish, axborotlarni qayta ishlash, shuningdek, an’anaviy turizmdan farqli o‘laroq yangi texnologiyalarni qo‘llanilish orqali turizmnning yangi turlarini izlashga majbur qiladi.

Turistik xizmatlarning sifatini oshirishda ilmiy va texnologik innovatsiyalarni qo‘llash quyidagilarda ko‘rishimiz mumkin:

Ilmiy va texnologik innovatsiyalar, birinchi navbatda, turmahsulotlarning turlarini kengaytiradi va ularning bozordagi hayotiylik siklini uzaytiradi. Turistik mahsulotlarni turistlarga qisqa mudatlarda yetkazib berishni yaxshilash va doimiy ravishda ko‘rsatilayotgan xizmatlarni yangilashda turizm sanoati innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanmoqda. Kiritilayotgan investitsiyalar innovatsion texnologiyalarni joriy qilishga ham turistik mahsulotlarning bozordagi hayotiylik siklini uzaytirishga yordam beradi. Bunga misol qilib “Disneyland”ni oladigan bo‘lsak, ilm-fan yutuqlarini o‘zlashtirgan holda yangi texnologiyalarni qo‘llashga investitsiya kiritishi natijasida barpo qilgan ko‘ngil ochish markazlari butun dunyodan turistlarni o‘ziga jalb qilib kelmoqda.

Turizm infratuzilmasi rivojlanishiga lmiy va texnologik innovatsiyalarning ta’sirini ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak, birinchidan, transport infratuzilmasida ilmiy va texnologik innovatsiyalar katta ahamiyatga egadir. Yirik avtomagistrallar, maxalliy avtomobil yo‘llari, yuqori tezlikda harakatlanuvchi poezdlar, fuqarolik aviatsiyasining jadal rivojlanishi turistlarning harakatlanishini bir necha bor tezlashtirishi bilan birga xarakatlanish xavsizligini oshirdi. Shu bilan birqalikda, yangi texnologiyalarning qo‘llanishi turistlarga transport xizmatlarining

takomillashib borishi va ko'rsatishni sezilarli darajada yaxshilanishiga olib keldi. Xususiy avtomobilarning soni ortib borishi, avtomabillarni ijaraga berish imkoniyatlarining yaratilishi turistlar uchun yana bir qulaylikdir. Masalan, Alipay va UnionPay to'lov tizimi tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlarga to'xtaladigan bo'lsak, shaxsiy avtomobilni avtoturargohga qo'yganligi uchun to'lovnin elektron amalga oshirish orqali turistlar vaqtini tejash bilan birqalikda navbatlar va tirbandliklarni bartaraf etishga katta yordam beradi. Shu bilan birqalikda turistik avtobuslarning to'xtash joyini qidirish funksiyasi va turli xil xaritalar va navigatsiya dasturlaridan foydalanish kabi qulayliklarni taqdim etadi. Bundan tashqari, innovatsion texnologiyani turizmga tadbiq etilishi bilan turistlarning sayohat davomida elektorn sayohat kodi, elektoron chipta, elektron ro'yhatdan o'tish, yuzni elektron tanib olish orqali ruhsat berish kabi bir qator qulayliklarni taqdim etmoqda.

Ikkinchidan, innovatsiyalar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasi rivojlanishiga ham ta'sir o'tkazdi. Zamonaviy kommunikatsiya texnologiyalari takomillashuvi natijasida turistlar butun sayohat davomida sifatli aloqa bilan ta'minlanishiga erishildi. IoT dasturlari orqali turistlar hohlagan vaqtida uyali telefonlar, shaxsiy kompyuterlar va boshqa platforma qurilmalaridan foydalangan holda turistik ob'ektlar manzili, marshrutlar sxemasi haqidagi barcha turdag'i ma'lumotlari olish imkoniyatiga ega bo'ldi. Masalan, "Virgin" mehmonxonasi innovatsion axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faol qo'llagani uchun mehmonxonaning buyurtmalarini 266 foizgacha oshirishga erishgan.

Uchinchidan, turizm infratuzilmasi boshqaruvini innovatsion, ilmiy-texnologik yangiliklar yaxshilamoqda. Bunda, birinchidan, innovatsiyalar, ilmiy-texnologik ishlanmalar turistik resurslarni saqlashva muhofaza qilishda katta ahamiyatga ega. Istiqbolli turistik resurslarni (madaniy-tarixiy, rekreatsion, ekologik) aniqlash, tasniflash va sotib olish, mahsulotlar iste'molini boshqarishni raqamlashtirish jadal olib borilmoqda. Yangi texnologiyalarga asoslangan holda turizm haqidagi turli xil ma'lumotlarni saqlash, resurslarni saralash, boshqarish va

hisobotlarni samarali tahlil qilishga yordam beradi. Misol uchun, Xitoy davlati turizmi oxirgi yillarda tez rivojlanayotgan mamlakatlardan biri bo‘lib, uning “Dunhuang Academy” nomli akademiyasi virtual sayohat, multimedia displayi, raqamli video, uch o‘lchovli texnologiyalar orqali har bir tarixiy ob’ektlarning fotografik tasvirni olish va qayta ishlash, muzeylardagi eksponatlarning noyob raqamli fayllarini yaratish orqali turistlarning doimiy foydalanish imkoniyatlarini yaratdi.

Ikkinchidan, ilmiy va texnologik innovatsiyalar turizmda favqulodda yoki kutilmagan vaziyatlar yuzaga kelganda uni boshqarishga yordam beradi. Innovatsion texnologiyalarni qo‘llash turistik marshrutlarda xavfsizlik va favqulodda vaziyatlarda boshqarishni osonlashtiradi va tezlikda bartaraf etishni ta’minlaydi.

1.3. Turizmda qo‘llanilayotgan innovatsiyalar va ularning turlari

Bugungi kunda barcha sohalar kabi turizmda innovatsiyalar keng joriy qilinmoqda. Ularning qo‘llanilishi jarayoniga qarab bir necha turlarga bo‘linadi. Turizmda innovatsiyalarni qo‘llash tizimli jarayon bo‘lib, sifatli xizmatlar ko‘rsatish butun tarmoqda ijobjiy o‘zgarishlarga olib keladi. Innovatsiyalarni, yangiliklarni joriy qilishdan olinadigan samara mamlakatimizga turistlar oqimining ortishi va aholini ijtimoiy ahvolini yaxshilash bilan birga daromadning o‘sishiga olib keladi.

Innovatsiyalar tasnifi va rivojlantirish yo‘nalishlarini rivojlangan mamlakatlarning tajribasi misolida ko‘rib chiqamiz. Hozirgi vaqtida jahonning rivojlangan mamlaktlarida fan va texnologiyalarda innovatsiyalar jadallik bilan tadbiq etilmoqda. Globallashuv sharoitida, ayniqsa bunday jarayonlar yanada jadallahishi tabiiy. Davlat tomonidan fan va texnologiyalarni rivojlantirish, moliyalashtirish tizimidan texnologik va ilmiy innovatsiyalarning barcha turlarini davlat tomonidan rag‘batlantirish tizimiga o‘tishi, innovatsion tartibning oldingilaridan farqi kuzatilmoqda. Hozirgi kunda, hususan Yevropaning rivojlangan mamlakatlari Germaniyam Fransiya va AQShda fan-texnikani

rivojlantirish innovatsion siyosatga o‘tilishi kuzatilmoqda. Uning asosiy vazifasi eng avvalo kichik va o‘rta korxonalar uchun ilmiy va texnologik innovatsiyalar, shuningdek, o‘rta va qisqa muddatga mo‘jallangan dasturlarni amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratadi. AQSh fan va innovatsion texnologiyalarni moliyalashtirishda jahonda etakchi hisoblanadi. Buning natijasida innovatsiyalarni amaliyotda qo‘llash tez amalga oshiriladi va raqobatchilarni ortda qoldirishga sabab bo‘ladi.

Ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda globallashuv sharoitida ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtirishda faqat davlat va davlat korxonalari emas, xususiy korxonalar ham o‘z hissalarini qo‘sib boradi. AQShda federal hukumat innovatsiyalarni amalga oshirish xarajatlarining 50 foizgacha bo‘lgan qismini moliyalashtiradi. Bu Fransiyada 60 foizgacha, Buyuk Britaniyada, Germaniyada va Shvetsiyada 40 foizgacha, Yaponiyada 28 foizgacha amalga oshiriladi.

Globallashuv sharoitida ilmiy tadqiqot va texnologik ishlar davlatlar tomonidan turlicha shakllarda qo‘llab-quvvatlanadi:

-buyudjet mablag‘larinidan salmoqli qismini ilmiy tadqiqot ishlariga ajratishi (davlat tomanidan subsidiyalar ajratish, iki tomonlama shartnomalar tuzish);

-davlat o‘z zimmasiga ko‘plab tavakalchiliklarga ega bo‘lgan va yirik xarajatlar talab qilinadigan fan va texnologiyalarni moliyalashtirishni olishi;

-maqsadlarga qarab (ilg‘or texnologiyalarni sotib olish, innovatsiyalarni qo‘llashni rag‘batlantirish uchun bojxona va soliq imtiyozlari) ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirishni takomillashtirib boradi.

Davlat doimiy ravishda kichik biznes uchun shart-sharoitlar yaratishga ko‘maklashadi, innovatsion texnologiyalarni qo‘llashni moliyalashtiradi. Xalqaro bozordagi raqobatning kuchayib borishi rivojlangan davlatlarda innovatsiyalarni qo‘llash uchun grantlar, subsidiyalar berilmoqda.

AQShda ilmiy tadqiqotchilarga ajratilgan subsidiyalarни olimlar mustaqil ravishda o‘zları boshqarish imkoniyati beriladi. Rivojlangan davlatlarda hususiy biznes innovatsion siyosatning asosiy ob’ekti hisoblanadi. Bunda ilmiy-texnika

majmuasini yaxlit bir tizimga keltirish, ularning yutuqlaridan xo‘jalikda keng foydalanish va o‘zaro ichki aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Innovatsiyalarni amaliyotda qo‘llash mutaxassislar va yetakchi ekspertlarning ta’kidlashicha eng samarali usullaridan biri universitetlar, ilmiy tadqiqot markazlari va sanoat korxonalari hisoblanadi. Bunda ilmiy tadqiqot markazlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash orqali keng ko‘lamda ilmiy-texnik muammolarning yechimi topiladi.

Dunyoda innovatsion texnologiyalarni keng qo‘llaydigan davlatlar qatoriga Yaponiya ham kiradi. Innovatsion siyosatni amalga oshirishning Yaponiyada o‘zgacha mexanizmi joriy qilingan. Unda ilmiy-texnik yangiliklarni yaratishda maxsus guruhlar (guruhlarni o‘qitish, malakasini oshirish) tashkil qilinib, ular strategik tadqiqotlar o‘tkazishga jalb qilinadi. Buning o‘ziga xos bo‘lgan tomoni shundaki, unda kompaniyalarni loyihalarga (loyihalar ko‘pincha davlat tomonidan moliyalashtiriladi) jalb qilish mexanizmlari yaxshi ishlaydi.

Fransiyada fan-texnika va texnologiyalar yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish asosan ilmiy tadqiqotlar markazlari (CNRS¹⁸) tomonidan amalga oshiriladi. Bu markazlar ijtimoiy va iqtisodiy tadqiqotlarni olib borishni moliyalash amalga oshiradigan milliy agentlik bo‘lib, asosan fundamental tadqiqotlarni boshqaradi. Bunga misol qilib, atom va molekulyar fizika, materialshunoslik (qattiq jismlar fizikasi) bo‘yicha amalga oshirilayotgan loyihalarni olishimiz mumkin.

O‘zbekistonda rivojlangan mamlakatlarning innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashidagi siyosatining ma’lum bir tomonlarini olish mumkin. Bunda davlat moliyaviy mablag‘larni umumlashtirgan holda, moddiy-texnik bazani (ilmiy tadqiqotchilar va ishlab chiqarishdagi etakchi mutaxassislar hamkorligi) kuchaytirishi lozim. O‘rta va uzoq muddatlarga mo‘jallangan ilmiy-texnik loyihalarni moliyalashtirish, kichik korxonalarda innovatsiyalarni joriy qilishda dastlabki mablag‘larni davlat tomonidan kafolatlash kerak. Masalan, AQShdagisi faoliyat olib borayotgan yirik kompaniyalar ishlab chiqarish hajmi me’yorlardan oshganda ilmiy-texnika sohasi rivojlanishida monopoliyani to‘xtatadi, natijada kichik

¹⁸SNRS – Frantsiyada faoliyat ko‘rsatayotgan ilmiy markaz nomi.

kompaniyalar ham muvoffaqiyatli faoliyat olib boradi. Respublikamizda ham bu kabi tajribalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Innovatsiyalar bir necha turlarga bo‘lingan bo‘lib, ularni ayrimlarini ko‘rib o‘tishni lozim deb bilamiz.

Mahsulot innovatsiyasi - turistik mahsulotlarning iste’mol xususiyatlarini va bozordagi mavqeyini o‘zgartiradi va uning raqobatbordoshligini oshiradi. Bu innovatsion mahsulot mintaqa yoki hududiy turizm bozoriga oldin taqdim etilmagan turistik yo‘nalish, xizmatlar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Masalan, Qo‘qonni hunarmandlar shahri sifatida mintaqaga bozoriga tanishtirish mumkin. Bu orqali bevosa bir necha marta forumlar o‘tkazilishi yoki milliy hunarmadchilik mahsulotlari taqdimotlari va gastronomik turlar ham o‘tkazilishi mumkin. Bundan tashqari ekologik toza mahsulotlarga bo‘lgan talabning ortib borishi bilan turistik kompaniyalar va mehmonxona industriyasida ekologik toza yashash, ovqatlantirishda texnologik takliflar ortib bormoqda. Mahmulot innovatsiyasiga yirik muzeylardagi yangi xizmat turi sifatida 3D formatda virtual sayohatlar, elektron yozuvli GID xizmati, maxsus mini suv osti kemalari, axborot uzatish texnologiyalari, internet saytlari, platformalar, mobil ilovalarni ishlab chiqish va joriy etish kabilar ham kiradi.

Jarayon innovatsiyasi – bevosa turistlarga xizmat ko‘rsatish vaqtida innovatsion mahsulot bilan birgalikda yangi texnologiyalarni joriy qilish tushuniladi. Bu holatni to‘liqroq tasavvur etishimiz uchun narxi arzonlashtirilgan avivachiptalarni ([aviasales.uz](#)), arzon va shinam mehmonxonalarini ([booking.com](#)), apartamentlarni ([airbnb.com](#)) bronlash va malakali GIDlarni qidirish tizimi ([GetGuide.uz](#)) olishimiz mumkin. Jarayon innovatsiyalari, mahsulot va boshqa innovatsiyalarni joriy qilishga qaraganda yaqin yillarda O‘zbekistonda istiqbolli hisoblanadi, chunki bu kabi innovatsion texnologiyalarni joriy qilish uchun katta moliyaviy xarajatlarni, o‘ta yuqori malakali xodimlar bo‘lishi talab etilmaydi. Shuningdek bunda rivojlangan mamlakatlarda sinovdan o‘tgan mavjud texnologiyalarni qo‘llash imkonini beradi.

Tashkiliy-boshqaruv va moliyaviy innovatsiyalar-turistik kompaniyalar biznesini yuritish asosan keng ko‘lamda foydalanadi. Xizmatlarni ishlab chiqarishda texnolgiyalarni joriy qilish,, xodimlar siyosatini yuritish, moliyaviy faoliyat va hamkorlar bilan samarali aloqalarni yo‘lga qo‘yishda qo‘llaniladi. Xodimlar siyosatini yuritishda mutaxassislarni yangi platformalarda ishlashni o‘rgatish, professionallikni singdirib borish, motivatsiya, malaka oshrish va qayta tayyorlash nazarda tutiladi. Moliyaviy faoliyat kompaniyaning barqaror rivojlanishini ta’minlashi bilan birga zamonaviy hisob kitoblarniamalga oshrishni ta’minlaydi.

Marketing innovatsiyasi – turistik mahsulotning bozordagi narxini shakllanishi, talab va taklifni o‘rgangan holda sotuvni oshirish orqali to‘lov qobiliyatiga yondoshuvlarni yaxshilashdir. Marketing innovatsiyalari maqsadli iste’molchilarining o‘zgaruvchan ehtiyojlarini qamrab oladi va mahsulotlarga yangi mijozlarni jalb qiladi. Bunga misoli qilib, bitta aviakompaniya xizmatidan va bitta mehmonxona zanjirlaridan doimiy foydalanuvchi tashrif buyuruvchi mijozlar uchun maxsus imtiyozli narxning shakllanganligi yoki xalqaro turizm bozorlaridagi kabi keng ommolashib borayotgan “uchtasi bittada”, “ikkiasi bittada” yoki “barchasi bittada” kabi yo‘lga qo‘yilgan sotuv tizimini olishimiz mumkin.


Biznes-model innovatsiyasi – bu turizmda biznesni yuritishning yangicha usuli bo‘lib, turislar uchun yangicha sharoitlarni yaratish tushuniladi. Bunga misoli qilib, mehmonxona xizmatidan foydalangan turistlarning bazasini yaratish, ularga xizmat ko‘rsatishda individual yondashuv yoki havo yo‘llaridagi tashuvlarning xalqaro integratsiyasiga qo‘shilishini olishimiz mumkin.

Logistikadagi innovatsiya - turistlarni manzillarga etkazish tizimlari va infratuzilmadagi muammolarning yangi echimlarida foydalaniladi. Bunga misol qilib, aeroportlar, temir yo‘llari, dengiz portlari va avtovokzallarni bog‘lab turuvchi tugunning mutloqa yangicha faoliyat yuritishidir. Avia, temir yo‘l chiptalariga oldindan buyurtma berishni izlash platformalari ham kiradi. Mamlakatimizga tashrif buyurayotgan turistlarning asosiy qismi Toshkent-

Samarqand, Toshkent-Buxoro, Toshkent-Urganch sayohlik yo‘nalishlarida ko‘proq havo transportidan foydalanmoqda. Bu aviaqatnovlarda bo‘sh o‘rirlarning ochiq on-layn tizimi innovatsion mahsulotga misol bo‘ladi. Lekin, hozirgi vaqtida respublikamizda xalqaro va mahalliy aviaqatnovlarning narxi yuqoriligi, qatnovlar oralig‘i kattaligiga qaramasdan bo‘sh joylarni topish qiyin. Ko‘pincha monopoliyalar ham innovatsiyalarni amalga oshrishga yo‘l bermaydi. Bu kabi muammolar turistlarning transport turlaridan erkin foydalanish imkoniyatlarini ham tushirib yuboradi. Bizning oldimizdagи turgan asosiy muammolardan biri havo qatnovlarini rivojlantirishda yangi innovatsion yo‘nalishlarni (lukostrlar) o‘zlashtirish turibdi.

Resurs innovatsiyalari – turistik yo‘nalishlarni tashkil qilish va unda xizmat turlarini kengaytirishda yangi turdagи resurslardan samarali foydalanish tushuniladi. Turistik kompaniyalar bozorlarga yangi xizmat turlarini taklif etishda yangi resurslarni o‘zlashtirish orqali takomillashtirib boradi. Masalan, Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumanida joylashgan Axsikent arxelogik yodgorlik qazilmasi izlanishlarini tomosha qilish imkonini beruvchi ochiq osmon ostidagi muzeyni olishimiz mumkin.

Konseptual innovatsiyalar – yangi konsepsiyalarni ishlab chiqish orqali turizmni rivojlantirish, xizmatlarni ishlab chiqishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va yangi ko‘rinishdagи xizmatlarni turistlarga taqdim etishdir. Shu bilan birgalikda arxitektura-muhandislik va texnologik yechimlarda ham keng foydalaniladi.



1.3.1-rasm. Innovatsiyaning turlari va uning qo'llanilishi¹⁹.

Innovatsiyalarni qo'llashning eng yaxshi variantlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, bunda 3ta yo'nalishda izchillik bilan faoliyat olib borish maqsadga muvofiqligi oydinlashadi. Bunda kompaniya o'zinig biznes faoliyatiga asoslangan holda yangi sayyohlik yo'nalishlarini ishlab chiqish va kelajakdagi imkoniyatlarini hisobga olgan holda va asosiysi biznesini mustahkam himoya qilgan holda astasekinlik bilan strategiyani kengaytirishni belgilab oladi.

Iqtisodiyotning boshqa sohalari kabi turizmda ham innovatsiyalarni belgilangan qatiy tartib-qoida tariqasida xizmat ko'rsatishni takomillashtirgandan va turistlarda o'z-o'zidan yangi xizmatlarga ehtiyojlar paydo bo'lgandan so'ng emas, balki xizmat ko'rsatuvchining o'zi turistlarni yangi xizmatlarga ko'niktirgandan so'ng joriy qilinadi.

¹⁹ Muallif tomonidan innovatsiyalarning turlari va uning qo'llanishi bo'yicha ishlab chiqqan ishlanma.

Innovatsiyalarni ishlab chiqish va samarali qo'llashda kichik korxonalar etakchi bo'ladi, chunki ular innovatsion texnologiyalar asosida mahsulotlarni ishlab chiqish qarorini qabul qilishda va bozordagi o'zgarishlarga tezkor moslashishi bilan ajralib turadi.

1.3.1-jadval

Turizmda innovatsiyalarni qo'llashga ta'sir etuvchi omillar²⁰

Omillar	Salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar	Ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar
Iqtisodiy-ilmiy texnologik	<ul style="list-style-type: none"> - xizmat ko'rsatish tashkilotlarini qo'llab-quvatlash va moddiy rag'batlantirish, innovatsion faoliyat olib borayotgan korxonalar uchun ajratilayotgan mablag'larning yetishmasligi; -moliyaviy zaxiralalar, ilg'or texnologiyalar va moddiy-texnik ba'zaning yo'qligi; -yetarlicha darajada infratuzilmaning shakllanmaganligi. 	<ul style="list-style-type: none"> - moliyaviy zaxiralarning yetarlicha shakillantirilganligi, ilg'or texnologiyalar va moddiy-texnik ba'zaning mavjudligi; -infratuzilmaning yetarlicha shakllanganligi; -innovatsion faoliyatni yo'lga qo'ygan korxonalarini moddiy rag'batlantirish va qo'llab-quvatlash.
Me'yoriy-huquqiy	<ul style="list-style-type: none"> -monopoliyaga cheklovlarining qo'llanilmasligi; -soliq imtiyozlarining ma'lum korxonalarga berilishi; -litsenziya olishdagi cheklovlar. 	<ul style="list-style-type: none"> -qonuniylashtirilgan innovatsion faoliyatlarni qo'llash va rag'batlantirish; -davlat tomonidan innovatsiyalarni amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash;
Iqtisodiy va tashkiliy boshqaruvi	<ul style="list-style-type: none"> -markazlashgan boshqaruvning mavjudligi; -sohada faoliyat olib borayotgan tashkilotlarning o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yishdagi to'siqlar; -an'anaviy bozorga asosiy e'tiborning qaratilishi; -innovatsiyalarni joriy qilishda tomonlarning manfaatlari muvofiqlashtirilmaganligi. 	<ul style="list-style-type: none"> -tashkiliy va iqtisodiy boshqaruv tuzilmasining tez moslashuvchanligi; -qarorlar qpbul qilishda demokratik uslubdan foydalanish; -axborotlarni qayta ishslash va etkazishning tezkorligi; -muammolarni echishda muvofiqlashtirish guruhlarini shakllantirish.
Ijtimoiy va madaniy	<ul style="list-style-type: none"> -o'rnatilgan an'analarni o'zgartirishga qarshilik ko'rsatish; -xodimlarning xatoga yo'l qo'yishidan yoki muvoffaqiyatsizlik uchun beriladigan jazodan cho'chishi; -tashqaridan kirib keladigan yangiliklarni joriy qilishga qarshilik ko'rsatish. 	<ul style="list-style-type: none"> -jamoatchilik asosida ma'naviy qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish; -xodimlar o'rtasidagi o'zaro bir-birini tushunishi va qo'llab-quvvatlashi.

²⁰ Muallif tomonidan turizda innovatsiyalarni qo'llashga ta'sir etuvchi omillar guruhlashtirilgan.

Innovatsiyalarni qo‘llash va hayotiy siklini uzaytirish jarayonlari quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Innovatsiyalarni ishlab chiqilish, uni o‘zlashtirish va rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash;
2. Innovatsiyalarning joriy etilishi – ishlab chiqarishga yangilikni yoki yangi texnologiyalarni joriy etish tushuniladi. Bunda yangi texnologiyalar o‘zlashtirilib, an’anaviy ishlab chiqarishni o‘zgartirish amalga oshiriladi.
3. Innovatsiyalarni qo‘llashni doimiylashtirish – innovatsiyalarni tegishli ob’ektlarda barqaror va doimiy ishlaydigan mexanizmini yaratish. Invatsiyalarni qo‘llashda biror bir bosqichida muammoning yuzaga kelishi bilan to‘xtab qolsa uni amalga oshrishdan voz kechmaslik kerak. Agar shunday muammo yuzaga kelsa uni bartaraf etish yo‘llarini tezlikda topib, bartaraf etish lozim. Shundagina innovatsiyalarni doimiy amalga oshirish uchun moslashuvchanlik yuzaga chiqadi.

Innovatsiyalarni amalga oshirish jarayonining moliyaviy tomonlarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, innovatsiyalarni dastlab amalga oshirish qimmatga tushishi mumkin, lekin bozorda muvoffaqiyatga erisha boshlanishi (sotuvning ortib borishi) bilan daromadlar ortib boradi. Yangi mahsulot raqobatbordosh va turistlar orasida talabga javob bersa sof foyda ham ortib boradi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, hozirgi tez o‘zgaruvchan va texnologiyalar keng joriy etilayotgan vaqtda bozordagi bu holat uzoq davom etmaydi. Ko‘pchilik raqobatchi tadbirkorlar o‘zlaridan o‘zib ketmaslik uchun ularning bozordagi xarakatlarini sinchikovlik bilan kuzatib boradi va mahsulotlarni turistlar talabiga moslashtirib boradi. Ko‘pincha bozorga kiritilgan yangi mahsulotlarni boshqa bir tadbirkorlar o‘zlashtirib olishi kuzatiladi, shuning uchun mahsulot va xizmatlarni bozorga kiritishdan oldin litsenziyalash talab qilinadi. Bozordagi yangi mahsulotlarni obro‘sizlantirish maqsadida raqobatchilar obro‘li brend ostida past sifatli va arzonroq analogini ishlab chiqishi orqali jiddiy zarar yetkazadi. Shu bilan birgalikda bozordagi eng jiddiy raqobatchi mahsulotning kamchiliklarini topish orqali asta sekin o‘zlarining takomillashtirilgan mahsulotlari bilan bo‘shliqlarni to‘ldirib boradi.

Jahon iqtisodiyotda hozir innovatsiyalarni qo'llash, raqamli iqtisodiyot degan tushunchalar ommolashib bormoqda. Bu yo'nalishda uzluksiz tadqiqotlar olib borilishiga qaramasdan "raqamli iqtisodiyot" yaxlit tushunchasi ishlab chiqilmagan. "Raqamli iqtisodiyot" ko'pgina tadqiqotchilarning fikricha olib boriladigan iqtisodiy faoliyatni tahlil qilish va olingan natijalaridan maqsadli foydalanish, samarali faoliyat natijalari bo'yicha to'plangan ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish asosida texnologiyalar, tovarlar va hizmatlarni saqlash, asbob-uskunalar, sotish va yetkazib berish imkoniyatini yaratadigan va asosiy ishlab chiqarish omili deb sanalgan raqamli ko'rinishdagi ma'lumotlarni jamlaydigan faoliyatidir. Demak, alohida bir faoliyat turiga "raqamli iqtisodiyot" kirmas ekan. Ko'rib o'tilganlardan xulosa qiladigan bo'lsak, ishlab chiqarish ob'ektlari, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, ko'rsatiladigan xizmatlar deganidir. Shu bilan birgalikda "raqamli" atamasi xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Ananaviy turizmda moddiylikning asosi turistik resurslar hisoblansa, raqamli turizmda qayta ishlangan hamda masofadan uzatiladigan ma'lumotlar bo'ladi.

Bugungi kunda fuqarolarimiz ichki turizmda sayohatlarga chiqishda tanish bilishlari orqali telegram botlaridan faol foydalanmoqdalar. Ma'lum bir vaqtlardagina turli internet do'konlar, elektron to'lov tizimlaridan foydalanmoqda. Bunda foydalanuvchilarining aksari katta summa talab qilmaydigan xizmat va mahsulotlarni olish uchun bitimlarni tuzmoqda. Hozircha katta va o'rtacha xarid shartnomalarini tuzishga unchalik tayyor emaslar. Bu kabi muammolarning borligi hali ham bizda xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar etarlicha shakllanmaganligida. Rivojlangan davlatlarda yirik shartnomalar va moliyaviy operatsiyalar raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirilmoqda. Bizda ham xorij tajribasidan keng foydalangan holda "raqamli iqtisodiyo"ga o'tishni tezlashtirishni va joriy qilishni qo'llab-quvvatlashimiz lozim.

Turizm sohasida "raqamli iqtisodiyot"ni joriy qilishning samaradorligi quyidagicha:


1. Turislarning yo‘nalishlarda ko‘rsatiladigan xizmatlar asosiy xizmat turlarini sotib olishdagi harajatlar sezilarli darajada kamayadi (on-layn aviabilet, mehmonxonani bronlash, restoranlarga buyurtma berish).
2. Turopertorlarning haridorlarni xizmat paketlari bilan tanishtirish (turpaketlar), xizmat turlari haqida ko‘proq va tezkor ma’lumotlarni uzatish.
3. Turopertorlar tomonidan “fidbek” (turistlar fikrini)ni tezkor olib qayta ishslash orqali yo‘nalishlar va xizmatlarni qisqa muddatda takomillashtirish.
4. Keng auditoriyani yaratilgan yangi turmahsulotlar bilan tanishtirish orqali imkoniyatlar bir necha marta oshiriladi.

Turizmi rivojlangan davlatlarda yuqorida ko‘rib o‘tilganlarning aksar qismi 15-20 yildan beri shakllanish jarayonini bosib o‘tmoqda. Bizning turopertorlar ham jarayondan orta qolmasligi zarur, chunki biz globallashuv, jahon integratsiyaga tez kirishayotgan mamlakatlar qatoriga kiramiz.

Yuqorida ko‘rib o‘tilganlardan xulosa qiladigan bo‘lsak, ananaviy usulda mijozlar turopertor yoki turagentning ofisiga borib u bilan yuzma-yuz uchrashgan holda sayohatning tashkiliy masalari va shartnomalarni imzolagan bo‘lsa, hozirda innovatsion texnologiyalarning imkoniyatlaridan foydalangan holda, turistlar xizmatlarga buyurtma berishi yoki dunyoning istalgan joyidan turib sayohat bo‘yicha ma’lumotlar olishi imkoniyatiga ega bo‘ladi. Umuman olganda turizmda “raqamli iqtisodiyot” o‘tgan asrning 80 yillarida boshlangan. O‘sha paytdan boshlab turopertorlar mehmonxonalar va aviabiletlarga oldindan buyurtma berish va kelishilgan mablag‘larni o‘tkazish orqali bronlash sistemalaridan keng foydalana boshlagan. Demak, hozirgi mavjud tushunchalar bo‘yicha olib qaraladigan bo‘lsa, turistik faoliyat aslida allaqachon “raqamli iqtisodiyot” ichida yurgan, lekin uning mohiyatini o‘sha vaqtda to‘liq tushunib yetmagan. Fikrimizcha “raqamli iqtisodiyot” turizm sohasida innovatsion texnologiyalarni bosqichma-bosqich amaliyotga joriy qilish, yangi yo‘nalish, yangi ishlab chiqilgan xizmatlarni turistlarning kundalik hayotiga singdirish yoki sohaga zudlik bilan joriy qilinishi kerak bo‘lgan jarayon emas, bu iqtisodiy faoliyatning samaradorligini oshirish

deganidir²¹. Bunga misol qilib, turizmi industriyasidagi o‘zgarishlarni keltirsak bo‘ladi. Mehmonxonalarda qo‘llanilayotgan innovatsion texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha to‘xtaladigan bo‘lsak, o‘tgan 2017-2021 yillarda sohada ijtimoiy va texnologik o‘zgarishlar kuzatildi. Dunyodagi yirik va mashhur brend mehmonxonalar innovatsion texnologiyalarni qo‘llash borasida tashabbusni qo‘lga olganligini ko‘ramiz. Ular tomonidan joriy qilinayotgan innovatsiyalar jahon mehmonxona biznesining asosiy yo‘nalishlarini belgilab bermoqda. Dunyoga mashhur “Marriott” mehmonxonasining bir tarmog‘ini boshqarayotgan Edmundsonning ta’kidlashicha, qisqa vaqtlar orlig‘ida mehmonxona biznesida “Alexa” ovozli yordamchi yoki “Nest” aqlii termostati kabi qurilmalarga sarmoyalar keng jalb qilinadi. Masalan, “Marriott” mehmonxolar tizimi nomerlarida yangi turdagи xizmatlar taklif etila boshlandi. Bu xizmat turi Marriott Samsung va Legrand SA bilan birgalikda ishlab chiqilgan. Mehmonxona nomerida turistlarning ishlatayotgan suvining haroratini eslab qoluvchi vanna va dush, turistlarning o‘zlarini bilan olib yurgan esdalik suratlarini devorlardagi monitorda elektron almashtirish mumkin bo‘lgan imkoniyatlar bilan birga ovozli buyruq orqali videolarni ko‘rsata oluvchi display o‘rnatilgan ko‘zgularni “W-Hotels” tarmog‘i orqali taqdim etmoqda. “Marriott” mehmonxolar tizimi joriy qilgan innovatsiyalarga javoban “Hilton” mehmonxonalar tarmog‘i "Smart nomerlar"ni keng ommoga namoyish qildi. "Smart nomerlar"da mobil ilovalar orqali nomerdagi televizorni, yorug‘likni, havo haroratini va raqamlı ramkalardagi tasvirlarni boshqarish mumkin bo‘ladi. Innovatsion texnologilar joriy qilgan mehmonxonalarda ishlab chiqilgan xizmatlar bozordagi raqobatchilar bilan to‘qnashmoqda va narx siyosatiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Agarda taqdim qilingan xizmatlar bozorda raqobatbardosh bo‘lib chiqsa turistlarni o‘ziga jalb qiladi. Agarda buning aksi bo‘lib chiqsa sifati yuqori bo‘lgani bilan unga sarflangan xarajat yuqori bo‘lib, turistlar Resuchun bu xizmatlardan foydalanish qimmat bo‘lsa o‘z-o‘zidan talab kamayadi.

²¹ Muallifning turizmda “Raqamli iqtisodiyot” bo‘yicha bergen xulosasi.



1.3.2-rasm. Turizmda innovatsion-texnologiyalarni joriy qilishni moliyalashtirish manbalari²².

Turizmda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish katta mablag'ni talab qilganligi uchun AQSh mehmonxonalarida yangi to'lov turlari va yig'imlar joriy qilinmoqda. Buning natijasida yaqin kelajakda AQShdagi mehmonxonalarda ko'rsatiladigan xizmatlar qimmatlashadi. Mamlakatning yirik shaharlari Nyu-York, Washington, San-Fransisko, Chikago, Boston va Los-Anjelesdagi mehmonxonalarda joriy qilingan qo'shimcha yig'im orqali o'zlarining faoliyatini davom ettirishi uchun innovatsiyalardan keng foydalanishga majbur bo'ladi. Ekspertlar fikricha buning yaxshi tomoni ham mavjud bo'lib, xizmatlar sifati sezilarli darajada ortadi.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Bugungi kunda iqtisodiyotning qaysi bir sohani olmaylik uning rivojlanishi uchun davlat tomonidan yetarlicha e'tibor qaratilmasa, uning me'yoriy-huquqiy asoslari yaratilmasa rivojlanish kuzatilmaydi. Shu nuqtai-nazardan olib borgan izlanishlarimiz ko'rsatishicha, mamlakatimizda 2016 yildan boshlab turizmni rivojlantirishga uning infratuzilmasini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Turizmni iqtisodiyotning strategik ahamiyatga ega bo'lgan sohasi sifatida rivojlantirishga kirishildi. Buning uchun turizmning shakllangan infratuzilmasi bo'lishi lozim. Turizm infratuzilmasi bo'yicha fikrimiz, u bir maromda ishlashi uchun mo'jallangan, sayyoqlik tashkilotlarining mavjud turistik

²² Muallifning ishlanmasi.

resurslardan samarali foydalanishini, shuningdek, turizm industriyasi rivojlanishiga xizmat qiluvchi korxonalarning faoliyatini ta'minlaydigan, ijtimoiy va rekreatsion tuzilmalar va yordamchi tarmoqlar majmuidir degan tushunchani berishimiz mumkin. Izlanishlarimiz ko'rsatishicha turizm infratuzilmasi va turistik destinatsiyalarning rivojlanishida ijtimoiy-demografik omillar ham yetakchi ahamiyatga egaligi aniqlandi. Jahondagi eng katta muammolardan biri hozirda demografik jarayonlar bo'lib qolmoqda. Buning sababi, rivojlangan mamlakatlarga rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining noqonuniy ko'chib o'tishi, qulay infratuzilmaga ega bo'lgan hududlarda aholi sonining tez o'sishi, shahar aholisi aglomeratsiyasining kengayib borishi, ayrim mintaqalarda tug'ilishdan o'limning ko'pligi ham jiddiy ta'sir o'tkazmoqda. Shu bilan birgalikda turizm infratuzilmasi rivojlanishiga innovatsiyalar ham sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi. Innovatsiyani joriy qilishda birinchi navbatda tabiiy geografik omillar, ob-havo sharoitlaridan va tarixiy-madaniy merosdan kelib chiqib yondoshishni talab etiladi. Ularni to'g'ri yo'naltirish orqali yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish, sohani rivojlanishining salohiyatini oshirishi aniqlandi. Innovatsiyalarni amalga oshirish jarayonlarini bosqichma-bosqich amalga oshirish kerakligi va uni amalga oshirish juda ham ehtiyyotkorlikni talab qiladi. Chunki, innovatsiyalarga sarflangan mablag'lar biron bosqichda noto'g'ri amalga oshirilsa, barcha qilingan xarakatlar bekor ketishi mumkin. Shuning uchun innovatsiyalarni qanday va qaerda qo'llashni bilish ham kerakligini o'rghanishimiz kerak.

O'zbekistonda rivojlangan mamlakatlarning innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashidagi siyosatining ma'lum bir tomonlarini olish mumkin. Bunda davlat moliyaviy mablag'larni umumlashtirgan holda, moddiy-texnik bazani (ilmiy tadqiqotchilar va ishlab chiqarishdagi etakchi mutaxassislar hamkorligi) kuchaytirishi lozim. O'rta va uzoq muddatlarga mo'jallangan ilmiy-texnik loyihalarni moliyalashtirish, kichik korxonalarda innovatsiyalarni joriy qilishda dastlabki mablag'larni davlat tomonidan kafolatlash kerak. Masalan, AQShdagi faoliyat olib borayotgan yirik kompaniyalar ishlab chiqarish hajmi me'yordan oshganda

ilmiy-texnika sohasi rivojlanishida monopoliyani to‘xtatadi, natijada kichik kompaniyalar ham muvoffaqiyatli faoliyat olib boradi.

Innovatsiyalarni amalga oshirish jarayonining moliyaviy tomonlarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, innovatsiyalarni dastlab amalga oshirish qimmatga tushishi mumkin, lekin bozorda muvoffaqiyatga erisha boshlanishi (sotuvning ortib borishi) bilan daromadlar o‘z-o‘zidan ortib boradi. Lekin, shuni ham aytib o‘tish kerakki, hozirgi tez o‘zgaruvchan va texnologiyalar keng joriy etilayotgan vaqtda bozordagi bu holat uzoq davom etmasligi mumkin. Ko‘pchilik raqobatchi tadbirkorlar o‘zlaridan o‘zib ketmaslik uchun ularning bozordagi xarakatlarini sinchikovlik bilan kuzatib boradi va kerakli choralarни ko‘radi. Umuman olganda bu ko‘rib o‘tilgan omillarimizning barchasi turizm infratuzilmasini yaxshilashga olib keladi.

II-BOB. O'ZBEKISTONDA TURIZM INFRA TUZILMASINING RIVOJLANISHI HOLATI VA SHART-SHAROITLARI

urizm infratuzilmasi rivojlanishi va unga ta'sir etgan omillarning iqtisodiy tahlili

O'zbekiston Respublikasi 1991 yil 1-sentyabrda mustaqilikni qo'lga kiritgandan keyin iqtisodiyotning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshira boshladi. Turizm infratuzilmani shakllantirish, turistlarga xalqaro talablar darajasiga xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish singari talab etildi. O'tgan yillar davomida turizm infratuzilmasini shakllantirish bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi, lekin respublikamizda turizm sohasi 2016 yildan keyin haqiqiy bosqichga ko'tarildi.

Respublikamizda turizm rivojlanishining yangi davrini Prezidentimiz tomonidan 2016 yil 2 dekabrda PF-4861-son "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"²³ farmoni qabul qilinishi boshlab berdi. Farmonga asosan mamlakatimizda turizmni iqtisodiyotining strategik tarmog'iga aylantirish, sohaga zamonaviy boshqaruva usullarini joriy qilish, uni rivojlantirish uchun tashkiliy-huquqiy asoslarni yaratish, infratuzilmani yanada takomillashtirish, turistik mintaqalardagi resurslardan foydalananish samaradorligini oshirish, sohada innovatsion texnologiyalarni qo'llash, tashqi bozorlarda milliy turmahsulotlarning jozibadorligini oshirish, milliy turizm brendini yaratish, tashqi bozorlarda turmahsulotlar targ'ibotini yangicha ko'rinishda tashkil etish bo'yicha bir qator vazifalarni bajarish belgilab olindi.

2016 yilda boshlangan islohotlarning yangi bosqichida respublikamiz turizmi infratuzilmasini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratildi. Bu davrdan boshlab turizm iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari bilan o'zaro integratsiyalashuvi tezlashdi va uning YaIMdagi ulushi ortib bordi. Shu bilan birgalikda turistlarga xizmatlar ko'rsatish va turizm infratuzilmasi rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish ham

²³ www.Lex.uz.

keng ko‘lamda boshlandi. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha AQSh, Ispaniya, Germaniya, Xitoy, Turkiya, Fransiyaning tajribalari ko‘rsatishicha, xorijiy valyuta tushumini, yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish, aholini ijtimoiy himoya qilish, rivojlangan infratuzilma xizmatlar eksportini va bir qator muammolarni o‘z vaqtida hal qilishda juda ahamiyatli ekanligini ko‘rsatdi.

Shu bilan birgalikda “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi²⁴ 2017 yil 15 martdagি 137-sonli Vazirlar Mahkamasining qarori turizm infratuzilmasini rivojlantirishni, milliy turizm mahsulotlari va brendlarini xalqaro turizm bozorlarida faol targ‘ibot qilishni yanada qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qator farmon, qarorlar orasida alohida ahamiyat kasb etadi. Vazirlar Mahkamasining tomonidan qabul qilingan bu qaror respublikamiz turizmi rivojlanishidagi bir qator muammolarni yechimini ta’minlab berdi.

Infratuzilmani takomillashtirish borasida keyingi yillarda dunyo turizmidagi o‘zgarishlarga mos ravishda chora-tadbirlar dasturlarining ishlab chiqilishi natijasida zamonaviy restoranlar, mehmonxonalar, yangilangan transport turlari, madaniy-ko‘ngil ochar maskanlari, diniy ziyyaratgohlar, rekreatsion-sog‘lomlashtirish markazlari ishga tushirildi. Shu bilan birgalikda Samarqandda “Sharq taronalari”, Surxondaryoda “Boysun bahori”, Baxshichilik san’ati xalqaro festivali, Qo‘qonda hunarmandchilik festivali, sport sohasida futbol, boks, o‘zbek milliy kurashi bo‘yicha jahon miqyosida championatlar o‘tkazilmoqda. Bu kabi tashkillashtirilayotgan tadbirlar MDH va uzoq xorijiy mamlakatlardan ko‘plab turistlarni respublikamizga jalb qilmoqda. Lekin, bir qator muammolar haligacha o‘z yechimini topgani yo‘q.

Respublikamiz turizmi sohasidagi muammolarning yechimini topish uchun bizning fikrimizcha turizm infratuzilmasini rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

²⁴ www.Lex.uz

-davlat tomonidan iqtisodiyotning strategik tarmog‘i sifatida turizm infratuzilmasini takomillashtirish uchun qulay tashkiliy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish;

-respublikamizda turizm destinatsiyalarining hususiyatlaridan kelib chiqib, innovatsion-texnologik ishlanmalardan foydalangan holda mintaqaviy turizm tarmog‘ini boshqarishni tubdan takomillashtirish, yangi turmahsulotlarini ishlab chiqish va ularni ichki va tashqi bozorlarda targ‘ibot qilish, turistik destinatsiyalar salohiyatidan yanada to‘liq va samarali foydalanish;

-iqtisodiyotning strategik tarmog‘i darajasida turizmga qarash, uni rivojlantirishning yaxlit konsepsiyasini shakllantirish, YaIMda uning ulushini oshirish va sohada innovatsiyalarni joriy qilishni izchil amalga oshirish;

-mintaqalardagi iqtisodiyot tarmoqlari bilan o‘zaro bog‘liqligi ta’minlagan holda turizm infratuzilmasini kompleks ravishda jadal rivojlantirish, sohada tarkibiy o‘zgartirishlarni amalga oshirish, sohani doimiy ravishda diversifikatsiyalash, mahalliy byudjet daromadlarida va yalpi hududiy mahsulotda turizmning ulushini oshirib borish, bandlikni ta’minlash orqali mintaqalarda aholini ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, turmush darajasi va sifatini oshirish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish;

-davlat tomonidan innovatsiyalarni keng joriy qilish uchun turizm industriyasida faoliyat olib borayotgan sub’ektlar faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish va ularning keng ko‘lamda faoliyat olib borish uchun sohaga doir normativ-huquqiy bazani va qonun xujjatlarini yanada takomillashtirish;

-yuzaga chiqayotgan to‘sinq va g‘ovlarga sohaning imkoniyatlaridan kelib chiqaan holda, yani innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda holda yechim topish, axborot texnologiyalarini keng joriy qilish orqali pasport va bojxona nazoratini, turistlarni ro‘yxatdan o‘tkazish va viza tartiblarini soddallashtirish;

-davlat-hususiy sheriklik imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda turistik xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish va ularni hozirgi tez o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashtirish;

-mamlakatdagi mavjud resurslardan yanada to‘liq va samarali foydalanish orqali turizmi infratuzilmasini rivojlantirishda, hozirda keng foydalanilayotgan madaniy-tarixiy turizm an’anaviy turizm turiga aylanib bo‘lganligi uchun uning asosida sayohatlarni tashkil qilishda imkoniyatlari va salohiyati yuqori bo‘lgan turlarini, yani ziyorat, etnografik, ma’rifiy, ekologik, davolash-sog‘lomlashtirish, sport, MICE, rekreatsion, gastronomik, qishloq, sanoat turizmini rivojlantirish;

-hozirda talab ortib borayotgan oilaviy turizmni, keksalar uchun ijtimoiy turizmni, bolalar, o‘smirlar va yoshlar turizmini tashkil qilishdagi muammolarni bartaraf etish uchun ko‘rsatilayotgan xizmatlarni muvofiqlashtirish, infratuzilmani moslashtirish, ijtimoiy himoyani bundanda kuchaytirish, tashqi va ichki bozorda yangi turizm yo‘nalishlarini tashkil etish.

Prezidentimiz tomonidan 2019 yil 5 yanvarda “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘sishmcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611-tonli farmon qabul qilinishi yuqoridagi ko‘rsatib o‘tilgan muammolarni bartaraf etishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish buyicha konsepsiya mazkur farmon asosida ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan konsepsiya asosan yaqin olti yil ichida respublikamiz turizmida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar belgilab olingan edi, pandemianing 2020 yilda kutilmagan yuzaga kelishi konsepsiyada belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish imkoniyatlari ancha cheklanib qoldi. Bu kabi muammolarni bartaraf etish uchun sohada innovatsion texnologiyalar imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda ko‘rsatkichlarni tubdan yaxshilash, xizmatlar eksportini oshirish, raqobatbordosh turmahsulotlar ishlab chikarish maqsad qilib olindi.

Respublikamizda turizmida pandemiya ta’siridan tezroq chiqib ketish uchun quyidagi ishlar amalga oshirilmoqda:

- mamlakat ichida sayohatlarga chiqish keng targ‘ib qilindi;
- xorijiy mamlakatlar pandemiya ta’sirida o‘zlarining chegaralarini turistlar uchun yopib qo‘yanligidan samarali foydalangan holda, turizm infratuzilmasidagi kamchiliklarni bartaraf etish ishlari olib borildi;

-pandemiya holati yumshashi natijasida MDH va uzoq xorijlik turistlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar faollashdi va 2019 yilgi ko‘rsatkichlarga erishish imkoniyati yaratildi;

-transport logistika, turistik firmalar, mehmonxonalar, kafe, restoranlar yopilib qolmasligi, malakali mutaxassislar ish o‘rnini yo‘qotmaslik uchun imkon darajasida davlat tomonidan subsidiya va engilliklar berish orqali qo‘llab-quvvatlash amalga oshirilmoqda;

- ko‘pchilik turistlar pandemiyadan keyin juda ehtiyyotkor bo‘lib qolgan uchun ekoturizmga, agroturizmga, qishloq turizmiga, yani ichki turizmga mahalliy aholini keng jalb qilish targ‘ib qilinmoqda;

-respublikamizning turistik markazlaridagi tarixiy-madaniy ob’ektlariga, shu singari ziyoratgohlarga, rekratsion turizmga ommoviy sayohatlardan turistlar avvalgidek keng ko‘lamda foydalanish imkoniyatlari yaratildi.

Pandemiya sharoitida rivojlangan davlatlarda vaziyatdan chiqishda ekoturizm va qishloq turizmi katta yordam berdi. Tabiat qo‘yniga sayohat qilayotgan turistlarda, ijtimoiy masofani saqlashga hojat qolmaydi. Qishloqlarda odamlar shaharlarga nisbatan kam bo‘ladi. Mehmonxonalarda, ovqatlanish shahobchalarida, transportda odamlarning tirbandligi kuzatilmaydi.

O‘zbekistonda ham ichki turizmni amalga oshirishda imkoniyatlarimiz katta bo‘lib, qishloqlarimizda turistlarga ko‘rsatishga arziydigan tabiat manzaralari juda ko‘p bo‘lishiga qaramasdan ko‘pchilik vatandoshlarimiz bu haqda boshlang‘ich ma’lumotlarga ham ega emas. Shuning uchun ichki turizm infratuzilmasini rivojlantirishda innovatsion-texnologiyalarni keng qo‘llash kerak. Turistlar uchun yagona platformani joriy qilish ishlarini amalga oshirishimiz lozim.

Xalqaro talablar darajasida turizm infratuzilmasini rivojlantirish va xizmatlarni taklif qilishning yana bir varianti turistik turmahsulotlarni tezlikda diversifikasiyalash lozim. O‘zbekistonga asosan uzoq xorijlik turistlar havo yo‘lari orqali kirib keladi. Bizda chipta narxi xalqaro darajaga qaraganda nisabatan qimmat bo‘lganligi sababli o‘rtacha mablag‘ga ega bo‘lgan turistlar soni pandemiyadan keyingi davrda ham sekinlik bilan o‘snoqda. Mehmonxonalarda,

restoranlarda turistlarni ko‘proq jalb qilish uchun innovatsiyalardan xizmat sifatini oshirishda foydalanishimiz lozim. Bunda asosiy faoliyatni ananaviy tarixiy-madaniy turistik markazlarimiz bo‘lgan Samarqand, Buxoro, Toshkent va Xivagi mavjud mehmonxonalarini modernizatsiya qilish emas, balki turistik rekreatsion-sog‘lomlashtirish va ziyorat turizmi resurslariga boy bo‘lgan Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax va Farg‘ona vodiysida kichik shinam 3-4 yulduzli mehmonxonalarini qurishni rag‘batlantirishimiz kerak. Pandemiya bizga katta mehmonxonalar emas, aksincha 2-3 yulduzli, xonalari xam uncha ko‘p bo‘lmagan ixcham, shinam bo‘lgan mehmonxonalar qurishimiz, lekin undagi xizmatlar sifatini ko‘tarishimiz kerakligini ko‘rsatdi.

Yuqorida ta’kidlanganidek respublikamizda turizmi rivojlanishi 2016 yildan yangicha ko‘rinishga o‘tdi. 2016-2023 yillar davomida erishilgan natijalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, natijalarni quyidagi 2.1.1-jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

2.1.1-jadval

**O‘zbekistonga xorijiy turistlar tashrifi, xizmatlar eksporti va YaIMdag
ulushi ko‘rsatkichlari²⁵**

Ko‘rsatkichlar	Yillar							
	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Tashrif buyurgan turistlar (ming. kishi)	2,070	2,690	5,346	6,748	1,504	1,881	5,232	6,626
Turistik xizmatlar eksporti (mln. AQSh dol.)	214,8	546,9	1,040	1,313	261	422,1	1610,1	2143,5
YaIMda turizmning ulushi	2,1	2,5	2,5	2,6	2,3	2,4	2,6	2,7

2.1.1-jadvaldagi statistik ma’lumotlar bo‘yicha tahlil o‘tkazadigan bo‘lsak, respublikamizga tashrif buyurgan xorijlik turistlar soni 2016 yildan boshlab 2019 yilgacha mutassil o‘sib borganligini ko‘ramiz, lekin 2020 yil mart oyidan boshlab COVIT-19 pandemiyasi sababli turistik xarakatlar keskin darajada cheklanishi natijasida 2020 yildan tashriflar soni keskin tushib ketdi. 2016 yilda mamlakatimizga xorijiy turistlar tashrifi 2,070 ming, 2017 yilda 2,690 ming, 2018 yilda 5,346 ming, 2019 yilda 6,748 ming, 2020 yilda 1,504 ming, 2021 yilda

²⁵ Uzstat, Uzbektourism.uz va Tourism in Uzbekistan statistik to‘plami ma’lumotlari asosida jamlangan.

1,881 ming, 2022 yilda 5,232 ming, 2023 yilda 6,626 mingtani tashkil etganini ko‘rishimiz mumkin. Jadvalda ko‘rinib turganidek 2020 yilga nisbatan 2023 yilda o‘sishning yuqori darajasining vujudga kelishiga sabab, pandemiyadan keyin olib tashlangan cheklovlar natijasida turistlar xarakatining jonlanishi bo‘ldi. Turistlar pandemiyadan keyin yana avvalgidek o‘zlarini erkin tutgan holda (havsizlikni esdan chiqarmagan holda) sayohatlarga chiqa boshladi.

Mamlakatimizga tashrif buyurayotgan sayohlar va ular tashrif buyirayotgan mintaqalar bo‘yicha tahlillarni olib borishda va qaysi mintaqada qanday tadbirlarni amalga oshirishda chalkashliklarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida tashqi turizm bozorini ikkiga bo‘lib o‘rganishni vazifa qilib olish maqsadga muvofiq degan xulosaga keldik. Bularga birinchi turistik bozor MDH (Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi) va yaqin qo‘shni mamlakatlarni, ikkinchi turistik bozorga uzoq xorijiy mamlakatlarni kiritdik. Asosiy turistlarni birinchi turistik bozorga mansub davlatlar ta’minlab berayotganligini olib borilgan tahlilar ko‘rsatdi, bu esa bozorning katta imkoniyatlari borligidan dalolat bermoqda.

Bu mamlakatlardan tashrif buyurayotgan turistlar tashrifini yillar bo‘yicha ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak: Qozog‘istonidan 2018 yilda 2,293 ming, 2019 yilda 2,261 ming, 2020 yilda 424,1 ming, 2021 yilda 565,3 ming, 2022 yilda 1551,1 mingta; Tojikistondan 2018 yilda 1,095 ming, 2019 yil 1,474 ming, 2020 yil 337,5 ming, 2021 yilda 288,2 ming, 2022 yilda 1447,8 mingta; Qirg‘izistondan 2018 yilda 1,055 ming, 2019 yilda 1,455 ming, 2020 yilda 508,0 ming, 2021 yilda 652,2 ming, 2022 yilda 1356,8 mingta; Turkmanistondan 2018 yilda 169,9 ming, 2019 yilda 574,8 ming, 2020 yilda 60,6 ming, 2021 yilda 1,2 ming, 2022 yilda 6,0 mingta; Rossiya Federatsiyasidan 2018 yilda 371,6 ming, 2019 yilda 455,5 ming, 2020 yilda 81,6 ming, 2021 yilda 190,5 ming, 2022 yilda 567,8 mingta; Afg‘onistondan 2018 yilda 44,2 ming, 2019 yilda 62,6 mingta, 2020 yilda 20,0 mingta 2021 yilda 34,0 ming, 2022 yilda 3,0 mingta; Ukrainadan 2018 yilda 12,0 ming, 2019 yilda 14,0 ming, 2020 yilda 3,2 ming, 2021 yilda 8,7 ming, 2022 yilda 11,0 mingta; Ozarbayjondan 2018 yilda 10,5 ming, 2019 yilda 12,4 ming, 2020 yilda 2,2 ming, 2021 yilda 2,9 ming, 2022 yilda 10,4 mingta; Belarusiyadan 2018

yilda 5,6 ming, 2019 yilda 7,4 ming, 2020 yilda 1,6 ming, 2021 yilda 4,3 ming, 2022 yilda 13,7 mingta; Armanistondan 2018 yilda 1,4 ming, 2019 yilda 1,7 ming, 2020 yilda 0,3 ming, 2021 yilda 0,7 ming, 2022 yilda 1,4 mingta turist tashrif buyurgan.

MDH va yaqin qo'shni davlatlardan tashrif buyurgan turistlar sonining 2022 yilda 2021 yilga nisbatan o'sishi Qozog'istonidan 274,3 foizga, Tojikistondan 502,3 foizga, Qirg'izistondan 208,0 foizga, Turkmanistondan 500,0 foizga, Rossiya Federatsiyasidan 298,0 foizga, Afg'onistondan 200,0 foizga, Ukrainadan 126,4 foizga, Ozarbayjondan 358,6 foizga, Belarusiyadan 318,6 foizga, Armanistondan 200,0 foizga o'sganini ko'rishimiz mumkin²⁶.

2.1.2-jadval

MDH va yaqin qo'shni davlatlardan tashrif buyurgan turistlar²⁷
(birlik, ming kishi)

Davlatlar nomi	Yillar					
	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Qozog'iston	2,293	2,261	424,1	565,3	1551,1	1333,3
Tojikiston	1,095	1,474	337,5	288,2	1447,8	2155,2
Qirg'iziston	1,055	1,455	508,0	652,2	1356,8	1757,1
Turkmaniston	169,9	574,8	60,6	1,2	6,0	100,3
Rossiya Federatsiyasi	371,6	455,5	81,6	190,5	567,8	714,3
Ukraina	12,0	14,0	3,2	8,7	11,0	13,8
Ozarbayjon	10,5	12,4	2,2	2,9	10,4	14,7
Belarusiya	5,6	7,4	1,6	4,3	13,7	15,8
Armaniston	1,4	1,7	0,3	0,7	1,4	2,4
Umumiy tashrif buyurganlar	5346,2	6748,5	1504,1	1881,3	5232,8	6626,3

Ikkinci tashqi bozorga mansub bo'lган, ya'ni uzoq xorijiy davlatlar bozoridagi tendensiyani o'rganadigan bo'lsak, respublikamizga asosiy turistlarni yetkazib beruvchi o'nta mamlakat yetakchi bo'layotganligi aniqlandi. 2016-2023 yillardagi tahlillar ko'rsatishicha, uzoq xorijiy davlatlardan tashrif buyuruvchilarning asosiy qismi Xitoy, Koreya Respublikasi, Turkiya, Hindiston, Yaponiya, Italiya, Germaniya, Fransiya, AQSh va Buyuk Britaniyaga to'g'ri kelmoqda.

²⁶ www.uzbektourism.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan jamlangan.

²⁷www.uzbektourism.uz va Tourism in Uzbekistan statistik to'plami ma'lumotlari asosida jamlangan.

O‘zoq xorijiy davlatlar bo‘yicha turistlar tashrifini ko‘radigan bo‘lsak: Turkiyadan 2016 yilda 39,8 ming, 2017 yilda 48,4 ming, 2018 yilda 41,2 ming, 2019 yilda 63,5 ming, 2020 yilda 21,0 ming, 2021 yilda 44,2 ming, 2022 yilda 75,6 mingta; Xitoydan 2016 yilda 11,8 ming, 2017 yilda 15,1 ming, 2018 yilda 32,4 ming, 2019 yilda 54,2 ming, 2020 yilda 7,2 ming, 2021 yilda 3,6 ming, 2022 yilda 5,4 mingta; Koreya Respublikasidan 2016 yilda 25,3 ming, 2017 yilda 31,1 ming, 2018 yilda 27,3 ming, 2019 yilda 35,5 ming, 2020 yilda 6,7 ming, 2021 yilda 5,8 ming, 2022 yilda 20,0 mingta; Hindistondan 2016 yilda 17,9 ming, 2017 yilda 15,1 ming, 2018 yilda 21,0 ming, 2019 yilda 27,9 ming, 2020 yilda 4,7 ming, 2021 yilda 10,7 ming, 2022 yilda 16,8 mingta; Germaniyadan 2016 yilda 6,0 ming, 2017 yilda 7,2 ming, 2018 yilda 18,0 ming, 2019 yilda 27,6 ming, 2020 yilda 2,0 ming, 2021 yilda 6,9 ming, 2022 yilda 17,7 mingtani; YAponiyadan 2016 yilda 3,0 ming, 2017 yilda 4,1 ming, 2018 yilda 17,0 ming, 2019 yilda 25,0 ming, 2020 yilda 1,4 ming, 2021 yilda 1,0 ming, 2022 yilda 3,0 mingta; Italiyadan 2016 yilda 3,7 ming, 2017 yilda 4,8 ming, 2018 yilda 13,8 ming, 2019 yilda 20,3 ming, 2020 yilda 1,0 ming, 2021 yilda 2,1 ming, 2022 yilda 8,8 mingta; Fransiyadan 2016 yilda 4,7 ming, 2017 yilda 5,6 ming, 2018 yilda 13,6 ming, 2019 yilda 20,4 ming, 2020 yilda 1,0 ming, 2021 yilda 3,4 ming, 2022 yilda 11,0 mingta; Buyuk Britaniyadan 2018 yilda 8,0 ming, 2019 yilda 16,0 ming, 2020 yilda 1,4 ming, 2021 yilda 4,0 ming, 2022 yilda 10,5 mingta; AQShdan 2018 yilda 11,1 ming, 2019 yilda 17,1 ming, 2020 yilda 1,8 ming, 2021 yilda 5,4 ming, 2022 yilda 12,1 mingta turistlar tashrif buyurgan.

2.1.3-jadval

O‘zbekistonga uzoq xorijiy yetakchi 10ta davlatdan tashrif buyurgan turistlar²⁸ (ming kishi hisobida)

Davlatlar nomi	Yillar						
	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Turkiya	48,4	41,3	63,5	21,0	44,2	75,6	106,5
Xitoy	15,1	32,4	54,3	7,2	3,6	5,4	42,5
Koreya Respublikasi	31,1	27,3	35,5	6,7	5,8	20,0	37,1
Hindiston	15,1	21,0	27,9	4,7	10,7	16,8	45,5
Germaniya	7,2	18,0	27,6	2,0	6,9	17,7	29,6

²⁸www.uzbektourism.uz va Tourism in Uzbekistan statistik to‘plami ma’lumotlari asosida jamlangan.

Yaponiya	4,1	17,0	25,0	1,4	1,0	3,0	12,4
Italiya	4,8	13,8	20,3	1,0	2,1	8,8	25,6
Fransiya	5,6	13,6	20,4	1,0	3,4	11,0	18,6
Buyuk Britaniya	3,7	8,0	16,0	1,4	4,0	10,5	16,2
AQSh	8,4	11,1	17,1	1,8	5,4	13,1	23,0
Umumiy tashrif buyurganlar	2690,0	5346,2	6748,5	1504,1	1881,3	5232,8	6626,3

Uzoq xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurgan turistlarning 2022 yilda 2021 yilga nisbatan o'sishi Turkiyadan 171,0%ga, Xitoydan 150,0%ga, Koreya Respublikasidan 344,8%ga, Hindistondan 157,0%ga, Germaniyadan 256,5%ga, Yaponiyadan 300,0%ga, Italiyadan 419,0%ga, Fransiyadan 323,5%ga, Buyuk Britaniyadan 262,5%ga, AQSh 242,6%ga o'sganligi kuzatildi.

Turizmda turistlar tashrifining statistik tahlilda yana bir ahamiyat beriladigan tomoni borki, bu turistlarning yosh toifasidir. Turistlarning tashrifini yoshi bo'yicha guruhlarga bo'lib o'rganish, bizga infratuzilmani rivojlantirishni muvofiqlashtirib borish imkoniyatini beradi.

2.1.4-jadval

**O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijlik turistlarning yoshlari
kesimi ko'rsatkichlari²⁹.**

Yillar	0 dan 18 yoshgacha (ming kishi)/ulushi %da	19 dan 30 yoshgacha (ming kishi)/ulushi %da	31 dan 55 yoshgacha (ming kishi)/ulushi %da	55 yoshdan oshganlar (ming kishi)/ulushi %da	Jami (mln. kishi)
2020	140,7/9,4	285,8/19,0	787,5/52,4	290,2/19,3	1,5
2021	270,9/14,4	312,6/16,6	935,4/49,7	362,5/19,3	1,9
2022	723,3/13,8	846,5/16,2	2593,4/49,6	1069,6/20,4	5,2
2023	1064,6/16,0	1000,2/15,0	3192,8/48,2	1368,7/20,6	6,6

Respublikamizga tashrif buyurgan turistlarning yoshi bo'yicha olib borilgan tahlili ko'rsatishicha: 0-18 yoshgacha bo'lganlarning umumiyyadan ulushi 2020 yilda 9,4 %ni (140,7 mingta), 2021 yilda 14,4 %ni (270,9 mingta), 2022 yilda 13,8 %ni (723,3 mingta); 19-30 yoshgacha bo'lganlarning umumiyyadan ulushi 2020 yilda 19,0 %ni (285,8 mingta), 2021 yilda 16,6 %ni (312,6 mingta), 2022 yilda 16,2 %ni (846,5 mingta); 31-55 yoshgacha bo'lganlarning umumiyyadan ulushi 2020 yilda 52,4%ni (787,5 mingta), 2021 yilda 49,7 %ni (935,4 mingta), 2022 yilda 49,6 %ni

²⁹ www.uzbektourism.uz va Tourism in Uzbekistan statistik to'plami ma'lumotlari asosida jamlangan.

(2593,4 mingta); 55 yoshdan oshganlar umumiydan ulushi 2020 yilda 19,3 %ni (290,2 mingta), 2021 yilda 19,3 %ni (362,5 mingta), 2022 yilda 20,4%ni (1069,6 mingta) tashkil etgan. Respublikamizga tashrif buyurayotgan turistlarning asosiy qatlami tahlillar natijasi ko‘rsatishicha 31-55 yoshgacha (2020-2022 yillarda qarib 50%) bo‘lganlar tashkil qilmoqda, ya’ni o‘rta yoshlilar guruhi ko‘pchilikni tashkil etayotganligini ko‘rsatdi.

Bizning oldimizdagи vazifa infratuzilmani shunga moslashuvchan qilib rivojlantirish bilan birga 19-30 yoshgacha va 55 yoshdan oshganlarga (asosan 55 yoshdan oshgan turistik qatlam ko‘proq pul sarflashi aniqlangan) ko‘proq xizmat turlarini taklif etishimiz kerak. Lekin, 55 yoshdan oshgan turistlarga xizmat ko‘rsatishda alohida ehtiyyotkorlikni talab etadigan tomonlari ham bor. Bunda asosiy og‘irliklar GID ekskursovodlarga tushadi. Ularga ekskursiya davomida beriladigan har bir ma’lumotlar ilmiy tomondan isbotlangan bo‘lishi lozim. Shu bilan birgalikda turizm infratuzilmasining yuqoridagi ko‘rsatilgan tahlil natijalari bo‘yicha tayyorgarlik holatini tahlil qiladigan bo‘lsak, Qoraqalpog‘iston Respublikasida, Andijon, Qashqadaryo, Jizzax Sirdaryo, Navoiy viloyatlarida mehmonxonalar va undagi o‘rinlar soni etishmaydi. Qashqadaryo, Jizzax, Sirdaryo, Farg‘ona, Namangan, Andijon, Surxondaryo, Navoiy va Toshkent viloyatlarida turistik-rekreatsion resurslarga boy bo‘lishiga qaramasdan samarali foydalanilmayapti. Hozirda eng ommolashib borayotgan yoshlarga moslashtirilgan turistik xizmatlar deyarli o‘zlashtirilgani yo‘q.

Respublikamizning mintaqalaridagi 206 ta termal va shifobaxsh mineral suvli buloqlarning bor-yo‘g‘i 20 tasidan foydalanilmoqda. Bunga misol qilib, mamlakatimizni vodiyligi viloyatlari bilan bog‘laydigan asosiy yo‘llardan biri Qamchiq dovoni yaqinida joylashgan Arashan ko‘llarini olishimiz mumkin. Ko‘lning suvi ekspertlarning tekshirishi va xulosalariga ko‘ra doimiy ravishda qishin-yozin +36⁰ xaroratda bo‘lib, chet ellardagi mashhur kurortlardan hech ham qolishmaydi. Bunday joylardan yana biri Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagi Qorao‘zak, Taxtako‘pir va Chimboyda er osti termal buloqlardan +50⁰

+70⁰ issiqlikka teng bo‘lgan suvdan samarali foydalanish uchun uning yonida sanatoriya-kurortlarni tashkil qilish lozim.

Mintaqalarimizdagi turistik destinatsiyalarning infratuzilmasini yanada rivojlantirish uchun yirik loyihalarni amalga oshrishimiz va imkon drajasida investorlarning e’tiborini jalg qilishimiz kerak. Masalan, Namangan shahridagi “Afsonalar vodiysi”, Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumanidagi “Amirsoy” turistik markazlariga kuniga minglab mahalliy va xorijiy turistlar tashrif buyurmoqda. Yaqin kunlar ichida bu kabi yirik loyihalarga xorijiy investorlarning yordami bilan buniyod etilayotgan Andijon viloyatidagi Xonobod ham qo’shiladi. Bundan tashqari Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida tarixiy-madaniy va arxeologik yodgorliklar joylashgan dunyodagi eng chuqur g’orlardan biri sanaladigan Boybulloqdan topilgan qadimgi neandertal odam skaleti, eng qadimiylar madaniyat yodgorliklaridan biri bo‘lgan Uzundara qal’asiga hamda Teshiktosh g’orlariga turistlarning e’tiborini qaratishimiz lozim. Shu bilan birgalikda zamonaviy infratuzilmani ham rivojlantirish uchun imkoniyatlardan katta bo‘lib, tumandagi Zavboshi hududida mehmonxona uylar, kempinglar “dor yo‘li”ni qurish orqali ko‘plab turistlarni jalg qilsa bo‘ladi. Bu kabi keng imkoniyatlardan Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumanidagi Tovoqsoyda, Ohangaron tumanidagi Ovjasoyda, Angren tumanidagi Yangiobod, Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanidagi Mirakida, Namangan viloyati Yangiyo‘rg‘on tumanidagi Nanayda, Pop tumanidagi Chodakda, Jizzax viloyati Zomin tumanidagi O‘riklisoyda ham bor. Shuningdek, Toshkent viloyatida joylashgan Charvoqdagidek cho‘milish va soglomlashtirish markazlarini Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi Ashshiko‘l, Buxoro viloyatidagi Zikriko‘l, Jizzax viloyatidagi Aydarko‘l va Tuzkon ko‘lida ham tashkil etsa bo‘ladi.

“O‘zbekiston turizm magistrali” chora-tadbirlar dasturi asosida hozirgi vaqtida ishlab chiqilgan va respublikamizning 31 ta shahar va tumanlar hududidan o‘tadigan yo‘llar atrofida avtomabillarga texnik xizmat ko‘rsatish shaxobchalari, avtoturargohlar, qisqa muddatli dam olish kempinglari, milliy taomlar taqdim

etiladigan ovqatlanish joylari, avtomabillarga yoqilg‘i quyish shoxobchalari kabi yuqori sifatli xizmatlarni taqdim etadigan “Karvonsaroy”larni barpo etilmoqda.

Turizmi infratuzilmasi rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan muhim omillardan yana biri, respublikamizga tashrif buyurayotgan turistlarning mavsumiylikka qaratilganligi darajasidir. Juhonning rivojlangan davlatlarda turizm infratuzilmasi puhta rejalar asosida mavsumiylikka moslashtirilgan bo‘lib, kelayotgan turistlar oqimini boshqarishda katta muvofaqqiyatlarga erishmoqda. Mavsumlar o‘rtasidagi tashriflar qanchalik bir-birga yaqinlashib borsa infratuzilma rivojlanishi ham barqarorlashib boradi.

2.2. Turizm infratuzilmasi tarkibiy qismlari rivojlanishida

innovatsiyalarning qo‘llanilishi holati

Birlashgan Millatlar Taskiloti Butunjahon Turizm Tashkiloti taqdim etgan (UNWTO) tahliliy ma’lumotlarga ko‘ra xalqaro sayohatlar soni 2020 yilda o‘tgan yillarga nisbatan 90%ga, sohadagi ish o‘rinlari 80 mln.taga qisqarishi natijasida infratuzilmaning jami yo‘qotishlar 1 trln. AQSh dollaridan ham oshib ketgan. Bu turizm sohasining chuqur inqirozini keltirib chiqardi. 2020 yilda kutilmaganda yuzaga kelgan inqiroz respublikamiz turizmi faoliyatiga ham o‘z ta’sirni ko‘rsatdi. Respublikamiz 2020 yil 16 martidan tashqi va ichki turistlar uchun butunlay yopilgan edi. Mamlakatimizda turistik faoliyat olib borayotgan 1500dan ortiq turoperator, 1200ta mehmonxona o‘z faoliyatini to‘xtatishi orqali infratuzilmaga katta zarar etishi orqali turistik ob’ektlardagi ishchi xodimlar, GIDlar, milliy hunarmandlar, sihatgoh va ziyoratgohlar, transport, restoran va umumiylar ovqatlanirish korxonalari va boshqa shu qatori qo‘srimcha xizmat ko‘rsatish korxonalari bilan qo‘sib hisoblaganda 270 mingdan ortiq aholimizning daromadlariga salbiy ta’sir ko‘rsatdi³⁰.

Dunyodagi ko‘pgina mamlakatlar kabi pandemianing oqibatlarini respublikamizda ham yumshatish maqsadida turizm sohasida faoliyat olib

³⁰ www.uzbektourism.uz ma’lumotlari asosida muallif tomonidan jamlangan.

borayotgan jismoniy va yuridik shaxslarga qator engilliklar taqdim etildi. Jumladan, 1750ta sub'ektga mol-mulk, yer va ijtimoiy soliqlardan 60 mld. so'mga yaqin imtiyoz taqdim etildi. Taqdim qilingan imtiyozlar va preferensiyalar pandemianing ta'sir doirasiga qarab shu kungacha ba'zi bir yo'nalishlarda saqlab qolinmoqda. Bu kabi berilayotgan imtiyozlar natijasida respublikamiz turizmi infratuzilmasi qisqa vaqtda o'zini tiklab bormoqda.

Bizning tadiqotimizning asosiy vazifalaridan biri pandemianing turizm infratuzilmasi rivojlanishiga ko'rsatgan salbiy ta'sirini tezda bartaraf etishda innovatsiyalarning imkoniyatlaridan foydalanish yo'llarini ishlab chiqishda asosiy e'tiborni nimalarga qaratilishini o'rganish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Shu bilan birgalikda turizm infratuzilmasini hozirgi tez o'zgaruvchan sharoitlarga moslashtirish va unda innovatsiyalarni tezlikda joriy qilish alohida ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Lekin, buni amalga oshirish juda murakkab jarayonlar va bosqichlarni bosib o'tishga to'g'ri keladi. Bunda bir qator hal qilinishi kerak bo'lgan muammolar yuzaga chiqadi. Bundan kelib chiqqan holda infratuzilmani va uning tarkibiy qismlarini takomillashtirish turistlarning o'sib borayotgan talabini qondirishning yangicha yondoshuvi talab qilinadi.

Respublikamiz turizmi ham iqtisodiyotning strategik tarmog'i sifatida iqtisodiy rivojlanishda boshqa tarmoqlar bilan muvofiq holda rivojlanishib borishi lozim. Shuning uchun turizm iqtisodiy rivojlanishning yagona modeliga bog'lanishi kerak. Turizm infratuzilmasini buning uchun yagona modelga integratsiyasini ta'minlashda quyidagi omilarni hal qilishimiz lozim:

- yagona milliy iqtisodiy modelga turizm sohasini birlashishini ta'minlash;
- sohani yanada rivojlantirish maqsadida turistik faoliyatning barcha turlari uchun tashkiliy-huquqiy va me'yoriy normalarni takomillashtirish;
- tarixiy-madaniy va me'moriy yodgorliklarni asl ko'rinishida saqlab qolish, rekreatsion-sog'lomlashtirish resurslaridan maqsadli foydalanish;

- zamonaviy turistik ob'ektlarni bunyod etishga xorijiy sarmoyalarni jalg etish, shu singari xalqaro standartlarga mavjud ob'ektlar holatini moslashtirish uchun mablag'larni jalg etish;
- xizmat turlarining yangi shakllarini yetakchi xorijiy turoperatorlar bilan hamkorlikda ishlab chiqish;
- xalqaro va ichki marshrutlarni tashkil qilishda va ishlab chiqishda xalqaro bozordagi talab va taklifni tahlil qilgan holda faol ishtirot etish;
- xorijiy davlatlarda xizmatlarni va milliy turmahsulotlarni targ'ib qilish orqali 200 dan ortiq mamlakatlar bilan faol raqobat olib borish;
- respublikamizda sohaga yetuk malakali mutaxassiskarni tayyorlab beruvchi oliy o'quv yurtlarida biznes-tahlilchilar, marketologlar, boshqaruvchilar va ishbilarmon-tadbirkorlarni o'qitishni takomillashtirishdan iboratdir.

Yuqoridagi amalga oshiriladigan ishlarni tezlashtirishda infratuzilmaning imkoniyatlarning yuqoriligi sohani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin:

- respublikamiz hududlarida arxelogik, ekologik, tarixiy-madaniy va diniy qadamjolarning ko'pligi;
- xalqimizning betakror va o'ziga xos bo'lgan milliy ananalari va mehmondo'stligi;
- mamalakatimizning flora va faunaning xilma-xilligi va boy tabiat;
- avtomagistrallar, havo yo'llar, temir yo'llar infratuzilmasining yetarli darajada shakllanganligi;
- mamlakatimizning Yevropa va Osiyo qit'alari chorrahasida qulay geografik mintaqada ("Buyuk Ipak Yo'li" markazida) joylashganligi;
- respublikamizda musulmon va boshqa dinga e'tiqod qiluvchilar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan muqaddas ziyoratgohlarning ko'pligi.

Mamlakatimizning turizm infratuzilmasini rivojlantirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni talab etadigan va tegishlisha chora-tadbirlar orqali xalqaro bozorda obro'sini ko'tarish omillar ham bor. Bular quyidagicha:

- turistik faoliyat olib borayotgan sub'ektlarning o'zaro hamkorlikda faoliyat olib bormasligi;
- xorijlik va mahalliy tashrif buyuruvchi sayohlar uchun aviachiptalar narxining qimmatligi;
- joylashtirish vositalari va mehmonxonalarda tunash narxlarining o'rtacha darajadan yuqoriligidir.

Yuqoridagi ko'rيلган omillarning echimini topish uchun sohaning oldidagi asosiy vazifalardan biri infratuzilmani rivojlantirish va takomillashtirishda asosiy e'tibor nimalarga qaratilishi dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Shu bilan birgalikda infratuzilmasi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan tarmoqlarni tahlil qilish katta mashtabni olishini hisobga olib holda, asosiy turistik xizmatlar ko'rsatadigan (joylashtirish vositalari, umumiyligi ovqatlantirish transport va turistik faoliyat olib boruvchi sub'ektlar) tarmoqlarni tahlil qilamiz.

2.2.1-jadval

Respublikamizdagi turistlarga xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlar soni va ular tomonidan xizmat ko'rsatitgan turistlar³¹

Ko'rsatkichlar nomi	Yillar						
	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Turistlarga xizmat ko'rsatgan sub'ektlar soni, birlik	749	1579	2254	2162	3883	4147	5276
Tashrif buyurgan turistlar, ming kishi	2690,1	5346,2	6748,5	1504,1	1881,3	5232,8	6626,3

Mamlakatimizda turistik xizmatlar ko'rsatayotgan sub'ektlar soni yaratilayotgan imkoniyatlar natijasida yildan-yilga o'sib bormoqda. Ularning soni 2017 yilda 749 ta bo'lgan bo'lsa, 2018 yilda 1579 tani, 2019 yilda 2254 tani, 2020 yilda 2162 tani, 2021 yilda 3883 tani, 2022 yilda 4147 tani, 2023 yilda 5276 tani tashkil etgan.

Turistik faoliyat ko'rsatayotgan kompaniya va tashkilotlarning tomonidan 2017 yilda 2,690 ming, 2018 yilda 5,346 ming, 2019 yilda 6,748 ming, 2020 yilda 1,504 ming, 2021 yilda 1,881 ming, 2022 yilda 5,232 ming, 2023 yilda 6,626 mingta xorijiy tashrif buyuruvchilarga xizmat ko'rsatilgan.

³¹ O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan jamlandi.

Hozirgi vaqtida turizm infratuzilmasi tez o‘zgaruvchan holatda bo‘lishiga innovatsion-texnologiyalar sohada keng qo‘llanishi ta’siri natijasidir.

Turizmda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash jarayonlarini takomillashtirish yo‘nalishlari

Tashkiliy innovatsiyalar:

- sohada raqobatdosh subyektlarni tashkil etish, ijtimoiy media platformalarini yagona tizimga birlashtirish asosida yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishga yordam berish;
- yangi texnologiyalarni o‘zlashtirishda xodimlarni onlayn ta’lim platformalari asosida o’qitish, malakasini oshirish, qayta tayyorlash va rag’batlanirish tizimini joriy qilish;
- iqtisodiy va moliyaviy faoliyatni yuritishda (moliyaviy barqarorligini ta’minlashda) hisobotlarning yagona shakllarini joriy qilish.

Marketing innovatsiyalar:

- turistlarning o’sib borayotgan ehtiyojlarini qondirishda yangi texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish;
- qamrab olinmagan yangi mintaqalardagi turistlarni jalb qilishda yangi ko’rinishdagi marketingni qo’llash.

Davriy innovatsiyalar (mahsulot innovatsiyalari):

- yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish orqali turistik mahsulotlarning iste’mol xususiyatlarini o’zgartirish;
- yangi texnologiyalarni o‘zlashtirish orqali turistik mahsulotlarning joylashishiga va raqobatdosh ustunliklariga erishish.

2.2.1-chizma. Turizmda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash jarayonlarini takomillashtirish yo‘nalishlari³².

Shu bilan birgalikda innovatsiyalarni turizm infratuzilmasida qo‘llashning quyidagi asosiy yo‘nalishlarini ham ko‘rishimiz mumkin:

- mehmonxona va restoran xizmatlarini ko‘rsatishda, yangi turdagি turmahsulotlarni ishlab chiqishda;
- yangi texnologiyalardan milliy turistik mahsulotlarni ishlab chiqishda keng foydalanishda;
- mintaqalarda turistik resurslarni o‘zlashtirishda avval foydalanimagan innovatsiyalarni qo‘llashda va boshqalar.

³² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Mehmonxona biznesida innovatsiyalarni yorqin qo'llanishini ko'rshimiz mumkin. Innovatsion texnologiyalarning eng so'nggi turlari mehmonxona biznesida qo'llanilmoqda. Turistlarga xizmatlarni ko'rsatishda shuning uchun asosiy vositalaridan biri bo'lgan mehmonxonalar va joylashtirish vositalarida innovatsiyalarni qo'llash maqsadga erishishning eng aosiy yo'naliishi hisoblanadi. Shunday ekan demak, turizm infratuzilmasining asosiy tarmog'i mehmonxonalar bo'yicha tahlillar olib borishimiz lozim. Respublikamizda pandemiya vaqtida soha chuqur inqirozga tushib qolganiga qaramasdan yagona tarmoq mehmonxonalar soni ortib bordi. Bunda mehmonxona sanoatiga jalb qilingan xorijiy va mahalliy investitsiyalarning barqarorligi sabab bo'ldi. Respublikamizda o'tgan 2017-yilda 772 ta, 2018-yilda 914 ta, 2019-yilda 1188 ta, 2020-yilda 1308 ta, 2021-yilda 1442 ta, 2022-yilda 1579 ta zamonaviy texnologiyalar keng joriy qilingan mehmonxonalar faoliyat olib borgan. Mehmonxonalar soni ortib borishiga mos ravishda uning nomerlari (xonalari) ham o'sib 2017 yilda 19,0 ming, 2018 yilda 20,2 ming, 2019 yilda 26,1 ming, 2020 yilda 29,2 ming, 2021 yilda 33411 ming, 2022 yilda 37,0 mingtaga etdi. Yaratilgan nomerlarda (xonalarda) 2017 yilda 39,0 ming, 2018 yilda 41,2 ming, 2019 yilda 53,4 ming, 2020 yilda 61,5 ming, 2021 yilda 71,3 ming, 2022 yilda 80,3 mingta o'rinalar (joylar) turistlarni qabul qilishga tayyorlandi³³.

2.2.2-jadval

O'zbekistonidagi faoliyat olib borayotgan mehmonxonalar va ulardagi nomerlarning ko'rsatkichlari³⁴ (soni, birlik)

Ko'rsatkichlar nomi	Йиллар						
	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Mehmonxonalar	681	702	720	787	799	935	1018
Nomerlar/xonalar	17639	18557	19671	21909	23211	28628	33205
O'rinalar/joylar	34580	36601	37914	42116	43683	55544	64214

Shu bilan birgalikda respublikamizda oxirgi yillarda mehmon uylar soni ham sezilarli daraja o'sib borayotganligini ko'rshimiz mumkin. 2018 yilda 106 ta, 2023 yilda 3458 ta mehmon uylar o'z faoliyatini boshlagan. Ulardagi o'rinalar (joylar)

³³ Tourism in Uzbekistan statistik to'plami ma'lumotlari.

³⁴ Uzbektourism.uz va Tourism in Uzbekistan statistik to'plami ma'lumotlari.

soni 2018 yilda 841 ta bo‘lgan bo‘lsa, 2023 yilda 30738 tani tashkil qilib, bir yilda o‘rtacha 8 barovar o‘sishga erishilgan³⁵.

Turizmi rivojlangan davlatlar AQSh, Angliya, Fransiya, Ispaniya, Rossiyada turistlarni jalg qiladigan ob’ektlarning asosiyalaridan biri muzeylardir. Bu davlatlarda millionlab turistlarni jalg qilishga muzeylar faoliyati samarali yo‘lga qo‘yish orqali erishilmoqda. Shu bois, mamlakatimizdagi muzeylar va ulardagi eksponatlar holatini o‘rganib, ularning faoliyatini xalqaro standartlar darajasida tashkil etish va xorijiy mashhur (Luvr, Metropoliten, Ermitaj) muzeylar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishni amalga oshirish lozim. Respublikamizdagi faoliyat olib borayotgan muzeylarning ko‘rgazma maydonlari talab darajasidagidek katta emasligi natijasida mavjud eksponatlarning atigi 1%ni namoyishlarga qo‘yilmoqda. Yurtimizning qadimiyligi boy tarixidan so‘zlovchi Axsken, Fayyoztepa, Kampirtepa, shu qatori 4500 dan ortiq arxeologiya yodgorliklarini asrab qolish va ochiq osmon ostidagi muzeylarga aylantirish lozim.

Turistlarning harakatlanishini ta’minlaydigan eng muhim vositalardan biri transport infratuzilmasisidir. Bugungi kunda respublikamizda transport xarajatlarining nisbatan yuqori bo‘lib turishi xorijiy turistlarni jalg qilishdagi muammolardan biridir. Bu muammolarni bartaraf etish borasida bir qator chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan bo‘lib, ular ichida eng ahamiyatlisidan biri Osiyo taraqqiyot banki ishtirokidagi “Pop-Namangan-Andijon” temir yo‘l linyasini to‘liq elektrlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Bu liniya keyinchalik butun vodiylar viloyatlarini qamrab olib, mahalliy va xorijlik tashrif buyuruvchilar uchun katta qulayliklar yaratib beradi. Ichki turizmda temir yo‘lning ahamiyati juda katta bo‘lib, tezyurar poezdlar sonini muntazam ravishda oshirib borish rejasi tasdiqlangan. Yaqin yillar ichida yuqori tezlikda xarakatlanuvchi poezdlarni Toshkentdan Urganchgacha yetkazish maqsad qilingan. Bunda temir yo‘llarni elektrlashtirish bo‘yicha bir nrecha o‘n yillardan beri Xitoyning Eksimbanki bilan “O‘zbekiston temir yo‘llari” faol hamkorlik olib bormoqda. Bugungi kungacha “O‘zbekiston temir yo‘llari” Xitoy Eksimbanki ishtirokidagi bir nechta yirik

³⁵Tourism in Uzbekistan statistik to‘plami ma’lumotlari.

loyihalarni muvaffaqiyatli amalga oshirgan. Hozirda respublikamiz temir yo'llarining umumiy uzunligi 7395,1 km bo'lib, shundan elektrlashtirilgan qismining uzunligi 3528,1 km.ni tashkil qiladi. Turistlar qulayliklar yaratish maqsadida 2011 yildan boshlab "Afrosiyob" tezyurar poezdlarini harid qilish va yo'naliishlarga qo'yish ishlari boshlangan. Hozirda bu poezdlardan Toshkent-Samarqand-Toshkent, Toshkent-Buxoro-Toshkent, Toshkent-Qarshi-Toshkent yo'naliishlarida foydalanilmoqda. "Qamchiq" davonida ishga tushirilgan temir yo'l tuneli orqali Toshkent-Andijon, Andijon-Buxoro, Andijon-Urganch yo'naliishlarida ham tezyurar poezdlar qatnavi yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimizga tashrif buyurayotgan uzoq xorijlik turistlarning deyarli 100% havo kemalari xizmatidan foydalanadi. Shu sababdan respublikamizda havo transportini infratuzilmasini rivojlantirish usuvor masala bo'lishi kerak. Bugungi kunda respublikamiz havo transportiga hususiy sektor vakillari ham kirib kelmoqda. Bu yaqin yillar ichida havo transportida erkin raqobatni ta'minlashi lozim. Hozirda respublikamizdan dunyoning 40 dan ortiq shaharlarga mutazam aviaqatnovlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizning yirik shaharlari Toshkent, Nukus, Samarqand, Buxoro, Urganch, Termiz, Qarshi, Namangan, Andijon, Farg'ona va Navoiyda xalqaro standartlarga javob beradigan aeroportlar faoliyat ko'rsatmoqda. Turistlarga qulay sharoitlar yaratish va sifatli xizmat ko'rsatish maqsadida havo kemalarimiz parki "Airbus-A310", "Airbus-A320-200", "Boeing-757-200", "Boeing-767", "Boeing 767-300 ER", "Boeing 787-8 Dreanliner" kabi zamonaviy samolyotlar bilan to'ldirildi.

Respublikamizda havo tarnsportini rivojlantirish borasida olib borilayogan tashkiliy chora-tadbirlarga qaramasdan xalqaro va mahalliy yo'naliishlarda "loukoster"lar soni ko'paymayapti. Turistik mintaqqa yoki turitsik distenatsiyaning turistlar diqqatini o'ziga tortadigan madaniy-tarixiy obidalari, go'zal tabiat, lanshafti, plyaji, uning diqqatga sazovar joylari ko'p bo'lsada rivojlanish ko'p jihatdan habsiz va qulay transport infratuzilmasiga bog'liq bo'ladi. Shu bilan birgalikda turistlar transportdan foydalanishda muammolarga duch keladigan bo'lsa, ular yo'naliishlarini tezda o'zgartirishi va turistik destinatsiyaning o'z-

o‘zidan muammolar ichida qolishiga olib keladi. Transport infratuzilmasi yaxshi rivojlangan destinatsiyalarda turistlar harakatlanishi uchun qulay bo‘lishi bilan birgalikda, mazkur hududda tadbirkorlik rivojlanishiga ham turtki bo‘ladi. Natijada hududda aholining bandligi ta’minlashi balan birga ularning daromadlari ham ortib boradi.

Buni kengroq oladigan bo‘lsak, mintaqaning barqaror rivojlanishi infratuzilmaning takomillashib borishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ma’lum bir hududdagi amalga oshiriladigan qurilish, xizmat ko‘rsatishning rivojlanishiga infratuzilma bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu singari, turistlarning hududga tashrifini yaxshilashning omili bo‘ladi.

Hozirgi kundagi dunyodagi eng katta muammolardan biri global isishga ham turizm qaysidir ma’noda hissa qo‘shmoqda. Turizmnинг global isishga qo‘shayotgan hissasining deyarli 80%и sayohlarning mehmonxona, ovqatlanish, transport xizmatlari bilan bog‘liqdir. Yaqin yillarda turizm bundanda tez rivojlanish bosqichiga o‘tishini his qiladigan bo‘lsak, global isishning oldini olish uchun chora-tadbirlarni amalga oshirish talab etiladi. Transportdan foydalanishning me’yorlaridan oshib ketishi katta harajatlarga olib kelishi bilan birga, shaharlarda tirbandlikni, baxtsiz transport hodislari ko‘payishini, qishloq va maxsus qo‘riqlanadigan hududlarda er zichlashishi, tabiatni ifloslantirishi, kuchli shovqinlarni yuzaga keltirishi mumkin. Lekin, shu bilan birga transport barcha sohalar kabi turizmda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, katta daromad keltiradigan vosita bo‘lib qolaveradi. Shu sababli turistlarning harakatlanish vositalariga bo‘lgan talabini qondirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanib yaratilgan transportdan foydalanishni tezlashtirish lozim. Rivojlangan mamlakatlarda turistlarning 80%dan ortig‘i asosiy transport turi sifatida avtomabillardan foydalanmoqda. Bu tendensiya yildan-yilga o‘sib bormoqda. Sababi, so‘nggi yillarda turistlarning sayohatlarga asosan shaxsiy avtomobillarda chiqishga ehtiyoj o‘sib bormoqda. Bu o‘z navbatida, ayniqsa tabiat qo‘ynida dam oluvchilar tomonidan foydalanayotgan avtomobilarning ekologiyaga zarari ortib bormoqda. Hozirgi vaqtgacha ko‘proq daromad olish maqsadida hududlarda

turistlarning avtomobil transportidan foydalanishini ma'lum miqdorda cheklashga hech kim jiddiy e'tiborni qaratmayapti. Yirik shaharlar va turistik destinatsiyalarda avtomobil transportidan chiqayotgan is gazlari atmosferaning asosiy ifloslanishga sabab bo'lmoqda. Bunga misol qilib, Yevropaning turizmi rivojlangan (Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lgan) 27ta davlatdan 23 tasida havoning ifloslanishi belgilangan me'yorlardan ortib ketmoqda. Natijada Yevropaning 130dan ortiq shaharlarida havoni ifloslantiruvchi moddlar NO₂ (azot dioksidi) va PM10 (zarrachalar) ortib bormoqda. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki oxirgi 2-3 yilda Toshkent shahri ham dunyodagi havosi eng ifloslangan 10talik shaharlar ro'yhatiga kirib qolgan. Bu muammolarning yuzaga chiqishi hududga turistlarning tashrif buyurishida to'sqinlik qiladi. Bir qator rivojlangan davlatlarda yoqilg'i solig'i avtomobil transportidan chiqayotgan is gazlarini cheklash siyosatini olib boradi. Bu kabi soliqlar ham keyingi yillarda avtomobillardan foydalanishni kamaytirish o'rniga ortib bormoqda. Xorijlik tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasiga ko'ra turistlarning jamoat transportlaridan (mikroavtobus, avtobus) foydalanishini rag'batlantirish orqali shaxsiy transport turlaridan kamroq foydalanishga olib kelishi bo'yicha xulosalar bergen. Shaxsiy avtomobillardan foydalanish ish va xizmat safarlari uchun samaradorligi yuqori bo'lishi mumkin, lekin turistik sayohatlarda samara bermaydi. Ayniqsa, ekologik yo'nalishlarda sayohatlarga chiqqan turistlar uchun alohida maxsus transportlardan foydalanish tavsiya etiladi. Shuning uchun, sohada asosiy e'tiborni muayyan transport turlaridan foydalanishni imkon darajada kamaytirish, ekologik jihatdan samarali (elektrobus, elektromobillar) qulay bo'lgan transport turiga qaratilishi lozim.

2.2.3-jadval

Turistlarning xarakatlanishi turlari va masofalari bo'yicha transport infratuzilmasini moslashtirish³⁶

Xarakatlanish masofalari	Xarakatlanish turlari		
	Havoda	Quruqlikda	Dengiz, ko'l va daryolarda
Uzoq masofalarga	Samolyotlar	Tez yurar poezdlar	Kuriz kemalar
O'rta masofalarga	Vertalyotlar	Avtobuslar, avtomobillar	O'rta xajmdagi kemalar, matorli qayiqlar

³⁶ Muallif ishlanmasi.

Yaqin masofalarga	Dentaplan, havo sharlari	Piyoda, ot, eshak va aravalarda	Eshkakli qayiqlar
-------------------	--------------------------	---------------------------------	-------------------

Respublikamizga tashrif buyurayotgan turistlarga transport xizmatlarini ko‘rsatishda yuqoridagi jadvalni ishlab chiqishdan asosiy maqsad infratuzilmaning imkoniyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish kerak.

Xammamizga ma’lumki bugungi kunda “Toshkent metropoliteni” xorijlik turistlarning qiziqishlariga sabab bo‘layotgan transport ob’ektlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun xorijlik sayohlar uchun metropolitendagi ma’lumotlarni hozirdagi o‘zbek va rus tillari bilan birgalikda ingliz tilida ham taqdim etish lozim.

Xalqaro va ichki turistlarning o‘sib borayotgan talablarini qondirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Turizm mahallalarida muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida mamlakatimizda turizm qishloqlari infratuzilmasini yaxshilashga 205 mlrd. so‘m ajratilishi belgilandi. Qabul qilingan chora-tadbirlar rejasiga asosan turizm mahallalarida ko‘priklarni qurish va ta’mirlash ishlarini amalga oshirish, elektr ta’minotini yaxshilash, ichki avtomobil yo‘llari hamda aloqa va axborotlashtirish sohasini rivojlantirish bo‘yicha 2024-2025 yillar uchun 205 milliard so‘m mablag‘ ajratilishi belgilandi.

Bu imkoniyatlarni to‘g‘ri yo‘naltirish orqali harakatlanish imkoniyati cheklangan turistlar uchun ham sharoitlar yaratish maqsadida respublikamizda to‘siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish ishlari amalga oshirilmoqda. Respublikamizda to‘siqsiz turizmni rivojlantirish uchun infratuzilmani moslashtirish, turistlarga qulay shart-sharoitlar kerak.

Bu borada mamlakatimizdagi asosiy turistik yo‘nalishlar hisoblangan hududlarda 2023 yildan boshlab “To‘siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish dasturi”ni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bunda: birinchi navbatda 2023 yilda Buxoro, Xorazm, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida; 2024 yildan Jizzax, Andijon, Farg‘ona, Namangan viloyatlarida; 2025 yildan boshlab Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Sirdaryo, Surxondaryo va Navoiy viloyatlarida va

oxirgi bosqichda 2026 yildan Toshkent shahri va Toshkent viloyatida infratuzilmani rivojlantirish uchun moliyalashtirishni davlat byudjeti va homiylik mablag‘lari va grantlar orqali amalga oshirish belgilangan.

2.3. Mintaqalarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish orqali mahalliy aholining daromadlarini oshirish

O‘zbekiston YaIMning hajmi 2023 yilda 100 mlrd. AQSh dollaridan oshib ketdi. Xususan, xizmat ko‘rsatish sohasining yillik o‘sishi 6,8 foizni tashkil etib, YaIM o‘sishiga qo‘sghan hissasi 2,6%ni tashkil etgan. 2023 yilda respublika iste’mol sektorida inflyasiya darajasi 8,8 foizni tashkil etgan³⁷.

Bozor iqtisodiyotining o‘ziga xos bo‘lgan asosiy qoidalardan biri – mamlakatning milliy daromadida iste’mol (xizmatlar) hissasining ortib borishidir. Bu milliy daromadlarning ko‘proq qismini aholining turmush darajasi farovonligiga va ijtimoiy himoyasiga qaratilishidir. Buni quyidagi holatlarda ko‘rib o‘tishimiz mumkin:

-birinchidan, iqtisodiyotga innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishda milliy daromadning ma’lum qismini jamg‘argan holda (masalan, 20-25%) iqtisodiy o‘sishning barqarorligini ta’minlash mumkin, chunki, innovatsion texnologiyalarni qo‘llashda investitsiyalar moddiylashib, mehnat samaradorligining ortib borishini ta’minlaydi, bu o‘z navbatida samaradorlikni ortirib iste’mol va xizmatlar kengayishiga olib keladi;

-ikkinchidan, iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashda inson omilining ahamiyati ortib boradi, ishchi kuchi malakasini oshirish innovatsion texnologiyalarni joriy qilishga olib keladi, chunki innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish malakali ishchi kuchini talab etadi;

-uchinchidan, ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni jadal joriy qilish orqali mamlakat aholisining ortib borayotgan talabi va ehtiyojlarini qondirish bilan birga ularning farovonligini oshirishda asosiy omil bo‘ladi. Bu o‘z navbatida iste’mol va xizmatlarni kengaytirib borishni taqozo etadi.

³⁷ www. stat.uz statistika agentligining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan jamlandi.

Mamlakat aholisining turmush darajasining ko‘tarilib borishi, aholi pul xarajatlarining nooziq-ovqat mahsulotlariga tobora ko‘proq qismi sarflanishi natijasida, ulardagi ortiqcha mablag‘larning bir qismi sayohatlarga yo‘naltiriladi.

Turistlarga xizmat ko‘rsatishni yuqori darajaga chiqarish orqali, nisbatan daromadlari kam bo‘lgan mintaqalardagi aholining mablag‘larni boshqarish va farovonligini oshirish mumkin bo‘ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda respublikamiz aholisining o‘rtacha oylik daromadlari nisbatan kam bo‘lgan mintaqalarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish orqali mahalliy aholining daromadlarini ko‘paytirish mumkin. Respublikamiz mintaqalarida turizm infratuzilmasini rivojlantirish orqali mahalliy aholining daromadlarini oshirish bo‘yicha izlanishlar shu kungacha amalga oshirilmaganligi uchun bir qator tadqiqotlarni olib borishga to‘g‘ri keladi. Olib borilgan kuzatishlar ko‘rsatishicha 2018 yilda O‘zbekistondagi o‘rtacha oylik nominal ish haqi 1822700 so‘m, 2019 yilda 2324600 so‘m, 2020 yilda 2673300 so‘m, 2021 yilda 3214800 so‘m, 2022 yilda 3892400 so‘m, 2023 yilda 4551400 so‘mni tashkil etib, 2022 yilga nisbatan o‘sish sur’ati 2023 yilda 17,2 foizni tashkil qilgan (2.3.1-jadval).

2.3.1-jadval

O‘zbekistonda o‘rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi³⁸

Yilar	O‘rtacha oylik ish haqqi (ming so‘m)	O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish (%da)
2018	1822,7	25,0
2019	2324,6	27,5
2020	2673,3	15,0
2021	3214,8	20,3
2022	3892,4	21,1
2023	4551,4	17,2

Bu ko‘rsatkichlarni hududlar kesimida ko‘rib o‘tadigan bo‘lsak, 2023 yilda o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori miqdori Toshkent shahrida 7453400 so‘m, Navoiy viloyatida 5887800 so‘m, Toshkent viloyatida 4526000 so‘mni tashkil

³⁸ www. stat.uz statistika agentligi ma’lumotlari.

qilgan bo‘lsa, eng kam miqdorlar Farg‘ona viloyatida 3444900 so‘m, Namangan viloyatida 3310600 so‘m, Samarqand viloyatida 3408400 so‘m qayd etilgan. Respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkich 2023 yilda 4551400 so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 17,2%ga o‘sishga erishilgan (2.3.2-jadval).

2.3.2-jadval

O‘zbekistonda o‘rtacha oylik ish haqining hududlar kesimidagi ko‘rsatkichlari³⁹

Hududlar nomi	O‘rtacha oylik ish haqqi (ming so‘m)		O‘tgan yilning mos davrige nisbatan o‘sish (%da)
	2022 yil	2023 yil	
O‘zbekiston Respublikasi	3892,4	4551,4	17,2
<i>Shu jumladan:</i>			
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3246,2	3779,8	16,3
Farg‘ona viloyati	2900,5	3444,9	19,1
Jizzax viloyati	2946,4	3471,7	18,1
Namangan viloyati	2924,3	3310,6	13,2
Andijon viloyati	3381,8	3982,7	17,3
Samarqand viloyati	2944,2	3408,4	17,8
Buxoro viloyati	3310,0	3883,9	17,0
Navoiy viloyati	5125,3	5887,8	15,1
Sirdaryo viloyati	3221,6	3629,2	12,7
Xorazm viloyati	3182,4	3759,3	18,0
Qashqadaryo viloyati	2952,6	3367,7	14,5
Surxondaryo viloyati	2946,1	3379,6	15,5
Toshkent viloyati	3946,9	4526,0	14,5
Toshkent shahri	6314,4	7453,4	18,7

2023 yilda mamlakatimizning uchta ma’muriy hududida (Toshkent shahri, Toshkent va Navoiy viloyatlari) nominal ish haqining darajasi respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqining eng yuqori miqdori qayd etildi.


Ko‘rib o‘tilayotgan davrlarda faqatgina Toshkent shahri va Navoiy viloyatida o‘rtacha oylik ish haqining miqdori respublikadagi o‘rtacha darajadan yuqori bo‘lgan, qolgan barcha hududlarda bu ko‘rsatkich respublika bo‘yicha o‘rtachadan past bo‘lgan.

³⁹ www.stat.uz statistika agentligi ma’lumotlari.

Respublikamizda maoshlarning hududlar kesimida nomutonosibligi ortidan tengsizlik kuchayib bormoqda. Masalan, 2023 yilda eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahri va eng past ko‘rsatkich Surxondaryo viloyatida o‘rtacha ish haqidagi farq 2 barobar bo‘lgan bo‘lsa, 2022 yilda bu ko‘rsatkich 2,18 barobarga teng bo‘lgan.

Shu bilan birgalikda 2023 yil yakunlariga ko‘ra, sohalar kesimida eng yuqori o‘rtacha oylik ish haqi miqdori quyidagicha bo‘lgan:

- bank, sug‘urta, lizing tashkilotlarida 13300000 so‘m;
- axborot va aloqa sohasida 10600000 so‘m;
- saqlash va tashush sohasida 6900000 so‘m;
- ishlab chiqarish va sanoat sohasida 4900000 so‘m;
- qurilish sohasida 5200000 so‘m;
- savdo-sotix sohasida 4900000 so‘m;
- dam olish, ko‘ngil ochish va san’at sohasida 3700000 so‘m;
- ovqatlantirish xizmatlari sohasida 3900000 so‘m;
- ta’lim-tarbiy sohasida 3100000 so‘m;
- sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida 3000000 million so‘mni tashkil qilgan (2.3.1-rasm).



2.3.3-rasm. Respublikamizda sohalar bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi ko‘rsatkichlari⁴⁰.

Yuqorida ma’lumotlardan ko‘rinib turganidek eng past ko‘rsatkichlar yashash va ovqatlantirish xizmatlari, ta‘lim sohasi, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasiga to‘g‘ri kelmoqda. Sohada xizmat ko‘rsatayotgan xodimlarning daromadlarni oshirish, mavjud muammolarni hal qilish yoki shu orqali mahalliy aholining turmush darajasini oshirish yo‘llarini topishimiz lozimdir.

O‘zbekistonga tashrif buyurayotgan turistlarning statistikasiga qaraladigan bo‘lsa, 2017 yilda 2,7 mln. nafar turist kelgan bo‘lsa, o‘tgan 2022 yilda turistlar soni 1,9 barobarga o‘sib, 5,2 mln.ni tashkil qildi. Bu kutilmaganda yuzaga kelgan koronavirus pandemiyasidan chiqqan, 2021 yilda 1 mln. 880 ming nafar sayoh tashrif buyurgan respublikamiz turizmi uchun yuqori ko‘rsatkichdir. Shunga

⁴⁰ www.stat.uz

mos ravishda ichki turizm ko‘rsatkichlari ham yaxshilanib bormoqda. 2022 yilda ichki turizmda qatnashganlar soni 2017 yildagi ko‘rsatkichlarga nisbatan (10,5 mln. nafar) 11,3 mln. nafarni tashkil qilib 107,0%ga o‘sdi.

Xorijlik tashrif buyurgan turistlardan tushgan tushumlarning ko‘rsatkichlari, jumladan, 2022 yilda turizm xizmatlari eksporti 1,6 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi (2017 yilda 531 mln. AQSh dollari). Shu bilan birgalikda xorijlik turistlarning xarajatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak 2019 yilda sayyoohlar O‘zbekiston shaharlarida o‘rtacha 195 AQSh dollarigacha mablag‘ sarflab, o‘rtacha 2-3 kun qolgan bo‘lsa, 2022 yilda sayohatlar davomiyligi o‘rtacha 4-5 kunga, sarf-xarajatlar 305 AQSh dollarigacha oshishi natijasida har bir turistdan olinadigan daromadlar miqdori qarib 1,5 barobarga oshgan.

Ko‘rib o‘tilgan omillar asosida olib borilgan tadqiqotlar ko‘rsatishicha turizm Toshkent turistik mintaqasi (Toshkent viloyati va Toshkent shahri) infratuzilmasi nisbatan yaxshi rivojlanganligi aholining (sanoat ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish hisobiga) nominal ish haqqi yuqori bo‘lgan bo‘lsa, turizm infratuzilmasi yaxshi rivojlanmagan Navoiy viloyati erishayotgan yuqori ko‘rsatkichning negizida sanoatning rivojlanganligidir. Respublikadagi o‘rtacha ko‘rsatkichlardan nisbatan kam bo‘lgan mintaqalarda aholining daromadlarini turizmni rivojlantirish orqali oshirish imkoniyatlarini ko‘rib chiqishga to‘g‘ri keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda respublikamizning turistik rekreatsion resurslarga boy bo‘lgan Jizzax viloyatida aholining o‘rtacha oylik ish haqqi respublikadagi (2023 yilda 4551400 so‘m) o‘rtachadan past (3471700 so‘m) ko‘rsatkichga ega. Tabiiy resurslarga boy bo‘lgan viloyatda yangi xizmat turlarini ishlab chiqish orqali aholining daromadlarini oshirish va aholining bandligini ta’minlashni talab qiladi. Shu bois Jizzax viloyatida imkoniyatlari ko‘rib chiqishni va turizm infratuzilmasini rivojlantirish maqsad qilib oldik.

Respublikamizning markaziy qismida Jizzax viloyati joylashgan bo‘lib, Qozog‘iston Respublikasi bilan shimoliy-sharqda, Samarqand, Navoiy viloyatlari bilan janubiy-g‘arbda, Sirdaryo viloyati bilan sarqda, Tojikiston Respublikasi bilan

janubiy-sharqda chegaradosh. 21,2 ming km² maydonga ega. Aholisi 2022 yil holatiga ko‘ra 1 466,6 ming kishini tashkil etadi. Relyefi qir va tekisliklar, tog‘liklardan iborat. Viloyatning janubiy qismini Turkiston tizmasining Morguzar tarmoqlari, g‘arbiy qismini Nurota tizmasining sharqiy qismi tashkil etadi., Shimoliy-g‘arbiy, shimoli va sharqiy qismi Mirzacho‘l va Qizilqum cho‘li egallaydi. Viloyatning iqlimi keskin continental hisoblanadi. Viliyatda yanvarning o‘rtacha temperaturasi -4°ni, iyulniki +28°ni tashkil etadi. Cho‘l va dashtlarga nisbatan tog‘ oldilarida iqlim yumshoq. Hududdagi eng yirik daryolar Sangzor va Zominsuv. Tog‘lardan oqib tushuvchi bir qancha soylar bor. Tog‘ va tog‘ yon bag‘irlarida archa, bodom, na’matak, zira, rovoch, yovvoyi jiyda, yong‘oq, zirk kabilar o‘sadi. Yovvoyi hayvonlardan chiyabo‘ri, tulki, oq tirnoqli ayiq, bo‘rsiq, jayra, quyon, qobon va qushlardan lochin, qora turna, burgut, bulduruq, qirg‘ovul, yovvoyi o‘rdak, tuvaloq, tustovuq, kaklik kabi 160 dan ortiq turi mavjud. Viloyatda Zomin va Nurota davlat quriqxonalari, respublikamizdagi eng tabiat go‘zal joylardan biri bo‘ljan Zomin milliy bog‘i tashkil qilingan. Mineral suvlar tarkibida temir, oltingugurt, vodorod, radiy, kremniy kislotasi, karbon gazi, ishqor bo‘lgan shifobaxsh mineralar bor. Mirzacho‘l, G‘allaorol, Forish tumanlarida balneologik sanatoriylar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Chimqo‘rg‘on sulfatxlorid natriyli fizioterapiya balchig‘idan davolash profilaktika muassasalarida foydalilanadi.

Respublikamizda o‘zining madaniy-tarixiy manzillari, bebafo tarixiy maskanlari bilan Jizzax vohasi alohida ajralib turadi. Jahon tarixidagi eng qadimgi manbalarda viloyat tarixining katta ahamiyatga ega bo‘lgani aks etgan “Sayxonsov qoyatoshlari”dagi suratlar (4,5 ming yil avval), eng qadimgi odamlar yashagan manzillardan biri “Peshag’or g’ori” madaniy qatlamlari, 2-2,5 ming yillik tarixga ega “Jomonjar yer osti ehromlari”, “Mozorsov yodgorliklari” qadimiy manbalarda qayd etilgan Marsmanda, Zomin, Sobot, Gaza, Xarakana, Miq undanda ishonchliroq va qadimgiroq bo‘lgan Xitoy solnomalarida tilga olingan qadimgi qal’a “Yecha shahri” o‘tmishda sivilizatsiyalashgan rivojlanishdangan darak beradi.

Hududda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirish imkoniyatlari kattaligi bilan birga, vazirlik tomonidan bugungi kunda sohani rivojlantirish belgilangan chora-tadbirlar asosida amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda endi rivojlanish jarayoniga kirayotgan geologik, ekstremal, alpinizm, ekologik, tibbiyat va rekreatsion faol dam olishning zamonaviy shakllari ommalashib bormoqda. Bunday imkoniyatlarning yuzaga kelishi natijasida Jizzax viloyatiga ham turistlar tashrifining ortib borishi bilan birgalikda infratuzilmani rivojlantirishga bo‘lgan talab ham o‘zgarmoqda. Infratuzilmaning tarkibiy qismlari bo‘lgan joylashtirish va transport vositalarini takomillashtirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lib, birgina oladigan bo‘lsak Zomin tumanining so‘lim tabiatli joylarida mehmon uylari soni tez sur’atlar bilan ko‘paymoqda. Mahalliy aholining bandligini xizmat ko‘rsatish tarmog‘ini rivojlaytirish orqali ta’minalash uchun sog‘lomlashtirish-rekreatsion va ekologik yo‘nalishlarda eng ko‘p tashrif buyuradigan Zomin tumanidagi Duoba qishlog‘ida “Har bir oila – tadbirkor” dasturiga asosan banklar tomonidan 20 ta tadbirkorlik sub’ektiga jami 412,9 million so‘mdan ortiq imtiyozli kreditlar berildi. Imtiyozli kreditlarga milliy uy mehmonxonasi qurayotganlarning barchasi MChJ shaklidagi va yakka tartibdagi tadbirkorlardir Jizzax viloyatida tadbirkorlarga yaratib berilayotgan sharoitlar natijasida, turizmning endi etibor qaratilayotgan noan’anaviy turlari, ekoturizm, agroturizm, qishloq, tibbiyat turizmini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yuzaga chiqmoqda. Bu imkoniyatlardan turistlar to‘g‘ri foydalanish borasida fransuz yozuvchisi Anatol Frans “Sayyohatlarga ko‘plab chiqish har qanday sharoitda bo‘lishidan qa’tiy nazar, insonlarga har tomonlama ko‘p narsalarni o‘rganishga xizmat qiladi. Sayohatchilarining o‘zi yashaydigan mintaqadan tashqarida o‘tkazgan har bir kuni, uyida o‘tkazgan o‘n yildan ko‘proq vaqt davomida o‘rgangan narsalardan ko‘proq ma’lumotlarni beradi” -degan edi. Ko‘plab sayohatlarga chiqadigan mamlakat fuqarolarining diqqatini mamlakatimizga qaratish va marketing izlanishlarini olib borish hozirda etarlicha amalga oshirilmayapti. Masalan, Jizzax viloyatining geografik joylashuvi bo‘yicha

imkoniyatlaridan biri hududdan M-39 avtomagistralining o‘tganligidir. Hozirda bu avtomagistraldan bir kunda 40 mingdan ortiq avtomobillar harakatlanadi. Shu bilan birligida respublikamizdagi eng muhim turistik yo‘nalishlaridan bo‘lgan “Toshkent –Samarqand - Buxoro - Xiva”, “Toshkent - Samarqand - Shaxrisabz - Termiz” yo‘nalishlari bevosita hududdan o‘tishiga qaramasdan viloyatga tashrif buyuruvchi turistlarlar soni yetarli darajada emas.

Bunga asosiy sabab qilib bir nechta quyidagi omillarni olishimiz mumkin: bo‘lgan tarnsport yo‘llariga, mehmonxonalariga, ovqatlantirish korxohalariga, turistik ob’ektlarga yetarli darajada e’tibor qaratilmayapti;

-turdosh sohalar infratuzilmalari bilan turizm infratuzilmasining yetarli darajada integratsiyalashmaganligi;

-turistik ob’ektlarning tarixiy jarayonlardagi ahamiyati va ularning holati yetarlicha o‘rganilmagan;

-turistik xizmatlarni va mahsulotlarning sifatini xalqaro standartlar darajasiga etkazish hamda bozorning biznes muhitini yaxshilash hozircha yetarlicha yo‘lga qo‘yilmagandir.

Ko‘rinib turibdiki mintaqada turistik imkoniyatlardan foydalanish talab darajasida emas. Hududning o‘ziga xos marosimlari, urf-odatlari, etnik va ziyorat turizimi bo‘yicha bir qator imkoniyatlar borki, ular bo‘yicha yangi turistik yo‘nalishlarni ishlab chiqib turistlarga taqdim lozim.

Bunda eng avvalo Jizzax viloyatining o‘ziga hos bo‘lgan tarixiy davrlari, mahalliy xalqning urf-odatlari va an’analariga egaligi;

-viloyatning so‘lim manzillar hisoblanadigan Morguzor va Turkiston tog‘ tizmalaridagi tabiiy va Zominsuv va Sangzor daryosi havzasasi, sog‘lomlashtirish-rekreasion maskanlarning o‘ziga xos landshaftlari;

-Baxmal, Zomin, Forish va Yangiobod tumanlarida Markaziy Osiyo mintaqasida juda kam uchraydigan geologik yotqiziqlar, agroturizm, qishloq, ekoturizm resurslariga boy bo‘lgan betakror go‘zal tabiat, o‘rta asrlarga ta’luqli arxeologik topilmalar, hayvonot dunyosi, shifobaxsh o‘simliklar, noyob re’leflar,

landshaftlar va tabiiy yodgorliklarning mavjudligi tashqi va ichki turizmni keng targ‘ib qilish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Viloyatdagi sayyoohlarni o‘ziga jalb qiladigan turistik ob’ektlarning holati bo‘yicha to‘xtaladigan bo‘lsak, arxitektura, tarixiy-arxeologik, muzeylar, monumental va ziyorat ob’ektlari 44 ta, diqqatga sazovar ob’ektlar soni 388 ta, eko-agroturizm va maxsus ob’ektlari 18 tani tashkil qiladi.

2.3.3-jadval

Jizzax viloyatidagi turistik ob’ektlar bo‘yicha ma’lumot⁴¹ (soni, birlik)

Ko‘rsatkichlar nomi	2017 y	2018 y	2019 y	2020 y	2021 y	2022 y	2023 y
Turizm namoyishi ob’ektlari							
Arxitektura yodgorliklari	40	42	42	42	44	44	44
Arxeologik obidalar	212	244	244	244	247	247	248
Monumental san’at yodgorliklari	52	63	63	65	65	65	65
Muzeylar	3	3	5	5	5	5	5
Ziyorat turizmi ob’ektlari	15	23	23	25	25	25	26
Jami:	322	375	377	381	386	386	388
Ziyorat turizmi ob’ektlari							
Ziyorat turizmi ob’ektlari	27	28	36	36	42	42	44
Eko-agroturizm va maxsus ob’ektlari							
O‘rmon xo‘jaliklari	7	7	7	7	7	7	7
Qo‘riqlanayotgan hududlar	3	3	3	3	3	3	3
Eko-agroturizm ob’ektlari	0	4	5	6	7	7	8
Jami:	10	14	15	16	17	17	18

Masalan, viloyat hududda ming yillardan beri ziyoratchilar tomonidan aziz tutib kelinayotgan “Sa’d ibn Abu Vaqqos”, “Parpi ota”, “Xo‘jamushkent ota”, “Novqa ota”, “O’smat ota”, “Sayid Mir Xalililloh ota”, “Xo‘jabog‘oti ota” kabi ko‘plab ziyorat manzillari va qadamjolar borki, ular oxirgi yillarda obod manzillarga aylandi. Bunday muqaddas qadamjolar borligi viloyatda ziyorat turizimini rivojlantirishga keng imkoniyatlar borligidan dalolat beradi.

Jizzax viloyatining turizmni rivojlantirish imkoniyatlaridan yana birini ko‘radigan bo‘lsak, binda gastronomik yo‘nalishida, yani milliy ananalarga ega bolgan xizmatlar ko‘rsatish orqali qishloq xo‘jaligida ekologik toza mahsulotlarni


⁴¹Tadqiqotchi tamonidan Jizzax viloyati turizmni rivojlantirish hududiy boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzib chiqildi.

ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashni amalga oshirish mumkin. Mahalliy aholi tomonidan tayyorlanadigan o'ziga xos taomlari bilan mashhurligidan foydalanishi orqali muayyan bozorlar talabiga moslashtirishi lozim. Viloyatda an'anaviy o'ziga hos bo'lgan milliy taomlari, shirin-shakar mevalari, shifobaxsh asali, ayniqsa turistlarda katta qiziqishlarga sabab bo'layotgan "Jizzax somsasi", "Zomin tandiri" "Qozon patir", "Baxmal olmasi", "Lochira", "Qurtava"larni olishimiz mumkin. Bundan ko'rilib turibdiki, viloyatning gastronomik turizmni rivojlantirish imkoniyatlarining yuqoriligi kelajakda mahalliy aholini qo'shimcha ish o'rnlari bilan ta'minlashga zamin yaratadi.

Mintaqa o'zining betakror tabiatini bilan ham ekologik turizm yo'nalishida sayohatlarga chiqayotgan turistlarni o'ziga jalb etib kelmoqda. Ekologik turizm resurslari viloyatning Zomin va Baxmal tumanlaridagi qo'riqxona, milliy bog', o'rmon xo'jaligi hududalarida joylashgan. Bu dengiz sathidan 2000-2500 metr balandlikda bo'lgan tog'li hududlar hisoblanib, 2000 hektardan ortiq maydonni egallaydi. Mazkur hududlardagi resurslardan samarali foydalanish orqali turistik-rekreatsion, sog'lomashtirish va tog' so'qmoqlarida sayr etish imkoniyatlarini yaratish mumkin. Aynan mana shunday hududlarda hozirda kichik turistik zonalarni tashkil etish chora-tadbirlari ishlab chiqilmoqda. Bunga misoli qilib Zomin-Baxmal ekoturistik klasterini tashkil qilish doirasida amalga oshirilayotgan ishlarni olishimiz mumkin. Turistik klaster hududida Zomin davlat milliy bog'i (24100ga), Zomin davlat o'rmon qo'riqxonasi (26400ga), Baxmal o'rmon xo'jaligi (68428ga), Zomin o'rmon xo'jaligi (23892ga) bo'lgan umumiy maydoni 142986 hektar o'rmon bilan qoplangan maydonda 1119 ta yuksak o'simliklar, 130 turdag'i qushlar va yirik hayvonlar hamda 286 tur hashoratlar mavjud bo'lib, ularning 27 xil noyob o'simlik, 13 xil noyob qushlar turi qizil kitobga kiritilgandir. Shu bilan birgalida mazkur hududning rekreasion va tibbiyot turizimini rivojlantirishdagi o'rni ham katta bo'lib, sog'lomashtirish maqsadida tashrif buyurgan turistlar uchun keng imkoniyatlarni beradi. Bunda "Zomin sanatoriysi"ni oladigan bo'lsak, sanatoriya respublikamizda eng mashhur dam olish va davolanish

maskanlardan biri bo‘lib, salqin va mo‘tadil toza havo, archazorlar bilan qoplangan tog‘-o‘rmoni bilan qoplangan hudduda joylashganligi bilan ahamiyatlidir.

Bu kabi imkoniyatlardan maqsadli foydalanib viloyatda aholining o‘rtacha oylik daromadlarini rekreatsion-sog‘lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirish orqali oshirish mumkin. Jizzax viloyat respublikamizda tabiiy-geografik joylashuvi va re’lefining qulay tuzilishiga egaligi bilan rekreatsion-sog‘lomlashtirish turizmni rivojlantirishda katta ustunlikka egadir. Shu sababli viloyatning imkoniyatlarini rekreatsion resurslari bo‘yicha ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, mintaqaning asosan tog‘li va tog‘ oldi hisoblangan Baxmal, G‘allaorol, Zomin, Yangiobod, Forish tumanlarining imkoniyatlar yuqori. Xalqaro tajribalar rekreatsion-sog‘lomlashtirish turizmini rivojlantirishda xozirda keng qo‘llanilayotgan klaster usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatmoqda. Klasterlarni tashkil qilishning o‘ziga xos tomoni u turli sohalar bilan bog‘langan holda tashkil etilishidir. Shundan kelib chiqqan holda davlat xususiy sherikligi asosida rekreatsion-sog‘lomlashtirish klasterini tashkil qilish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholining o‘rtacha daromadlarini oshrish lozim bo‘ladi.



2.3.2-rasm. Jizzax viloyati Baxmal tumanida DXSh asosida rekreatsion-sog'lomlashtirish klasterining ishlash tizimi⁴².

⁴² Muallif tomonidan taklif etilayotgan DXSh asosidagi rekreatsion-sog'lomlashtirish klasteri.

Tadqiqotlarimiz natijasi ko‘rsatishicha Jizzax viloyatining Baxmal, Zomin, Forish va Yangiobod tumanlari hududlarida rekreatsion-sog‘lomlashtirish turizmi klasterlarini DXSh asosida tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Bu klasterni tashkil qilishda hozirda belgilab olingan hududda faoliyat olib borayotgan 15dan ortiq tadbirkorlarni birlashtirishga ham xizmat qiladi. Bundan tashqari hozirda hududga tashrif buyurayotgan turistlar sonining kamligi, ular uchun infratuzilmaning yaratib berilmaganligi va turistlarning mavsumiy tashrifiga asoslanganli kabi muammolarni bartaraf etish lozimligini ko‘rsatadi.

Hozirgi kunda mintaqada tadbirkorlar klasterning to‘liq shartlariga asoslanmagan birlashmalar ko‘rinishida faoliyat olib bormoqda.

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa

Respublikamiz iqtisodiyoti rivojlanishida turizm ham iqtisodiyotning strategik tarmog‘i sifatida boshqa tarmoqlar bilan muvofiq holda rivojlanishib borishi lozim. Buni kengroq oladigan bo‘lsak, mintaqaning barqaror rivojlanishi infratuzilmaning takomillashib borishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ma’lum bir hududdagi amalga oshiriladigan qurilish, xizmat ko‘rsatishning rivojlanishiga infratuzilma bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu singari, turistlarning hududga tashrifini yaxshilashning omili bo‘ladi.

Respublikamiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va xalqaro talablar darajasida xizmatlarni taklif qilishning yana bir varianti turistik mahsulotlarni tezlikda diversifikatsiyalash lozim. Bu borada turistlarni ko‘proq jalb qilish uchun mehmonxonalarda, restoranlarda xizmat sifatini oshirishda innovatsiyalardan foydalanishimiz lozim. Asosiy e’tiborni ananaviy turistik markazlarimiz bo‘lgan Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xivagi mehmonxonalarni modernizatsiya qilish emas, balki ziyyorat va turistik-rekreatsion resurslarga boy bo‘lgan Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax va Farg‘ona vodiysida kichik shinam 3-4 yulduzli mehmonxonalarini qurishni rag‘batlantirishimiz lozim. Buning uchun mintaqalarimizdagи turistik destinatsiyalarning infratuzilmasini yanada rivojlantirish uchun yirik loyihalarni amalga oshrishimiz va imkon drajasida investorlarning e’tiborini jalb qilishimiz kerak.

Investorlarni jalb qilish orqali resurslarni boshqarish va turistlarga xizmat ko‘rsatishni yuqori darajaga chiqarish, nisbatan daromadlari kam bo‘lgan mintaqalardagi aholining farovonligini oshirish mumkin bo‘ladi. Bu orqali respublikamiz aholisining o‘rtacha oylik daromadlari nisbatan kam bo‘lgan mintaqalarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish orqali mahalliy aholining daromadlarini ko‘paytirish mumkin bo‘ladi. Tadqiqotlarimizni aholi daromadlari nisbatan kam bo‘lgan Jizzax viloyati bo‘yicha olib bordik. Viloyatda turistlarni o‘ziga jalb qiladigan tarixiy-arxeologik, arxitektura, monumental, muzeylar va diqqatga sazovar ob’ektlar soni 386 ta, ziyorat ob’ektlari 42ta, eko-agroturizm va maxsus ob’ektlari 17tani tashkil qiladi. Shu bilan birgalikda viloyat juda boy rekreatsion-sog‘lomlashtirish resurslariga egali. Rekreatsion-sog‘lomlashtirish resurslaridan samarli foydalanish orqali infratuzilmani rivojlantirish va aholining o‘rtacha oylik daromadlarini oshirish imkoniyati borligi aniqlandi. Tadqiqotlarimiz ko‘rsatishicha Jizzax viloyatining Zomin, Yangiobod va Baxmal tumanlari hududida rekreatsion-sog‘lomlashtirish turizmini DXSh asosida klaster usulida rivojlantirish mexanizmini joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda turistik resurslarga boy bo‘lgan hududlar infratuzilmasini takomillashtirish orqali xizmat ko‘rsatishni yaxshilash mumkinligi bo‘yicha bir qator omillar aniqlandi.

III-BOB. TURIZMDA INNOVATSIYALARNI JORIY QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

3.1. Turizmda innovatsion jarayonlarni integratsiyalash mexanizmlari

Turizmda xizmatlar doimiy ravishda o‘zgaruvchan holatda bo‘lib, buning asosiy sababi innovatsiyalarning bir necha yilda emas, balki har kuni sohaga kirib kelishi bilan izohlanadi. Turizmdagi har bir o‘zgarish va yangi tendensiyalar turoperatollar va turagentlarning, qolaversa infrastrukturaning tezda moslashishiga olib keladi. Turopertorlar sayyohlarga taklif qilayotgan xizmatlarning an’anaviyatlari bilan birga innovatsion xizmatlarni ham taklif qilishni bilishlari va o‘zlashtirishlari talab qilinadi.

Innovatsion texnologiyalarning turizmga kirib kelishi ayniqsa mamlakatlarning 2020 yilning oxirlariga borib cheklovlarni birin-ketin olib tashlashi natijasida yanada jadallahshib, 2022 yilda boshlangan va 2023-2024 yillarda ham davom etayotgan Rossiya-Ukraina ziddiyatlari, 2023 yilning oxirida boshlangan Yaqin Sharqdagi va Janubiy Amerikadagi siyosiy muammolarga qaramasdan turistlar harakati oldingi yillarga nisbatan o‘sib bormoqda. Bu kabi ijobiy natijalarga erishishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni va axborotlarni uzatish tizimlarining ahamiyati katta bo‘lmoqda.

Hozirgi zamonda tez rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biri internetdan axborotlar olish, murakkab aralashmali materiallarni yaratish, aerokosmik tadqiqotlar olib borish, energiya tejamkor texnologiyalarni ko‘llash orqali xizmatlarni sifatini oshirish va atrof-muhitni saqlab qolishga qaratilgan texnologiyalarga talab ortib bormoqda. Bu kabi texnologiyalar rivojlanishni ta’minlashga ta’sir etib qolmasdan, ayniqsa turizmda xizmatlarning yangi turlarini yaratishga imkon beradi va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarning integratsiyasini yaxshilaydi. Bunda ayniqsa turizmda, jumladan, VR/AR axborot texnologiyalari juda ahamiyatli.

"Big Data" ma'lumotlar texnologiyasi orqali mintaqqa turizmi boshqaruvini ta'minlash va turizm platformalari uchun ma'lumotlar bazasini yaratish imkoniyatini beradi

VR-ga asoslangan navigatsiya va AR-ga asoslangan interaktiv turizmdagi VR/AR platformalari turistlarga mehmonxonalar va turistik ob'ektlarning holati bo'yicha ma'lumotlar olish imkoniyatini beradi.

Turizmda innovatsion texnologiyalarning qo'llanishi jarayonlari

5G tarmogi o'zining yuqori tezligi, tarmoqlarga onlayn ulanish, yuzaga kelgan muammolarni hal qilishi imkoniyati.

Turistik va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan turistlar o'rtasidagi katta hajmdagi ma'lumotlarni platformalarga integratsiya qilish va ularni saqlash imkoniyatini beradi.

3.1.1-rasm. Turizmda innovatsion texnologiyalarni qo'llash jarayonlari⁴³

Hozirda o'sib borayotgan "Big Data" yirik hajmdagi tizimli va tizimsiz raqamli ma'lumotlar to'plamidir. "Big Data" turizm biznesi jarayonlarini optimallashtirish va avtomatlashtirish, to'plangan ma'lumotlarga asoslangan eng samarali qarorlarni qabul qilinishini ta'minlash maqsadida yirik axborotlarni saqlash va qayta ishslashning innovatsion usullarini o'z ichiga oladi. "Big Data" hozirgi kundagi yirik ijtimoiy tarmoqlarning (Twitter, LinkedIn, Instagram, Facebook va VKontakte) vazifalari, sayyoqlik biznesi ishtirokchilarining innovatsiyalardan foydalangan holda istiqbolli turmahsulotlar, xizmatlar, turistik kompaniyalar, firmalar va ularga turdosh xisoblangan korxonalarning ma'lumotlar bazasini muntazam yaratilishiga olib keldi. Turistik sub'ektlar tomonidan maqsadli turizm bozorlarida raqobatbordosh turmahsulotlarni ishlab chiqish va biznesda "Big Data" imkoniyatlarini ko'rib chiqish, biznes yuritishda potensial hamkorlarni aniqlash va prognoz qilishda imkoniyatlarni yaratadi.

Turistik mintaqalarni, bozorlarni tahlil qilish uchun "Big Data" zarur bo'lgan ma'lumotlarni tanlaydi va bir tizimga keltirib, sun'iy intellektdan tahliliy vazifalarni bajarish uchun foydalanadi. Turizm biznesida bu kabi imkoniyatlar juda zarur hisoblanadi.

qo'llashda 5Gni alohida ko'rib chiqish kerak. 5G eng so'nngi texnologik trend

⁴³ Muallif ishlanmasi.

b
o
'
a
d
i
g
a
n


b Turizmda 5G texnologiyalarining imkoniyatlari darajasida foydalanilsa u o‘z navbatida yana bir o‘ziga xos trend – virtual xizmatlarning rivojlanishiga olib keladi. VR turistlar va boshqa foydalanuvchilarni atrofdagi muhitga singib ketishini ta’minlaydi, AR esa bu jarayonlarni yaxshilab beradi. Hozirda ushbu texnologiyalardan ko‘proq muzeylar, tarixiy obidalarda keng qo‘llanilmoqda. SHu bilan birgalikda, VR va AR boshqa innovatsion texnologiyalar bilan birgalikda keng ko‘lamda marketing, ta’lim, tibbiyot kabi sohalarda ham qo‘llanilmoqda. Timiz fuqaro ~~Turistiklar Google’ning yaxshi xizmatlarning qurilishi u o‘sishiga qarab, LBS texnologiyasi asosan turizmda manzilning joylashuvi bo‘yicha ma’lumotlar heradigan xizmat turiga kiradi. LBS texnologiyasi turistlar sayohatga brogan manzilida joylashgan turistik ob’ektlar, ovqatlanish manzillari, yotoq joylar, kvtogarajlar, savdo do‘konlari va boshqa ob’ektlarini Google xaritalardan topishda foydalanishlari, shu bilan birgalikda boshqa moslashtirilgan xizmatlardan foydalanishlari mumkin.~~ Masalan, turistik ob’ektlar bilan mehmonxona o‘rasidagi masofa, unga ketadigan vaqt, xarakatlanish tezligi, marshrutlar xaritasi va boshqa ma’lumotlarni olish.

g Google Maps turistlarga va boshqa foydalanuvchilarga yanada sifatli xizmatlarni taklif etish uchun mehmonxona tizimlari va turoperatorlar bilan doimiy ravishda hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan.

i

y

o



3.1.2-rasm. Innovatsion texnologik platformalar orqali turistlarga samarali axborotlar taqdim etish⁴⁴.

Misol uchun mehmonxona biznesida birinchilardan bo‘lib “Accor Hotels” mijozlar bron qilish jarayonini soddalashtirish uchun Google Maps dan keng foydalanmoqda. Bu mijozlarga Google Maps va Google Places (aloqaga chiqish uchun ma’lumotlar dasturning sahifasida berilgan) orqali sayyoohlar mehmonxonalarni o‘zlariga qulay bo‘lgan joydan topish, mehmonxonaga yaqin bo‘lgan turistik ob’ektlar, istirohat bog‘lari, savdo do‘konlari, muzeylar, teatrlar, ovqatlanish shoxabchalari bo‘yicha ma’lumotlar olishlari mumkin.

Turistik mintaqalarda atrof-muhitni muhofaza qilish, havoning ifloslanish darajasini kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish asosiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik toza mahsulot ishlab chiqarish konsepsiyasida biznes faoliyatga tarmoqning integratsiyasini ta’minlash maqsadida yashil (eko) mehmonxonalarni tashkil qilish va faoliyat davomida unga amal qilish qat’iy belgilangan.

Dunyo iqtisodiyotida “Yashil energetika”ga bo‘lgan talabning ortib borishi natijasida 2023 yilda uning global quvvati 2022 yilga nisbatan 50 foizga oshdi. 2028 yilga borib qayta tiklanuvchi energiya manbalari jahon elektr energiyasi ishlab chiqarishning 42 foizdan ortig‘ini tashkil qilishi bashorat qilinmoqda.

⁴⁴ Muallif tamonidan ishlab chiqilgan.


Mutaxassislarining fikricha 2028 yilga borib, dunyodagi yangi qayta tiklanadigan energiya quvvatlarining 60 foizigacha bo‘lgan ulushi birgina Xitoy davlatiga to‘g‘ri kelishi aytilmoqda.

Yashil energiyani yaratishda va undan foydalanishda G‘arb davlatlari va Xitoy katta tajribaga ega. Masalan, Xitoyda to‘liq quyosh energiyasidan quvvat oladigan “Power Valley Jinjiang International Hotel Baoding” mehmonxonasini olishimiz mumkin. Ushbu mehmonxona binosiga o‘rnatilgan quyosh panellaridan 0,3 megavattga teng energiya olinmoqda. Bu degani kichik elektr stansiyasida ishlab chiqariladigan energiya bilan barovar hisoblanadi. Mehmonxona nafaqat o‘zining energiyaga bo‘lgan talabini qandirmoqda, balki ortiqchasini boshqa iste’molchilarga etkazib bermoqda.

Shu bilan birgalikda turizmda va xizmat ko‘rsatishda innovatsion texnologiyalar qo‘llash natijadorligi resurslarni tejashga olib keladi. Bizning mamlakatimiz ayniqsa suv resurslari juda tanqis mintaqada joylashgan. Jahondagi yetakchi mehmonxonalar xizmat ko‘rsatishda innovatsiyalarni qo‘llash orqali suv tejamkorligiga erishmoqda. Suv resurslarining kamayishi, doimiy ravishda energiya narxining o‘sib borishi va chiqindilarning ko‘plab tashlanishi bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu muammolarni hal qilishda Melburndagi “Crowne Plaza” mehmonxonasi misolida ko‘radigan bo‘lsak, mehmonxonada energiya sarfini kamaytirish borasida bir qator innovatsiyalarni (yuqori energiya sarflaydigan cho‘g’lanma lampalarni kam vattli lampalarga almashtirish, nomerlarda smart termostatlarni o‘rnatish, o‘zgaruvchan tezlikli drayverlarni va binolarni boshqarish tizimini o‘rnatish) joriy qilgan. Mehmonxonalardagi eng katta muammolardan biri suvni tejash (nomerlarda suv bosimi va suv oqimini nazorat qiladigan) va xarajatlarni qisqartirish, atrof-muhitga zararni kamaytirish choralar ko‘rilgan. Bularning hammasi texnologik innovatsiyalar bilan bog‘liq bo‘lib, xarajatlarni nazorat qilish va investorlarning yuqori daromadliliginin ta’minlashda qo‘l kelishini isbotladi.

Turizmdagi an’anaviylik bilan birga innovatsion texnologiyalarni birgalikda olib borish uchun malakali xodimlarni tayyorlash, malakasini oshirish, qayta

tayyorlash tizimini ham amalga oshirishni talab etadi. Bunda innovatsion texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalaygan holda onlayn shaklida amalga oshirish xodimlarning vaqtini tejash bilan birga uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.




3.1.3-rasm. Turizm sohasida faoliyat olib borayotgan xodimlarni innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish ucnun malakasini oshirish mexanizmi⁴⁵

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda hozirgi tez o'zgaruvchan sharoitda, shu jumladan O'zbekiston turizmidagi shakllangan an'anaviylik bilan bir qatorda innovatsion texnologik jarayonlarning o'ziga xos tomonlarini o'zaro qarama-qarshi qo'yilmagan holda amal qilish, an'anaviylikdan kelib chiqqan holda zamonaviylikka, ularni o'zaro muvofiqlashtirish orqali yaxlit tizimning faoliyatini yo'lga qo'yish lozim.

Jahon turizmidagi o'zgarishlar hozirda an'anaviylik bilan birga innovatsion texnologiyalarni birgalikda integratsiyalashgan holda amalga oshirib kelinmoqda. Turizmda an'anaviylik bu ko'proq tarixiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lsa,

⁴⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

innovatsion texnologik jarayonlar hozirda amalga oshirilayotgan va kelajak bilan bog‘liq bo‘ladi. Har qanday turistik xizmatlarda an’anaviylik va innovatsionlik tamoyillari birgalikda amalga oshiriladi. Bu ikki elementni o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda birgalikda rivojlantirish, an’anaviylikni saqlab qolish orqali texnologik imkoniyatlardan keng foydalanib zamonaviy turizm infratuzilmasini yaratish lozim.



3.1.4-rasm. Turizmda innovatsion texnologiyalarning integratsiyalashuvi mexanizmi⁴⁶.

Hozirgi vaqtida turizmda faoliyat olib borayotganlarning ko‘pchiligi innovatsion texnologiyalarni yangilik sifatida qabul qilib, “eskilikdan” voz kechish kerak degan tushuncha bilan yuradi. Aslida olib qaraganda innovatsion texnologiyalar eski mohiyatning yangi sharoit va talabga moslashtirish jarayonidir. Mamlakat turizmi uchun ba’zi hollarda innovatsion texnologiyalarni keragidan ortiq qo’llash yo‘qotishga olib kelishi va o‘zining jozibadorligi, betakrorligiga

⁴⁶ Muallif tamonidan ishlab chiqilgan.

ta'sir o'tkazishi mumkin. An'anaviylik aslida milliy turizmning betakror, go'zal, chiroyli, jozibali tomonidir. An'anaviylik milliyligimiz aynan boshqa mintaqa va mamlakatlar turizmidan o'ziga hosligini ko'rsatib turadigan tomonidir.

Innovatsion texnologiyalarni turizmda, qolaversa bugungi hayotimizda qo'llamasdan ilojimiz yo'q. Mamlakat iqtisodiyotinii yangi texnologiyalarni joriy qilmasdan rivojlantirib bo'lmaydi. Turizmda qadimiy urf-odatlarni saqlab qolish orqali yangiliklarni amalga oshirish talab etiladi. Masalan, mamlakatimizning tarixiy shaharlari Toshkent, Buxoro, Xiva, Samarqand, Shaxrisabz, Marg'ilon kabi shaharlarning tarixiy qismlarini asl ko'rinishida (mahallalar, bozorlar, ko'chalar, ariqlarni) saqlab qolish zarur. Mamlakatimizga turistlar aynan madaniy-tarixiy joylarni, qadimiy urf-odatlarni ko'rishga keladi.

Hozirda kupchilik davlatlardagi turoperatorlar ayniqsa yoshlар uchun bir haftalik mobil telefonsiz, televizorsiz va umuman texnik gadjetlarsiz yashash tarzini taklif qilmoqda. Bunga qo'shimcha tarzda o'choqlarda ovqat pishirish, qo'lda kir yuvish, dala hovlilardagi ishlarni bajarish, hayvonlarni ozuqalantirish, meva-sabzovatlarni yig'ishtirib olish kabi sayohatlarni taklif qilmoqda. Shu orqali yoshlarda qadimda o'zlarining ota-bobolari, buvilari qanday shart-sharoitlarda hayot kechirganliklarini bilib oladi.

Hozirda mamlakatimiz turoperatorlari ham bu tajribani o'zlashtirish maqsadida yoshlarga turli xildagi xizmatlarni taklif etmoqda.

O'zbekiston shaharlarida yashayotgan bugungi yosh avlodning katta qismi qishoq xo'jaligi ishlarini, o'simliklarni parvarishlash (bug'doy ekish, uni yig'ishtirib olish, un tayyorlash, poliz ekinlarini etishtirish va boshq.), uy hayvonlariga qarash (sigir sog'ish, qatiq, suzma tayyorlash, va boshq.) kabi faoliyatni to'liq tasavvur qila olmaydi. Bu kabi holatlar respublikamizda agoturizm infratuzilmasini shakllantirishimizni talab qiladi. Rivojlangan davlatlarda bunday holatlar bundan 20-25 yil oldin kuzatilgan bo'lib, ularda agroturizmni rivojlantirishga olib kelgan.

Yevropa mamlakatlarining qishloq turizmini rivojlantirishdagi tajribasini oladigan bo'lsak, ularda XX asrning ikkinchi yarmidan bu sohaga e'tibor

boshlandi. Bunda atrof-muhitni asl ko‘rinishida saqlab qolish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish orqali turizm infratuzilmasini yaratishdir.

Qishloq turizmi sohasida rivojlangan mamlakatlar asosan uchta holatda manfatdor bo‘lmoqda.

1. Qishloqlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali mahalliy daromadni oshirish.

2. Yirik shaharlardagi aholining maqsadli dam olishini tashkil qilish orqali ularning mablag‘larini qishloqlarga yo‘naltirish.

qo‘shimcha g‘aznaga mablag‘larni tushirish orqali (sport majmualari, qishloq do‘kor Qishloqlarning xalqaro‘shimchasi) rivojlantirish bo‘yicha Yevropa mamlakatlari tajribasini ko‘rib chiqqanimizda, shu narsa ma’lum bo‘ldiki, shahar aholisining 40%i aynan qishloqlarda dam olish orqali mahalliy buyudjetga hissa qo‘shish istagi borligini bildirgan. Bugungi kunda Osiyo va Afrika davlatlari aynan qishloq turizmini rivojlantirishda Yevropa mamlakatlari modellaridan nusxa olmoqda. Buning asosiy sababi qishloq turizmi infratuzilmasi faqat Yevropa davlatlarida birmuncha yaxshi shakllangan.

Bizning mamlaktimizda ham oxirgi yillarda qishloq turizmini rivojlantirish bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek qishloqlarimizda yangi ish o‘rinlarini ochish orqali aholining yashash darajasini yaxshilashga katta e’tibor bermoqda. Bunda qishloq joylardagi resurslardan oqilona foydalanishda innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu imkoniyatlari quyidagilardan iborat; ro‘yxatini shakllantirishda keng foydaldanish; bo‘yicha monitoringni doimiy ravishda qishloqdagi turistik ob’ektlarda olib borish; targ‘ib qilish; va qishloqdagi turistik ob’ektlar bo‘yicha reklamani amalga oshirish; turizmi infratuzilmasini qishloqlarda takomillashtirishda turistik sub’ektlar

Mamlakatimizda qishloq turizmini rivojlantirish talab darajasida emas, shuning uchun qishloq turizmi dasturini ishlab chiqish, tashkillashtirish murakkab kechmoqda.

Xalqaro tajribalar ko‘rsatishicha qishloq turizmi infratuzilmasi takomillashib borgani sari uning tarmoqlari yoki yo‘nalishlari paydo bo‘lib boraveradi. Bunga bevosita innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi va uni qo‘llash jarayoning kengayib borishi ham o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Qishloq turizmi tarkibiga hozirda bir qancha tarmoqlar kiritilmoqda. Masalan, ekologik, agroturizm kabi turlar paydo bo‘ldi. Qishloq turizmining mohiyatiga biz hozirgacha to‘liq etib bormaganimiz uchun qishloq turizmi aslida ichki turizmnинг asosi ekanligini anglab yetkanimiz yo‘q.

Yevropa davlatlari agroturizm infratuzilmasini rivojlantirishda, ayniqsa, Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya birinchilardan bo‘lib innovatsiyalarni qo‘llay boshladi. Fransiyada agroturizm infratuzilmasi mamlakatning sharqida va janubida yaxshi rivojlangan, mamlakat g‘arbida endi rivojlantirishga kirishilgan. Bunda asosan mamlakatning tabiiy iqlim hususiyatlari hisobga olingan. Qishloq turizmi rivojlanganing asosiy sababi, mamlakatning sharqiy qismida tog‘ tizimlarining rivojlanganligi va Lyuksemburg, Italiya, Germaniya, Shveysariya, Belgiya davlatlari bilan chegaradoshligidir. Bu davlatlardan Fransyaning qishloq turizmiga qiziquvchilar ko‘pligi uchun yuqori turistik oqimga egadir. Fransyaning janubida agroturizmni rivojlantirishda innovatsiyalardan etarlicha foydalanishi natijasida plyaj-cho‘milish zonalari va vinochilik rayonlari ancha rivojlandi.

Germaniyada boshlang‘ich vaqtda agroturizmni rivojlantirishda bir qator muammolar (o‘tgan asrning oxirlarida G‘arbiy va Sharqiy Germaniyaning birlashishi) yuza kelgan edi. Mamlakatning g‘arbiy qismi sharqqa qaraganda ancha rivojlanganligi sababli o‘rtadagi farqni qisqartirish uchun islohotlar o‘tkazila boshlandi. Bu islohotlarga katta miqdorda ajratilgan mablag‘lar tezda natijasini ko‘rsatdi. Hozirgi kunda Germaniya Yevropada agorturizmi eng rivojlangan mamlakatlardan biri hisoblanadi.

Buyuk Britaniyada agroturizm asosan mamlakatning janubiy tumanlarida yaxshi rivojlangan. Buning asosiy sabablaridan biri iqlim bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi yirik shaharlarning ko'pchiligi janubda joylashganlidir. Lekin, qirollik hozirda butun mamlakat bo'ylab agroturizmni rivojlantirishga eng so'ngi texnologiyalarni qo'llash uchun katta miqdorda investitsiya va kichik foizli kreditlar ajratmoqda.

Shu bilan birgalikda mamlakatlarning turizmda innovatsiyalarni joriy qilishdagi muhim echimlardan biri klasterlarni tashkil qilishidir. Bunda klasterlar faoliyatini yaxshilab olguncha davlat asosiy ta'minotchi sifatida qo'llab-quvvatlashi kerak. Ayrim hollarda klasterlarni moliyalashtirish hamkorlar bilan birgalikda moliyalashtirish ham amalga oshiriladi, lekin, klasterni tashkil qilish va uning faoliyatini amalga oshirish uchun yakuniy qarorni davlat qabul qiladi. Davlat tomonidan yakuniy qarorni qabul qilinishining sababi, tashkil qilinayotgan klaster infratuzilmani shakllantirishda hududda qurilish ishlarini amalga oshirish uchun suv, gaz, elektr energiya, chiqindilarni olib ketish va ularni utilizatsiya qilish kerak bo'ladi. Lekin, ba'zi hollarda klasterlarni moliyalashtirishni davlat har doim ham o'z zimmasiga olmaydi. Klasterlar o'zini-o'zi moliyalashtirishi va foyda olish uchun ishlashi lozim. Klasterlarning hammasi ham samarali faoliyat olib boraolmaydi, faoliyatini kerakli darajada muvofiqlashtira olmagan klasterlar hudud iqtisodiyotiga zarar keltiradi⁴⁷.

Klasterlarning muvofaqiyatli ishlashi uchun quyidagilarga e'tibor berish lozim: hududiy jihatdan xizmat ko'rsatish ob'ektlarining bir-biriga yaqin joylashganligi, bu transport logistikasi, ovqatlantirish, joylashtirishlarda bir qatir quyliklarni yaratib beradi; ko'rsatilayotgan xizmatlar innovatsion xususiyatlarga ega bo'ladi, xizmatlarning raqobatbardoshligini va tezligini bir necha bor oshiradi, hududning ichki resurslaridan maqsadli va samarali foydalanishni ta'minlaydi.

3.2. Turistik destinatsiyalar infratuzilmasini shakllantirish va

⁴⁷ Буркутбаева Н.А. Формирование и развитие инфраструктуры региональных туристических кластеров юга России. Авт. дисс. канд. экон.н. – Кисловодск, 2011. – 25 с.

rivojlantirish istiqbollari

Turistik destinatsiyalar turizm infratuzilmasining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Turistlarga ko‘rsatiladigan barcha xizmatlarni turistik destinatsiyalar o‘z ichiga oladigan, resurslar etarli bo‘lgan va qulayliklarni taklif etadigan (hudud) markazdir. Turistik destinatsiya tushunchasini yanada aniqlashtiradigan bo‘lsak, turistlarga xizmat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan barcha tarmoqlarni o‘zida birlashtiradi.

Respublikamizdagi turistik markazlar salohiyatidan samarali foydalanish va ularning infratuzilmasini jadal rivojlantirish yuzasidan hukumatimiz tomonidan bir qancha vazifalarni bajarish belgilab olingan. Shu jumladan, (turistik kompaniyalar, mehmonxonalarga) turizmdagi aylanma va investitsiyani ko‘paytirish uchun davlat tomonidan qo‘srimcha 300 milliard so‘mlik kredit liniyalari ochiladi. Bu ajratiladigan kreditlarning foizlarining bir qismi Tadbirkorlik jamg‘armasi tomonidan qoplanishi belgilandi⁴⁸.

Mamlakatimizdagи turistik markazlarda turistlarning qolish muddatlarini uzaytirish uchun infratuzilmani takomillashtirish borasida ishlarni amalga oshirishimiz lozim bo‘ladi. Misol uchun, bugungi kunda Xorazm viloyatidagi turistik markazlarda turistlarning qolish muddati o‘rtacha 2 kunni tashkil qilayotganligi, aosiy va qo‘srimcha ko‘rsatilayotgan xizmatlarga 220 AQSh dollari sarflayotganligi aniqlandi. Xorijiy turistlarning Xorazmga tashrifi Buxoro, Samarqandga qaraganda 2,5 baravar kamligi sababli, ularning safar davomiyligini kamida 3-4 kunga, xarajatlarini 400-500 AQSh dollariga chiqarish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishimiz kerak⁴⁹. Misol uchun, 2022 yilda hukumatimiz tomonidan chekka hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun 31ta tuman va 143ta mahalla turizmga ixtisoslashtirib, ularga alohida soliq rejimi joriy qilindi. Bundan Forish, Urgut, Xo‘jayli, Payariq, Nurota tumanlari va Angren shahri samarali foydalangan. Chekka hududlarda joylashgan bu kabi tumanlarda turizm infratuzilmasi yaxshi rivojlanmaganligiga qaramasdan o‘zgarish bo‘lib,

⁴⁸ www/ Kun.uz.

⁴⁹ www/ Kun.uz.

nisbatan shakllangan infratuzilmaga ega bo‘lgan Kogon, Kitob, Xatirchi, Qiziltepa, Yangiqo‘rg‘on, Toyloq, Boysun, Parkent, Bog‘ot tumanlari imkoniyatlardan samarali foydalana olmagan⁵⁰. Turistik destinatsiyaning infratuzilmasini yaxshilash orqali mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, 2024 yil oxirigacha 7 milliondan ortiq xorijiy, 15 milliondan ortiq mahalliy turistlarni jalg qilish va ularning natijasida xizmatlar eksportini 2,5 mlrd. AQSh dollariga yetkazish belgilangan⁵¹.

Respublikamiz turizmi infratuzilmasidagi asosiy muammolardan biri mavsumiylikka moslashmaganligidir. Masalan, mamlakatimizning tog‘li mintaqalarida qish oylarida tog‘-chang‘i sporti (Jizzax, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida) maydonlarini tashkil qilish, yoz mavsumida cho‘milish maskanlarini (Andijon, Samarqand, Navoiy, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida) ko‘paytirish orqali turistik mavsumni uzaytirish kerak.

Shunga o‘xhash tadbirlarni amalga oshirish uchun festival, madaniy tadbirlarni ko‘paytirish, ekologik, qishloq turizmini rivojlantirish, qishgi sport turlari, tabiat bog‘lari, qo‘riqxonalar va tabiat yodgorliklarini xalqaro bozorda faol targ‘ib qilishda “O‘zbekiston tashrif qog‘ozi”ni ishlab chiqish, milliy turizm brendini yangilash, ko‘plab sayohatlarga chiqayotgan Turkiya, Yaponiya, AQSh, Rossiya, Qozog‘iston, Fransiya, Malayziya, Germaniya, Janubiy Koreya, Xitoy, Buyuk Britaniya va Yaqin Sharq mintaqasi davlatlarida faol reklama targ‘ibot-tashviqotlarini olib borish kerak.

Ko‘ratib o‘tilgan vazifalarni bajarish va mavjud muammolarni hal qilishda turistik destinatsiyalar infratuzilmasini ham takomillashtirish chora-tadbirlarini ko‘rishimiz kerak.

Turistik destinatsiyalar faoliyat olib borishi va ularni tashkil qilish uchun quyidagi minimal talablarga javob berishi kerak:

-transport tizimlari, joylashtirish, ovqatlantirish va sayr-tomosha, ko‘ngilochar kabi asosiy xizmat ko‘rsatish turlari bo‘lgan ob’etlarning bo‘lishi;

⁵⁰ www/ Kun.uz.

⁵¹ www/ Kun.uz.

-turistik ob'ektlarning turistlarni o'ziga jalg qiladigan diqqatga sazovar tomohlarining bo'lishi;

-erkin raqobatda turistik destinatsiyalar o'rtasidagi o'ziga xos (iqlim, re'lef, landshaft) bo'lgan ustunlikka ega bo'lishi;

-turistlarga doimiy ravishda ob'ektlar va xizmatlari haqidagi ma'lumotlarni maxsus platformalarga joylashtirishi, etakchi reklama agentliklari va televideniya orqali chiqishlar qilib borishi kerak.

Turistik destinatsiyalar faoliyatining davomiyligi uning infratuzilmasi qanchalik rivojlanganligiga va ular o'rtasidagi muvofiqlikka bog'liq bo'ladi. Shuning uchun turistik destinatsiyaning infratuzilmasini rivojlantirish va unga ta'sir etadigan tashqi va ichki omillarni o'rganish talab etiladi.

Destinatsiya infratuzilmasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi turistik omillar quyidagilardir:

-destinatsiyada turistik faoliyat olib borishning me'yoriy-huquqiy ta'minoti va uning siyosiy barqarorligi;

-destinatsiyada ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy resurslarning yetarlicha mavjudligi;

-turistik destinatsiyadagi bozorning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari;

-turistik destinatsiyada moliyaviy imkoniyatlarning mavjudligi va boshqalar.



3.2.1-rasm. Turistik destinatsiya infratuzilmasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar⁵².

Turistik destinatsiyalarning eng muhim qismlaridan biri marshrutlar hisoblanadi. Mukammal ishlab chiqilgan marshrutlar destinatsiyaning imijini ko'tarib, turistlarni jalg qilishni rag'batlantiradi va xizmatlarni muvofiqlashtirishga yordam beradi. Destinatsiyalardagi turistik marshrtlarning davomiyligini 1-2 kunga uzaytirish, markazga tashrif buyurayotgan turistlardan olinadigan daromadni qarib 30-40 foizga oshirishi mumkin. Buni amalga oshirish uchun birinchi navbatda destinatsiyalarning infratuzilmasini shakllantirish va takomillashtirish kerak.

Turistik destinatsiyalarning infratuzilmasini shakllantirishda destinatsiyaning o'ziga xos hususiyatlarini e'tiborga olgan holda quyidagi omillarga murojat qilishimiz kerak:

-tabiiy resurslar, antropogen ob'ektlar yani turistlarning diqqatini o'ziga tortadigan joylar;

-ekskursiya, transport, joylashtirish, ovqatlantirish, shuningdek, esdalik sovg'alar do'konlari, moliyaviy tashkilotlar, tibbiyot muassasalari va boshqa xizmat ko'rsatish shoxabchalari infratuzilmaning tarkibiy qismlari sanaladi;

-destinatsiyadan foydalanish imkoniyatlarining yuqoriligi (markazning turistik bozorlardan uzoqligiga qaramasdan yuqori imkoniyatlari turistlar talabining tushib ketishidan himoya qiladi).

Turistik destinatsiyaning o'ziga xos hususiyatlaridan kelib chiqqan holda uning turistik bozorlar bilan aloqasini yaxshilashda transport tizimini rivojlantirishni talab qiladi. Turistik destinatsiya birinchi navbatda ichki transport infratuzilmasiga ega bo'lishi, shundan keyin tashqi integratsiyani ta'minlash lozim. Masalan, destinatsiyaga etib kelgan turistlar ob'ektlarga etib borish uchun avtomobil, avtobus, temir yo'l va boshqa transport xizmatlari taqdim etilishi lozim. Shu bilan birgalikda destinatsiyaning o'ziga xos ustunlik tomonlari va

⁵² Muallifning turistik destinatsiya infratuzilmasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omilarni aniqlash borasida olib borgan tadqiqotlaridan olgan natija.

imkoniyatlarini tanishtirib borish orqali uning infratuzilmasi rivojlanishini muvofiqlashtirib borish kerak.

Turistik destinatsiyalar ma'lum chegaralarga ega bo'lgan geografik hudud bo'lib, turistik guruhlarni qabul qilish va ularning ehtiyojlarini qondirishga ixtisoslashtiriladi. Har qanday hududda destinatsiyani rivojlantirish uchun uchta omilni hisobga olish kerak. Birinchi, tabiiy va antropogen resurslar bilan ijtimoiy-iqtisodiy resurslarning o'rtasidagi o'zaro aloqalar. Ikkinchidan, destinatsiyaga tashrif buyurgan turistlar mahalliy aholining yashash tarzi, ishlab chiqaruvchilar va bozorning hajmi. Uchinchidan, destinatsiyasining moliyaviy imkoniyatlari, bunda moliyaviy resurslar ichki va tashqi, yani ikki guruhga ajratiladi.



3.2.2-пачм. Turistik destinatsiyani rivojlantirishda infratuzilma va resurslarining o'zaro bog'liqligi⁵³.

Hudud tomonidan turistlarga ko'rsatiladigan xizmatlarning muvofaqiyatini ta'minlashda quyi tizim ekskursiya, mehmonxona, transport, ovqatlantirish, ko'ngilochar, sport-sog'lomlashdirish, esdalik sovg'alari, maishiy va moliyaviy xizmatlarini ko'rsatish destinatsiya infratuzilmasining holatiga bog'liq.

⁵³ Корнева Д.А. “Формирование туристической инфраструктуры на промышленных территориях” Вісник ДІТБ. 2012. №16. С.103-108 ма'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.


Turistik destinatsiyalar infratuzilmasi maqsadni amalga oshirish vositasi bo‘lib, turistlar infatuzilmani ko‘rish uchun kelmaydi, u turistlarga sifatli xizmat ko‘rsatish uchun yaratiladi. Shu bilan birgalikda destinatsiya uchun turistik resurslar katta ahamiyatga ega. “Turistik destinatsiyalar” va “turistik resurslar” haqidagi tushunchalarni aniqlashtirib olishimiz lozim. Turistik resurslar ilmiy adabiyotlarda turizm geografiyasi, rekreatsion geografiya, ekologik turizm, mintaqaviy turizm resurslari doirasida keng talqin qilingan. Mintaqalarning turistik resurslari turistlarning diqqatini tortuvchi madaniy-tarixiy, tabiiy-iqlim, ijtimoiy-iqtisodiy ob’ektlar va hodisalarning jamlanmasi hisoblanadi. Mintaqalarda turistik resurslarning mavjudligi uni turistlar uchun jozibador qila olmaydi. Shuning uchun qachonki resurslardan samarali foydalangan holda infratuzilma yaratilsagina u turistlarni o‘ziga jalb qiladi. Bundan kelib chiqib yondashadigan bo‘lsak, “Turistik resurslar” tushunchasi “Turistik destinatsiyalar” tushunchasidan ancha kengroq manoga egaligini ko‘ramiz. Turistik destinatsiyalarning muvoffaqiyatining yana bir kafolati marketingni qanday amalga oshirilishiga bog‘liq. Marketing tadbirlari destinatsiyaning jozabadorligini yanada ochib beradi. Destinatiya faqat ma’lum bir turistik resurslarga boy geografik joy emas, balki turistlar uchun jozibador bo‘lgan hududir. Mazkur hudud turistlarni bu yerda qanday ob’ektlar borligi ularga nima berishi qiziqtiradi.

Turistik destinatsiyaning hozirda eng ommolashgan turi rekreatsion-sog‘lomlashtirish bo‘lib, so‘nngi yillarda vujudga kelgan pandemiya va sog‘liqqa jiddiy ta’sir ko‘rsatuvchi har xil omillarning yuzaga kelishi turistlarning bu xizmat turiga bo‘lgan talabi ortib borayotganligi ko‘rshimiz mumkin. Shundan kelib chiqqan holda turistik rekreatsion-sog‘lomlashtirish resurslarning qismlarini tabiiy va antropogendan iboratligini hisobga olgan holda, ular gidro-mineral, suv, iqlim, o‘rmon, tog‘, dengiz, daryo, ko‘llar guruhlariga bo‘linadi. Shu bilan birgalikda rekreatsion resurslarning antropogen qismiga madaniy-tarixiy yodgorliklar, shaharlar, aholi manzillari, noyob texnik inshoatlar kiritiladi.

Turistik destinatsiyalarda ob’ektlar va rekreatsion resurslarning salohiyatini baholash murakkab jarayon bo‘lib, unda quyidagilarni alohida hisobga olish lozim:

- destinatsiyadagi resurslar va turistik ob'ektlarning o'ziga xosligi;
- turistik resurslar va ob'ektlarning bir-birini takrorlamasligi;
- turistik resurslar va ob'ektlarning joylashuvi zichligi;
- texnologik nuqtai-nazardan turistik resurslar va ob'ektlarning murakkab tuzilishga egaligi;
- turistik resurslar va ob'ektlarning texnik holati.

Hududning turistik-rekreatsion ob'ektlaridan foydalanishni baholash ushbu ob'ektlarga tashrif buyurgan turistlarning ko'rsatkichlari va ularga xizmat ko'rsatish imkoniyatlari bilan taqqoslash orqali aniqlash ham mumkin.



3.2.3-rasm. Turizm infratuzilmasini innovatsion tavsifdagi chora-tadbirlarning ulushini izchil ravishda oshirib borish asosida rivojlantirish mexanizmi⁵⁴.

⁵⁴ Muallifning olib borgan tadqiqotlari natijasida ishlab chiqilgan.

Hududning turistik-rekreatsion resurslaridan samarali foydalanishda bir qator muammolarni hal qilishni talab etadi. Bu muammolardan biri tadbirkorlar va investorlarni jalb qilish orqali turizm infratuzilmasini rivojlantirishga yo‘naltirish kerak. Bunda asosan e’tiborni davlat-xususiy sherikligi asosida rivojlantirishga qaratishimiz kerak.

Turistik destinatsiyalar birinchi navbatda hududning madaniy qadriyatlarini o‘zida ifodalashi lozim. Markazga tashrif buyurgan har bir turist ko‘rsatilgan xizmatlar va taqdim etiladigan ob’ektlarga ajratgan vaqt va sarflagan mablag‘iga achinmasligi kerak. Destinatsiyalarni rivojlantirish uchun, shu bilan birgalikda davlat-hususiy sherikligi asosida “Yagona turizm makoni” dasturini amalga oshirishda o‘rta va uzoq muddatli dasturlarni ishlab chiqish kerak. Bunda mavjud turistik resurslar imkoniyatlardan samarali foydalangan holda yangi innovatsion turmarshrutlarni ishlab chiqish, ekskursiya, joylashtirish, ovqatlantirish, transport va qo‘shimcha xizmatlarni ishlab chiqish, yangi mintaqalardagi bozorlarni o‘zlashtirish, sohaga zamonaviy boshqaruvni joriy etish, davlat, hususiy, davlat-hususiy sheriklik shakllarini joriy etish kerak.

Buni amalga oshirishda davlatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim⁵⁵:

-turistik destinatsiyalarning rivojlantirish dasturlari va vazifalarini belgilashi, uning faoliyati natijalarini tadqiq qilish mexanizimini (statistika, idoraviy) doimiy ravishda monitoring qilishni amalga oshirish;

-destinatsiya infratuzilmasini tashkil etuvchi vositalar orasida o‘zaro hamkorlik muhitini yaratish uchun kompaniyalar va tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirishi, ularning faoliyatini huquqiy-me’yoriy tomondan yaxshilash uchun shart-sharoitlar yaratish;

-marketingni qo‘llab-quvvatlash, doimiy rag‘batlantirish va innovatsiyalarni joriy qilish orqali destinatsiyaning jozibadorligini yaratishi lozim.

Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmay turib, turistik destinatsiyaning faoliyatini rivojlantirish, yangi xizmat turlarini ishlab chiqish, xizmatlar

⁵⁵ Tadqiqotchining kuzatishlari natijasida olgan xulosalari.

ko‘rsatishda innovatsion-texnologiyalarni joriy qilish, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarning birgalikda turli darajadagi sa’yi-harakatlarini muvofiqlashtirish mumkin emas.

Bu vaziyatda ikkita omildan foydalanish orqali amalga oshirish talab qilinadi: turistik destinatsiyada maqsadli chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqishda va moliyaviy ajratmalarini (kredit, subsidiya) amalga oshirishda hududiy va mahalliy hokimiyatning bevosita ishtiroki; turistik destinatsiya infratuzilmasini rivojlantirishda davlat va davlat-xususiy sherikligi mexanizmlarini asosida dasturlarni amalga oshirishni tadbiq etish⁵⁶.

Bu borada turizm destinatsiyasining infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda mahalliy hokimiyat asosiy e’tiborni muvofiqlashtirish kengashi faoliyatini yo‘lga qo‘yishi va destinatsiyadagi rekreatsion-sog‘lomlashtirish resurslarining imkoniyatlari, jozibadorligini aniqlab olishi lozim. Turistik markaz mahalliy yalpi hududiy mahsulotni oshirishi, mahalliy aholini ijtimoiy himoya qilish, qo‘srimcha ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qilishi kerak. Bunda ilmiy tadqiqot institutlarining xulosalariga kengroq tayanish lozim. Shu bilan birgalikda markazda faoliyat olib borayotgan davlat va xususiy tashkilotlarning imkoniyatlarini ham hisobga olish kerak.

Turistik destinatsiyalar nafaqat rekreatsion-sog‘lomlashtirish yo‘nalishida xizmathlarini ko‘rsatishi, shu bilan birgalikda turdosh sohalarda ishlab chiqariladigan mahsulotlar, turistlar uchun suvinerlarni ham taqdim etishi lozim.

Jizzax viloyatining Baxmal tumani hududlari rekreatsion-sog‘lomlashtirish turizmini rivojlantirish bo‘yicha katta imkoniyatlarga ega hisoblanadi. Baxmal tumanida turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarimiz ko‘rsatishicha rekreatsion-sog‘lomlashtirish bo‘yicha imkoniyatlari quyidagicha:

-Baxmal o‘rmon xo‘jaligiga qarashli hududlardagi rekreatsion resurslarning dengiz sathidan 2000-2500 metr balandlikda bo‘lgan tog‘li hududlarda joylashganligi;

⁵⁶ Tadqiqotchining kuzatishlari natijasida olgan xulosalari.

-hududning o‘ziga xos flora va faunasi, relefi, lanshaftining qulayligi;
 -tarixiy-madaniy ob’ektlar, aholining o‘ziga xos bo‘lgan etnografiyasini ularning turmush tarzi va boshqalar.

3.2.1-jadval

Jizzax viloyati Baxmal tumanida rekreatsion turizmni rivojlantirish imkoniyatlari tahlili⁵⁷.

Imkoniyatlari:	Muammolar:	Yechimlari:
<ul style="list-style-type: none"> -respublikaning markaziy viloyatida qulay transport yo‘lagida joylashganligi; -dunyodagi florasi va faunasi tabiiy holda saqlanib qolgan 200ta hududdan biri ekanligi; -rekreatsion-sog‘lomlashtirish resurslarning turizmni rivojlantirish uchun yetarligi; -noyob iqlimi va suv resurslarining tabiiy relefidan kelib chiqqan holda yetaricha ta’minlanganligi; -hududning o‘ziga xos o‘zgacha bo‘lgan moddiy (tarixiy ob’ektlar) va nomoddiy me’ros (etnografiya) va milliy an’analarga boyligi. 	<ul style="list-style-type: none"> -infratuzilmaning yetarlichcha rivojlanmaganligi sababli turistik ob’ektlarga olib boradigan yo‘llar va uning atrofidagi yordamchi xizmat ko‘rsatish shoxabchalarining yo‘qligi; -muhandislik infratuzilmalarini (kommunal, kommunikatsiyalar) rivojlantirishga yetaricha e’tibor qaratilmaganligi; -tumanda aholining o‘rtacha oylik daromadining respublika ko‘rsatkichlaridan (aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad) pastligi; -mahalliy va xorijiy investitsiyalarni xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini rivojlantirishga jalb qilishning qoniqarsizligi; -tumanda malakali xodimlar va xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning yetishmasligi. 	<ul style="list-style-type: none"> -turizmi infratuzilmasini rekreatsion-sog‘lomlashtirishga moslahtirish, moliyaviy manbalar va istiqboldagi ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish va rivojlantirishning aniq muddatini belgilash; -davolash-sog‘lomlashtirish turizmini rivojlantirish uchun kichik maxsus turizm zonalarini tashkil etishda alohida muhofaza etiladigan hududlardan foydalanish mumkinligi; -tog‘lardagi oqar suvlarda suv sporti, maxsus ov turizmi kabi turlarni rivojlantirish mumkinligi; -rekreatsion-sog‘lomlashtirish klasterlarini maxsus kichik turizm zonalarida tashkil etish.

Baxmal tumanida sog‘lomlashtirish yo‘nalishida tashrif buyurgan turistlarda hozirda ziyorat ob’ektlariga tashrif buyurish talabi ortib bormoqda. Respublikamizda moddiy madaniy meros ob’ektlari soni statistik ma’lumotlarga qarganda 8208tadan ortiqdir. Jizzax viloyatida davlat muhofazasiga olingan 427ta madaniy meros ob’ektlari mavjud bo‘lib, shundan, 268tasi arxeologik, 110tasi ziyoratgohlar, 49tasi monumental san’at ob’ektlari, diqqatga sazovar joylar hisoblanadi. Bu kabi imkoniyatlarni to‘g‘ri baholagan holda ziyoratgohlarning

⁵⁷ Tadqiqotchining kuzatishlari natijasida olingan xulosalari.

turistlarni qabul qilish imkoniyatlarini ham o‘rganish kerak. Tumanda ziyorat turizmi bo‘yicha turistik yo‘nalishlarni ishlab chiqishda nafaqat ichki balki xalqaro darajada ziyoratgohlarning pasportini ishlab chiqish lozim bo‘ladi.

Turistik destinatsiyalarning muvofaqiyatli faoliyat olib borishida transport infratuzilmasi ham asosiy omillardan biri hisoblandi. Bu borada bir qator loyihalar ishlab chiqilgan bo‘lib, 2023 yilda Baxmal tumaniga qo‘shi hudud Zominda yangi aeroport qurilib foydalanishga topshirildi, bu kabi qulaylik bevosita Baxmaltumaniga tashrif buyurayotgan turistlar uchun ham qo‘shtmcha imkoniyanlar beradi. Jahon standartlariga mos holda aeroport infratuzilmasini rivojlantirish, sifatli xizmatlarni tashkil etish, xalqaro va mahalliy aviaqatnovlarni yo‘lga ko‘yish orqali turistik destinatsiyaga sayyoohlarni keng jalg qilish belgilangan. Aeroportning ishga tushirilishi orqali hududda qo‘shtmcha xizmatlar (Duty Free, Tax Free, Turistik axborot markazi, mehmonxona, taksi va boshqa)ni rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan bирgalikda hududda vertolyot uchish va qo‘nish maydoni, ekstremal turizm (parashyutdan sakrash xizmatlari) tashkil etish ham rejalashtirilgan. Lekin, masalaning yana bir tomoni ham borki, har qanday loyihani amalga oshirishda atrof muhit ekologiyasini hisobga olish ham zarur omilga aylanib bormoqda. Ma’lumki, aviaparvozlar davomida atmosferaga juda katta miqdorda karbonat angidrid moddasi chiqadi. Bu esa ekologiya tozaligiga zarar keltirishi mumkin. Shu ma’noda, nisbatan yaqin yo‘nalishlarda havo transportidan voz kechish tajribalari dunyoda mavjud. Shunday ekan, ochilgan yangi aeroport va yangi yo‘nalishlar hududning ekologiyasiga qanday ta’sir o‘tkazishini ham o‘rganishimiz kerak. Chunki, Baxmal va Zomin tumanlari rekreatsion resurslarga boyligi bilan boshqa mintaqalardan tubdan farq qilishini yuqorida ta’kidlab o’tgan edik. Shundan kelib chiladigan bo‘lsak, rekreatsion-turistik destinatsiya sifatida Baxmal tumanini rivojlantiradigan bo‘lsak, destinatsiyadagi mavjud resurslardan maxsus turistik yo‘nalishlarni ishlab chiqish orqali sog‘liqni tiklash, sog‘lomlashtirish va faol dam olishni ta’minalash uchun innovatsion yondoshuvlar talab qilinadi. Tumanning tog‘ va tog‘ oldi landshaft rekreatsiya mintaqasi imkoniyatlaridan foydalanish xususiyatiga ko‘ra uni ikki

guruhgaga, muntazam davolanadigan va qisqa muddatli dam oladigan joylarga ajratish mumkin. Shu bilan birgalikda, tog‘ yon bag‘rida sport mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanish orqali dam oluvchilar va maxsus tashkil qilingan ob’ektlarda (sanatoriya, maxsus kempinglar) sog‘lig‘ini tiklaydigan, rekreatsion-sog‘lomlashtirish maskanlariga bo‘linadi. Turistik markazda Baxmal tumani ajoyib lanshafti va toza tog‘ havosi, flora va faunaning xilma-xilligi bilan mashhurdir. Bu hududda noyob bo‘lgan Turkiston archasi o‘sadi. Archa daraxtlari o‘zidan fitotsid moddalari chiqarib havodagi mikroblarni o‘ldiradi. Shuning hisobiga tog‘ havosi juda toza bo‘lib, bo‘g‘ma yo‘tal (astma) kasalliklari uchun davo bo‘ladi. Turkiston tog‘ining yonbag‘rida yilqilar uchun oziqbop bo‘lgan chalov va betaga o‘simligi o‘sadi. Shu sababli hududda zotdor bo‘lgan “Qorabayir”otlari etishtiriladi. Mahalliy aholi yilqi sutidan shifobaxsh bo‘lgan qimiz tayyorlash texnologiyasini asrlar davomida saqlab kelmoqda. Qimiz oshqozon, ichak kasalliklarini davolash uchun eng yaxshi tabiiy dori hisoblanadi. Hududda bu kabi tayyorlanadigan qimizdan davolash maqsadida foydalanish mumkin.

Shu bilan birgalikda hududning imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanishda zamonaviy darajada ishlashga qodir bo‘lgan mutaxasislarni jalb qilish va turistlarga xizmat ko‘rsatishda yangicha yondoshuvlarni talab qiladi. Bu borada ham amalga oshiriladigan ishlarni kechiktirmaslik lozim.

3.3. Turizm infratuzilmasini rivojlantirishni ko‘p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash

So‘nggi yillarda O‘zbekiston turizm salohiyatini iqtisodiy o‘sish va madaniy almashinuvning muhim omili sifatida tobora e’tirof etilmoqda. Mazkur islohotlar turizm infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo‘yicha hamkorlikdagi sa’y-harakatlarga turtki bo‘ldi. O‘zbekiston sayyohlik sanoati uzoq vaqtlardan beri o`ziga xos yondashuvlar asosida rivojlanib kelmoqda. Mamlakatning tarixiy va madaniy boyliklari Samarqanddagi gavjum Registon maydonidan tortib, Buxoro va Xivaning yaxshi saqlanib qolgan o‘rta asr

inshootlarigacha bo‘lgan sayyohlik uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi. Bu diqqatga sazovor joylar qadimiy Ipak yo‘li merosi va O‘zbekistonning tarixiy shaharlarining me’moriy ulug‘vorligi bilan tanishish istagida bo‘lgan dunyoning turli burchaklaridan tashrif buyuruvchilarni o‘ziga jalg qiladi.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz turizmni rivojlantirish va uning infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha salmoqli tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Turizmning iqtisodiy salohiyatini e’tirof etgan holda, hukumat mazkur sohani rivojlantirish bo‘yicha bir qancha strategik rejalarini amalga oshirdi. Bular qatorida O‘zbekistonning turizmni rivojlantirish milliy strategiyasi asosiy maqsad qilib qo‘yilgan bo‘lib, u ob’yektlarni yaxshilash, turistik mahsulotlarni diversifikasiya qilish va tashrif buyuruvchilarning umumiy tajribasini oshirish orqali O‘zbekistonni yetakchi sayyohlik yo‘nalishiga aylantirishga qaratilgan.

Hukumat viza jarayonlarini soddalashtirish, aloqani yaxshilash va mamlakatning noyob madaniy va tarixiy boyliklarini targ‘ib qilish bo‘yicha chora-tadbirlarni joriy qildi. Viza talablarini soddalashtirish va ko‘proq xalqaro parvoz yo‘nalishlarini o‘rnatish bo‘yicha sa’y-harakatlar sayyoohlар uchun qulay foydalanishni osonlashtirib, ushbu strategiyalarning markaziy o‘rinni egallaydi. Bundan tashqari, xalqaro standartlarga javob beradigan turar joy va transport vositalarini rivojlantirishga ham e’tibor qaratildi.

Takomillashtirilgan transport tarmoqlari turizmni rivojlantirish uchun juda muhimdir. Mamlakatimizda asosiy sayyohlik yo‘nalishlari o‘rtasidagi aloqani yaxshilash uchun aeroportlarni modernizatsiya qilish, ichki va xalqaro parvoz imkoniyatlarini kengaytirish, avtomobil va temir yo‘l tizimlarini yangilashga sarmoya kiritdi. Mehmondo’stlik sektorining o’sishi sayyoohlар sonining ko‘payishi uchun juda muhimdir. Mehmonxona qurilishi, ta’mirlanishi va xalqaro mehmonxona tarmoqlarini tashkil etishga yo‘naltirilgan investitsiyalar turar joy imkoniyatlarining yanada xilma-xil va sifatli bo‘lishiga yordam bermoqda. Madaniy va dam olish maskanlarini yaxshilash sayyoohlarga qiziqarli va esda qolarli tajribalar taqdim etishda muhim ahamiyatga ega. Bunga tarixiy obidalarni tiklash va asrab-avaylash, muzeylarni rivojlantirish, O‘zbekistonning boy merosini

namoyish etuvchi madaniyat markazlari barpo etish kiradi. Turistik xizmatlar sifatini oshirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Ekskursiya gidlari uchun o‘quv dasturlari, mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash va turizm bo‘yicha axborot markazlarini tashkil etish tashrif buyuruvchilarning yuqori sifatli va ma’lumotli tajriba olishini ta’minalashga qaratilgan sa’y-harakatlarning bir qismidir.

Bunday yutuqlarga qaramay, mamlakatimiz sayyohlik salohiyatini to‘liq ro‘yogda chiqarishda bir qancha muammolarga duch kelmoqda. Bular infratuzilmaga investitsiyalarni davom ettirish zarurati, ekologik barqarorlik bilan bog‘liq muammolarni hal qilish va turizmni rivojlantirish mahalliy hamjamiyatlarga foyda keltirishini ta’minalashni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, mamlakat o‘zining noyob madaniy boyliklari, Markaziy Osiyodagi strategik joylashuvi va o‘zini yetakchi sayyohlik yo‘nalishi sifatida ko‘rsatishga xalqaro qiziqishning ortib borayotganidan foydalanish uchun katta imkoniyatlarga ega. O‘zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirish xalqaro sayohatchilar uchun jozibador va jozibador joy sifatida mamlakat salohiyatini ro‘yogda chiqarish yo‘lidagi hal qiluvchi qadamdir. Davom etayotgan investitsiyalar va strategik rejallashtirish bilan hududlardagi turizm infratuzilmasini rivojlantirishga, yangi iqtisodiy imkoniyatlar barpo etishga va boy madaniy merosini chuqurroq tushunishga yordam berishga keng yo‘l ochmoqda. Turizm sanoati rivojlanishda va sayyohlik takliflarini kengaytirishda global turizm landshaftiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatishni kengaytirishda ko‘p tomonlama infratuzilmani yaxshilash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Turizm infratuzilmasini rivojlantirish, jumladan sanatoriylar, mehmonxonalar va kurort hududlarini barpo etish turizm industriyasining o‘sishi va barqarorligini ta’minalashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Masalan, sanatoriya muassasalari tashrif buyuruvchilarning tajribasi sifatiga bevosita ta’sir qiladi. Yaxshi ishlab chiqilgan turar joy va dam olish maskanlari qulaylik, qulaylik va turli xil imtiyozlar va ehtiyojlarni qondiradigan bir qator xizmatlarni taklif etadi. Masalan, yuqori sifatli mehmonxonalar va kurortlar hashamat va dam olishni ta’minalaydi, sanatoriylar esa maxsus sog‘lomlashtirish va sog‘lomlashtirish xizmatlarini taklif qiladi. Turar

joyning turli xil variantlari sayyoohlarga o‘zlarining umumiy tajribasi va qoniqishini oshiradigan mos turar joylarni topishlarini ta’minlaydi.

Sanatoriylar, mehmonxonalar va dam olish maskanlarini qurish va ulardan foydalanish mahalliy va milliy iqtisodiyotga katta hissa qo‘sadi. Ular qurilish ishchilari va mehmonxona xodimlaridan tortib, xizmat ko‘rsatuvchi provayderlar va boshqaruv mutaxassislarigacha bo‘lgan aholi uchun ish joylarini yaratadi. Bundan tashqari, ushbu ob’ektlar mahalliy biznesni, jumladan restoranlar, do‘konlar va transport xizmatlarini rag‘batlantiradi va iqtisodiy faollikni oshiradigan multiplikativ effekt yaratadi.

Zamonaviy va yaxshi jihozlangan sanatoriylar, mehmonxonalar va dam olish maskanlari sayyoohlarni jalb qilishda, ayniqsa, raqobatbardosh jahon turizm bozorlarida muhim ahamiyatga ega. Yuqori sifatli ob’ektlar boradigan joyni ajratib ko‘rsatishi va uni qulaylik, hashamat yoki noyob tajriba izlayotgan sayohatchilar uchun yanada jozibador qilishi mumkin. Turar joyning bir qator variantlarini taklif qilish orqali yo‘nalishlar byudjet sayohatchilaridan hashamatli izlovchilargacha bo‘lgan bozorning turli segmentlariga murojaat qilishi mumkin. Sanatoriylar ixtisoslashtirilgan muassasalar turizm sanoatining o‘sib borayotgan segmenti bo‘lgan sog‘lomlashtirish va sog‘lomlashtirish turizmiga xizmat qiladi. Ushbu muassasalar sog‘lig‘ini yaxshilash yoki kasallikdan xalos bo‘lishdan manfaatdor bo‘lgan sayyoohlarni jalb qiladigan terapeutik muolajalar, sog‘lomlashtirish dasturlari va dam olish xizmatlarini taklif qiladi. Bunday ob’ektlarni rivojlantirish nafaqat sayyoohlilik takliflarini diversifikatsiya qiladi, balki tashrif buyuradigan joyni salomatlik va salomatlik markaziga aylantiradi. Yuqori sifatli turizm infratuzilmasi destinasianing brend imijini yaratish va oshirishga yordam beradi. Hashamatli dam olish maskanlari, yuqori standartli mehmonxonalar va ixtisoslashtirilgan sanatoriylar borar joyni tashrif buyurish uchun kerakli joy sifatida qabul qilishga yordam beradi. Tashrif buyuruvchilarning ijobiliy tajribalari va yuqori qoniqish darajasi ijobiliy sharhlar, og‘zaki tavsiyalar va takroriy tashriflarga olib keladi, bu esa maqsadning obro‘sini yanada mustahkamlaydi.

Zamonaviy turizm infratuzilmasi energiya tejaydigan texnologiyalar, chiqindilarni kamaytirish dasturlari va ekologik toza qurilish materiallari kabi barqaror amaliyotlarni o‘zida mujassamlashtirgan holda ishlab chiqilishi mumkin. Barqarorlikni birinchi o‘ringa qo‘yadigan kurortlar va mehmonxonalar tabiiy resurslarni saqlashga yordam beradi va turizm faoliyatining atrof-muhitga ta’sirini minimallashtiradi. Ushbu yondashuv uzoq muddatli turizm rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi va mas’uliyatli va ekologik toza sayohatga qaratilgan global tendentsiyalarga mos keladi. Sanatoriylar, mehmonxonalar va dam olish maskanlarini o‘z ichiga olgan turli xil turistik ob’yektlarni rivojlantirish iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishga yordam beradi. Dam olish, biznes va sog‘lomlashtirish turizmi kabi turli sohalardan tashrif buyuruvchilarni jalg qilish orqali destinatsiyalar ularning yagona iqtisodiy faoliyatga bog‘liqligini kamaytirishi mumkin. Ushbu diversifikatsiya, ayniqsa global yoki mintaqaviy iqtisodiy tebranishlar davrida iqtisodiy barqarorlik va barqarorlikni oshiradi.

Turizm infratuzilmasini rivojlantirish ko‘pincha mahalliy jamoalarga investitsiyalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu investitsiyalar mahalliy xizmatlar, infratuzilma va qulayliklarni yaxshilashga olib kelishi mumkin, bu ham turistlar, ham aholi uchun foydalidir. Masalan, takomillashtirilgan transport tarmoqlari, yaxshi sanitariya inshootlari va takomillashtirilgan jamoat joylari hududdagi umumiy hayot sifatiga hissa qo‘shadi. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish, jumladan sanatoriylar, mehmonxonalar va dam olish maskanlarini barpo etish jonli va barqaror turizm industriyasini rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu ob’ektlar nafaqat tashrif buyuruvchilar tajribasini oshiradi va iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi, balki sog‘lomlashtirish va sog‘lomlashtirish turizmini targ‘ib qilish, barqaror amaliyotlarni qo‘llab-quvvatlash va boradigan joydagи umumiy hayot sifatini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Shunday qilib, yuqori sifatli turizm infratuzilmasiga sarmoya kiritish sayyoohlarni jalg qilish, mahalliy iqtisodiyotni yuksaltirish va turizm sektorining uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta’minlashning asosiy strategiyasidir. Mazkur tadqiqotning maqsadi turizm

infratuzilmasi ko'rsatkichlarini, shu jumladan sanatoriylar, mehmonxonalar va kurortlar sonini o'rta muddatli prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot jarayonida quyida usullardan foydalanildi:

Tahlillar jarayonida ARIMA (AutoRegressive Integrated Moving Average) modellari tendentsiyalar va potentsial mavsumiylik bilan vaqt seriyalari ma'lumotlarini qayta ishlashga mosligi asosida tanlangan. ARIMA modellari haqida umumiy ma'lumot.

ARIMA modellari o'tmishdagi ma'lumotlar asosida kelajakdagi qiymatlarni bashorat qilish uchun vaqt seriyasini prognozlashda qo'llaniladi. Model uchta komponent bilan belgilanadi:

AR (AutoRegressive): Ushbu komponent kuzatuv va bir qator kechikkan kuzatuvlari (oldingi qiymatlar) o'rtasidagi bog'liqlikdan foydalanadi.

I (Integratsiyalashgan): Ushbu komponent ma'lumotlarni statsionar qilish uchun farqlashni o'z ichiga oladi, ya'ni ma'lumotlarning statistik xususiyatlari vaqt o'tishi bilan o'zgarmaydi.

MA (Harakatlanuvchi o'rtacha): Bu komponent kuzatuv va kechikkan kuzatuvlarga qo'llaniladigan harakatlanuvchi o'rtacha modelidan qoldiq xato o'rtasidagi munosabatni modellashtiradi.

ARIMA(p,d,q) belgisi quyidagilarni bildiradi:

p: Modelga kiritilgan kechikish kuzatuvlari soni (AR komponenti).

d: Ma'lumotlarning statsionar bo'lishi uchun necha marta farqlanishi kerakligi (I komponent).

Tanlash mezonlari sifatida modellar vaqt seriyasi ma'lumotlarining tabiatini, shu jumladan trend komponentlari va statsionarligi asosida tanlangan. Tanlangan ARIMA modellari ARIMA (0,0,0): Hech qanday farq yoki qo'shimcha parametrlarni qabul qilmaydigan oddiy modelni anglatsa, ARIMA (0,1,0): mazkur model ma'lumotlardagi tendentsiyalarni hisobga olgan holda serianing o'rtacha qiymatini barqarorlashtirish uchun farqlashning bir darajasini ($d=1$) o'z ichiga oladi. U avtoregressiv (AR) yoki harakatlanuvchi o'rtacha (MA) komponentlarini o'z ichiga olmaydi. Tahlillar 12 yil oralig'idagi vaqtli qatorlar ma'lumotlari

asosida SPSS 25.0 dasturida ekonometrik modellashtirildi. Modellarning moslik statistikasi statsionar R-kvadrat: statsionarlik farazi ostida model tomonidan tushuntirilgan dispersiya ulushini o‘lchaydi. R-kvadrat-bu asl vaqt seriyasida model tomonidan tushuntirilgan dispersiya ulushini ko‘rsatadi. RMSE (Root Mean Squared Error)- bashorat qilish aniqligi o‘lchovini ta’minlab, prognoz xatolarining o‘rtacha hajmini baholaydi. MAPE (O‘rtacha mutlaq foiz xatosi) esa, prognoz aniqligining foizga asoslangan o‘lchov birligidir.

Normallashtirilgan BIC (Bayesian ma’lumot mezoni)- modelni tanlash mezoni, bu model mosligini murakkablik bilan muvozanatlashtiradi.

Model statistikasi ya`ni model parametrlari sifatida ARIMA modellari tarixiy ma’lumotlar asosida parametrlangan, ARIMA (0,0,0) hech qanday avtoregressiv yoki harakatlanuvchi o‘rtacha shartlarni o‘z ichiga olmaydi va ARIMA (0,1,0) tendentsiyalarni hisobga olish uchun farqni o‘z ichiga oladi.

